


•JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN•



# SO'QQABOSH

*Qiya va hikoyalar*

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

# SO‘QQABOSH

*Qissa va hikoyalari*



ZIYO NASHR

Toshkent  
**2022**

UO'K: 821.133.1-32

KBK 84-445

S 14

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad,  
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,  
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Dildora ARZIKULOVA va b.**

**Savate, Pol.**


S 14      **So'qqabosh** [Matn]: qissa / Pol Savate; tarjimonlar: D. Arzikulova va b.- T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 160 b.

ISBN 978-9943-8578-0-3

Pol Savatening „So'qqabosh“ nomli hikoyasi bilan nomlangan ushbu to'plamdan jahon adiblarining bir qator hikoyalari o'rIN olgan. Turfa taqdirlar, atrofdagi kishilarning munosabati hayot deb atalmish bu ko'hna dunyoning turfa voqealaridan hikoya qiladi.

**UO'K: 821.133.1-32**

**KBK 84-445**



ISBN 978-9943-8578-0-3

© Dildora Arzikulova va b. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarcandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrat bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarining madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazariidan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezident kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasiniz izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jiddlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chekov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nasrinig deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyl, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jiddlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz''iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar, degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, joyajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## NAY

– Mana, – dedi otam suyakdan yo‘nilgan ixcham nayni qo‘limga tutqazarkan, – ola qol, olis o‘lkalarda buni chalib, odamlar ko‘nglini xushnud qilganingda, keksa otangni ham eslab qo‘ygin. Hozir dunyo ko‘rib, bilmagan narsalaringni o‘rganadigan yoshdasan. Bu nayni sen uchun ataylab yasattirdim. Chunki qo‘lingdan hech vaqo kelmaydi, faqat quvnoq yallalarни xirgoyi qilib, taralabedod qilib yurishdan boshqasini bilmaysan. Binobarin, Parvardigor ato etgan iqtidorni boy bersang, mening ikki dunyom ham barbod bo‘ladi.

Hotamday qo‘li ochiq otam olim bo‘lgani uchun musiqani tushunmasdi; shu bois nayni puflasam, bas, dilxush taronalar o‘z-o‘zidan yangrayveradi, deb o‘ylardi. Bu gapni aytib uni ranjitgim kelmadи, „Rahmat, otajon!“ dedim-da, nayni qo‘ynimga solib, u bilan xayrslashdim. Men vohamizni tegir-monga qadar besh qo‘lday bilardim; tegirmon-dan o‘tganim hamono ko‘z o‘ngimda yangi olam paydo bo‘ldi va tamomila rom qildi. Gullar shar-bati bilan to‘yinib olgan bolari yengimga qo‘ndi; uni o‘zim bilan avaylab olib ketib borarkanman, hordiq chiqarish uchun biron joyda to‘xtaganim zahoti bu elchini xushxabar bilan yaqinlarim qo-shiga jo‘natishni ko‘nglimga tugib qo‘ydim.

O'rmonlar va yaylovlar hamrohim bo'ldi, yon-ginamda daryo o'ynoqlab oqardi, bu joylar o'z di-yorimdan deyarli farq qilmasdi. Dov-daraxtlar-u chappar gullagan o't-o'lalar, boshoqlagan bug'-doyzor-u yong'oqzor menga butun sir-asrorini oshkor qilib, kuylay boshladilar va men ularga jo'rovoz bo'ldim, ular esa tug'ishganlarim kabi dardimga darmon bo'ldi; mudragan bolari niho-yat uyg'ondi va ohista yelkamga ko'tarildi, parvo-naday ikki marta atrofimda aylanib-o'rgildi, ma-yin vizillagan taronasi bilan meni sarmast qilgach, qadrdon o'lkam tomon o'qday uchib ketdi.

Daf'atan o'rmon ichidan savat ko'tarib olgan, oltinday zarg'aldoq boshiga enli gardishli shlyapa kiyib olgan huriliqo qiz chiqib keldi. Shlyapa gardishining soyasida uning qiyofasi sirli va ni-hoyatda jozibador ko'rinardi.

– Yo'l bo'lsin, oyimqiz, – so'radim undan.

– O'roqchilarga tushlik olib ketayotirman, – ja-vob berdi u men bilan yonma-yon qadam tash-lash asnosida. – O'zing qayoqqa otlanding?

– Otamning gapi bilan sayr-u sayohat qilib yu-ribman. Uning aytishicha, odamlarga nayda kuy-lar chalib berishim kerak, lekin hali nay chalish hadisini organimcha yo'q, o'rganishim kerak.

– O'zi qo'lingdan biron ish keladimi? Nimani bilasan?

– Aytarli hech narsani. Lekin qo'shiq ayta ola-man.

– Qanday qo'shiqlar?

– Turli qo'shiqlarni bilaman. Tongda va shom-da aytiladigan, dov-daraxtlar, jonivorlar-u gul-chechaklar uchun aytiladigan qo'shiqlar. Masa-

lan, hozir o'rmon ichidan chiqib, o'roqchilar uchun tushlik olib ketayotgan farishtaday go'zal haqida kuylashim mumkin.

- Sen-a? Nahotki? Qani, boshla!
- Jonim bilan, lekin ismingni ayt?
- Brigitta.

Va men bejirim shlyapa kiyib olgan go'zal Brigitta haqida, uning yeguliklar to'la savati to'g'-risida, gul-chechaklar unga suqlanib termilayotgani, shabboda-yu kabutarlar g'ovlar osha unga peshvoz chiqayotgani haqida kuylay boshladim.

Brigitta qo'shilganimni jon qulog'i bilan tinglab, juda manzur bo'lganini aytdi. Och qolganimni eshitgani zahoti savatning qopqog'ini ochib, bir bo'lak non tutqazdi. Nondan tishlab yana ham ildam qadam boshlaganimni ko'rib, ranjiganday dedi:

- Kim yo'l-yo'lakay ovqatlanadi-a? Kel, o'tirib, xotirjam ovqatlanib ol. Bahonada bir yo'la dam ham olasan.

Ikkimiz ham maysazorga joylashdik, men huzur qilib nonni yer ekanman, Brigitta oyoqlarini quchoqlagancha mendan ko'zini uzmasdi. Nonni yeb bo'lganimdan keyin so'radi:

- Men uchun yana bitta qo'shiq aytib bermaysanmi?

- Jon deb aytaman. Lekin qanday qo'shiq bo'l-sin?..

- Sevgan yori tashlab ketgan, yor hajrida o'r-tanayotgan qiz haqida.

- Hijron dardi haqida kuylay olmayman. Bunday savdo boshimga tushmagan, qolaversa dard-u alamga berilishning nima hojati bor. Otam men-

ga kamtarona va dilkash taronalarni kuylagin degan. Xohlasang kakku qush yoki kapalak haqida qo'shiq aytib beraman.

– Muhabbat haqida hech qanday qo'shiq bilmaysanmi? – so'radi u biroz tin olgandan keyin.

– Muhabbat haqidami? Nega bilmas ekanman. Eng go'zal qo'shiqlarim ayni muhabbat haqida!

Men darhol alvon atirgul haqida, uning quyosh nurlariga oshiqona talpinishi to'g'risida, nar sayroqi qushni intizorlik bilan kutayotgan moda sayroqi qush haqida, nar qush paydo bo'lganida esa qo'rqib ketganday pir etib nariga uchishi to'g'risida kuylay boshladim. Shu bilan birga ko'zлari qo'ng'ir tusli qizaloq hamda qayerdandir kelib qolgan yigitcha haqida, kuylagan qo'shig'i uchun qizdan bir burda non olgani to'g'risida kuyladim; endilikda bu yigitcha non emas, balki qizdan bo'sa olishni, ko'zлariga to'ymay tikilishni istayotgani; toki lablariga lablarini bosib, og'zini muhr-lab tashlamas ekan, bu haqda to'xtovsiz kuylay-verishi haqida qo'shiq aytdim.

Shu palla Brigitta xiyol engashib lablarini lablarimga bosgancha ko'zлarini yumdi, ko'zлarini qayta ochganida esa uning qo'ng'ir-sarg'ishtob ko'zлari ko'zgusida o'z aksim hamda bir necha oppoq chechaklar jilva qilayotganini ko'rdim.

– Olam go'zal, – dedim men quvonchdan entikib, – otam juda to'g'ri aytgan. – Savatni menga ber, o'roqchilar oldiga tezroq yetib olishing uchun yordamlashib yuboray.

Qizning qo'lidan savatni oldim, ikkalamiz ba-qamti odimlay boshladik, ikkalamizning qalbimizda ham shod-u xurramlik to'lib toshardi, tog'lar

bag'ridan ufurayotgan salqin shabboda esa bizlar-ni go'yo ohista allalardi, sayr-u sayohatdan hech qachon bu darajada rohatlanmagandim. Oldiniga ovozimni baralla qo'ygancha bir necha qo'shiq kuyladim. Keyin esa sukut saqlashni afzal bildim – zotan, bizni qurshab olgan olam sir-asrorlarini kuylagan bilan poyoniga yetkazib bo'lmasdi. Vohalar-u tog'-u toshlarning, gul va chechaklarning, dov-daraxtlar-u butazorlarning, butun yer-u osmonning pinhona rozi yetti uxbab tushimga ham kirmagan sirli olamlar haqida kuylardi.

Ko'nglimdan beixtiyor mastona fikrlar kechdi: „Basharti o't-o'lanlar-u gul-u chechaklar, odamlar-u bulutlar, hamma-hammasi haqida, man-gu yam-yashil o'rmonlar-u jamiki darrandalar-u parrandalar to'g'risidagi alyorlarni, qolaversa, olis-olislardagi dengizlar-u tog'larning, jamiki yulduzlar-u oymomolarning qo'shiqlarini kuylay ol-ganimda bormi, men baayni muqtadir Tangrining o'zi bo'lardim, men kuylagan har bir yangi tarona esa munavvar yulduz bo'lib samoga parvoz qilgan bolardi“.

Hatto nafas olishdan ham cho'chib, hayratlar og'ushida sarmast ketib borarkanman, Brigitta ilkis to'xtadi-da, savatning bandidan tutgancha dedi:

– Men anavi qirga ko'tarilishim kerak. U yerda biznikilar g'alla o'rmoqda. Sen qaysi tomonga ketasan? Men bilan birga yurmaysanmi?

– Afsuski, sen bilan birga ketolmayman. Otam dunyoni ko'rgin deb aytgan. Non uchun ham, bo'sa uchun ham senga katta rahmat, Brigitta. Seni aslo unutmeyman.

U savatni qo'liga oldi, nigohlarimiz yana birlashdi, lablarimiz yana qovushdi, bu boldan ham totli bo'sa bo'ldiki, men es-hushimdan ayrilishimga bir baxya qoldi. Sir boy bermaslik uchun shosha-pisha „Alvido!“ dedim-da, yo'linda ildam davom etdim.

Qiz tepalikka asta ko'tarila boshladi, o'rmon chetidagi qora qayin tagida bir soniya to'xtadi-da, o'girilib men sari tikildi va men qalpog'imni qo'linda tutgancha xayrplashdim – u menga bir marta ishora qildi-yu qayinlar og'ushida sharpaday g'oyib bo'ldi.

Xayolga tolgancha yo'linda davom etdim, nihoyat, yo'l keskin burildi.

Ro'paramda tegirmon qad rostladi, uning ortidagi daryoda esa chog'roq qayiq chayqalar, qayiqda yolg'iz odam o'tirardi. U aftidan faqat meni kutayotgandi, binobarin kallapo'shimni olib, u bilan salomlashib, qayiqqa o'tirishim bilan qayiq oqim bo'ylab suzib ketdi. Men qayiqning o'rtasida o'tirardim, u esa orqada qayiqni boshqarib borardi. Qayoqqa borayapmiz, deb so'ragan edim, u boshini ko'tarib, xiyol xiralashgan kulrang ko'zları bilan jiddiy tikilib qoldi.

– Sen xohlagan joyga, – dedi u ovozini biroz pasaytirib. – Xohlasang oqim bo'ylab suzib ketavera-miz. Istan sang dengizga yoki katta shaharga boramiz – tanla. Bu yerda barchasi mening ixtiyorimda.

– Hammasi sening ixtiyoringga? Qodir qিrolmisan?

– Ehtimol, – javob berdi u. – Sen esa baxshiga o'xshayapsan. Rost bo'lsa menga yo'llar haqida qo'shiq aytib ber!

Men o'zimni qo'lga olishga urindim – oppoq sochli va jiddiy qariyaning qiyofasi ko'nglimda ham ehtirom, ham hadiksirash tuyg'ularini uyg'otgandi. Qayiq esa daryo bo'y lab qanot bog'laganday sassiz uchib borardi. Men bag'rida qayiq yelib borayotgan daryo haqida, mavjlarida quyosh nurlari jilva qilayotgani hamda ikki sohil bag'rida to'l-g'anayotgan daryo haqida kuylay boshladim.

Qariyaning biron tuki qilt ham etmadi. Qo'shiq'im tugaganda esa uyqusiragan kimsaday nomigagina imo qildi, xolos. Nihoyat, meni tamomila hayratga solib u ham daryo haqida, uning shidatli va sermavj oqimi haqida kuylay boshladi, biroq bu qo'shiq'imizga nisbatan maftunkor va qudratli tarona bo'lib, tamomila o'zgacha yangrardi. U tarannum etgan daryo vayronkor kuch singari yovvoyi va yovuz edi; yo'lida duch kelgan barcha tegirmonlardan tishlarini qayragancha o'tardi, beli uzra tashlangan ko'priklarni ko'rgani ko'zi yo'q edi; bag'rini pora-pora qiladigan har qanday qayiq va kemadan nafratlanardi; biroq cho'kib nobud bo'lganlarning oq yemday oqarib ketgan tanalarini o'z mavjlarini ipakday mayin suv o'tlari bilan avaylab siypalardi.

Bular, tabiiyki, kaminaga yoqmadi, lekin shu qadar sirli va jozibador yangradiki, sehrli ohanglariga nainki maftun, ayni paytda tamomila taslim bo'ldim. Basharti soch-soqoli kirpining tikonlariday o'sib ketgan mana shu qari donishmand biroz xirillagan asno aytayotgan qo'shiq rost bo'lsa, mening qo'shiqlarimning barchasi dumbul va bolalarning shunchaki ermagidan bo'lak hech vaqo emas. U holda dunyo mohiyatan ezgu

va munavvar emas, aksincha, zim-ziyo va zulmat iskanjasida, yovuz ham makkor, binobarin o'rmonzorlar quvonganidan emas, balki azob-u uqubatdan faryod solganday shovullaydilar.

Daryo bo'ylab hamon suzib borarkanmiz, soyalar birmuncha uzaydi hamda har gal kuylaganimda, qo'shiqlarim tobora maftunkorligini boy berib, ovozim ham pasaygandan pasayib borardi, notanish qariya har gal kuylaganda esa olam yana ham sirli-sinoatli va dahshatliroq tuyular, oqibatda dard-u hasratim ortib, yuragim yana ham qattiq o'rtana boshlardi.

Yuragim qon bo'lib ketdi, sohilda, undan ham narida gul-chechaklar og'ushida yoki Brigetta bilan qolmaganidan afsuslana boshladim, quyoshning so'nggi shu'lalarini kuzata turib, tobora qorong'ilashayotgan shom zulmatida taskin topish maqsadida Brigitta va uning otashin bo'salari haqida bor ovozim bilan qo'shiq kuylay boshladim.

Biroq shu palla chor-atrofni tun zulmati qopladi va nafasim ichimga tushib ketdi, qayiqni boshqarayotgan qariya esa kuylay boshladi, u ham muhabbat va ishqiy ehtiroslar haqida, qo'n-g'irtob va moviy ko'zlar, porsillagan alvon du-doqlar haqida kuylardi, qoraygan daryo mavjlarini uzra kuylayotgani, ayniqsa, go'zal va maftunkor edi! – biroq uning qo'shig'ida muhabbat ham mavhum va xatarli edi, muhabbat go'yo halokatli sinoatga aylangandiki, oqibatda odamlar aql-u hushini tamomila yo'qotar, qismatning boshi berk ko'chalarida tentirar, bor-budidan judo bo'lar, ayni muhabbat kasriga qolib bir-birlarini azoblar va o'ldirar ham edilar.

Uning go'yandalar kabi oh-u faryodini tinglar ekanman, yuragim ming bir dard-u hasrat bilan to'lib-toshdi, azob-u uqubat va dard-u hasratlar girdobida minglab yillardan buyon sarson-u sargardon uloqib yurganday his qildim o'zimni. Qariyaning armonli ko'ksidan chiqayotgan dard-u hasrat va azob-u uqubatlarning sassiz, yaxday oqimi yuragimga ilonday o'rmalab kirayotganini yaqqol his qilib, etim junjikib ketdi.

– Xullas, hayot emas, – o'zimni bosa olmay g'a-zab bilan dedim men, – balki ayni o'lim eng yuksak va oliyjanob hisoblanadi! Basharti shunday ekan, ey qayg'uli qirol, menga ajal haqida kuylagin!

Qayiqni boshqarayotgan qariya ajal haqida kuylay boshladи, shu qadar maftunkor kuyladiki, sira ham qiyosini topa olmadim. Biroq ajal ham g'oyat yuksak va oliyjanob bo'la olmasdi, tashna qalbim hatto ajal og'ushida ham taskin topa olmasdi. Goh ajal ustun kelsa, goh hayot ustun kelardi, ular ishq to'shagidagi oshig'-u ma'shuqday payvasta bo'lib ketgandi, bu olamning pirovard nati-jada haqiqati va mohiyati edi. Ayni shu nuqtadan taralayotgan nur shu'lesi har qanday qayg'uli manzaraga jon va go'zallik baxsh etar, shu bilan birga uning ko'lankasi jamiki go'zalliklar va shod-u xurramliklarga soya solar hamda bularning barchasini zulmat ichra g'arq qilardi. Lekin, zulmat qa'rida ehtiroslar yana ham haqqoniy va yorqin yolqinlanar, muhabbat esa zim-ziyo tun og'ushida kuchaygandan kuchayib rangpar qiyofa kasb etardi.

Men uning qo'shiqlarini jon qulog'im bilan tinglar ekanman, butun inon-ixtiyorimni qo'shxo'llab

notanish kimsaga topshirgandim. U menga tikilib qoldi, nigohi beozor, shu bilan birga allaqanday qayg'uli va mehribon ham edi, nursiz ko'zlarida iztirob-u olamning go'zalligi jilva qilardi. Menga qarab jilmayar ekan, butun irodamni to'plab, alam bilan dedim:

– O'tinaman, ortga qaytaylik! Tun zulmati va himaga solayotir, qayta qolaylik. Brigittaning oldiga yoki uyimga, otamning oldiga qaytgim keelayotir.

Notanish qariya o'rnidan qo'zg'aldi va tun zulmatiga ishora qildi – fonar yorug'ida uning ozg'in va qat'iyatli qiyofasi yaqqol ko'zga tashlandi.

– Ortga yo'l yo'q, – dedi u tantanavor va do'stona ohangda. – Agar olam qalbini kashf etishni istasang, hamisha olg'a yurishing darkor. Ko'zлari qo'ng'ир qizdan esa eng go'zal hadyani – boldan ham totli bo'sani olib bo'lding, binobarin, undan uzoqlashganing sayin yana ham hayratomuz va g'aroyib tuyulaveradi. Mayli, to'rt tomoning qibla, qayiqni ixtiyoringga topshiraman.

Bag'rim qanchalar o'tanmasin, uning barcha gaplari to'g'ri edi. Brigittani, ota makonimni, kuni kecha hamroh-u hamnafas bo'lib, ko'nglimni ravshan qilgan yaqinlarimni eslab o'zimni qo'ygani joy topolmay qoldim – nahotki barchasini butunlay boy bergen bo'lsam! Kamiga qayiqni ham bundan buyon o'zim boshqarishim kerak. Peshonam bunchalar sho'r bo'lmasa!

Taqdirga tan berib, qayiqning quyrug'i tomon yurdim, notanish kimsa peshvoz kela boshladi, yuzma-yuz kelganimizda ko'zlarimga qattiq tikildi va chiroqni tutqazdi.

Joylashib, chiroqni yonimga qo'ydim-da, qayiqni boshqarishga chog'lanar ekanman, qayiqda yolg'iz qolganimni, notanish qariya g'oyib bo'lganini payqab, yuragim orqaga tortib ketdi. Lekin vahimaga tushmadim, chunki meni shunday qismat kutib turganini bilardim. Ko'ngilli sayr-u sayohat ham, go'zal Brigitta ham, mehribon otam va qadrdon diyorum ham – hamma-hammasi endilikda sirli tushday tuyular, o'zimni achchiq turmush tajribalari yelkasini tog'day ezayotgan, zim-ziyodaryo bag'rida to'xtamay, mangu suzib borayotgan qariyaday sezardim.

Notanish qariyani chorlashimning foydasi yo'q ekanini anglasam ham sovuq haqiqatning ko'zlariga tik qarashga sira yuragim dov bermasdi.

Taxminam rost ekaniga ishonch hosil qilish uchun chiroqni daryo uzra ko'tardim: zim-ziyodaryo ko'zgusidan shafqatsiz kimsa rangi bo'zar-gancha tikilib turardi; qartaygan, yerning ostidan paydo bo'lganday bu qariya – aslida mening o'zim edim.

Ortga yo'l yo'qligi uchun zim-ziyodaryo bo'ylab suzib ketaverdim.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **SO'QQABOSH**

Tog'da bir haftadayoq kayfiyati ancha ko'tarildi. Do'xtir: havo almashtiring, tog'ga borib dam olib keling, deb to'g'ri aytibdi.

Nihoyat, miriqib u xlabel boshladi. Ilgari salgina shitirlashdan ham cho'chib uyg'onib ketgancha vahima bosib tun bo'yi mijja qoqmay chiqardi. Ishtahasi ochilib, oyoq-qo'li ham chaqqonlashdi. U mavsum oralig'ida deyarli huvullab qolgan chang'i uchish maydoni bo'ylab sayr qilarkan, o'zini erkin qushday his qilardi. Mahalladoshlari sira ko'zini ochirmas, bu yerda esa hech kim mushugini pisht demasdi.

Sigaretta yoki bir bo'lak sovun xarid qilish uchun biron do'konchaga bosh suqsa, sotuvchilar ism-sharifini aytib ensasini qotirmas, salomatligini so'rab yoki ertangi ob-havo haqidagi safsatalar bilan bezor qilmasdi. Sotuvchilar u so'ragan narsani indamay peshtaxta ustiga qo'yar va qaytimini uzatishardi.

Boshqa mijozlar singari u ham bu yerda sayyoh, ya'ni hech kimni qiziqtirmaydigan besh kunlik mehmon edi. Keyingi bir oy mobaynida boshiga tushgan savdolarni eslaganda bu yerda o'zini jannatga tushganday baxtiyor sezardi.


\* \* \*

U oltmis besh yoshga kirganiga qaramay, otday sog'lom edi. Biroq shunga qaramay, ikki oy muqaddam uni nafaqaga chiqarishdi. E'tiroz bildirmay, taqdirga tan berdi.

Qolgan umrini maroqli o'tkazish niyatida reja ham tuza boshladi. Ro'zg'or yumushlari bilan bir qatorda – u so'qqabosh edi – kuniga soat jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi ko'ngliga tugib qo'ydi. Qolgan vaqtida esa o'ttiz yildan ortiq bo'limgan qadrdon Luden shahrining tarixini o'rganadi.

Afsuski, hamma rejalari chippakka chiqdi. Yangi hayot baxtiyor xotirjamlik o'rniqa faqat ko'ngilsizliklar keltirdi. Ilk sayr paytidayoq – u ko'proq piyoda yurishni mo'ljallagandi – odamlar g'alati tikilayotgandek tuyuldi. Yettiyon begona ayrim kimsalar esa irshayib yoki boshini silkib salomlashardi. Bularning barchasi unga noodatiy tuyular va g'ashini keltirardi.

Mana shu mahallada o'n besh yildan buyon yashayotgan bo'lsa, biron-bir tanish-bilish orttirmagan, hech kim bilan berilib suhbatlashmagan. U hamisha o'zini xokisor tutar, barchaga begonasirab qarardi. Qo'ni-qo'shnilarini tanimas, ularning ham e'tiborini tortmaslikka urinardi. Hech kim xotirjamligiga raxna solishini istamasdi; shu niyatda odamlardan o'zini chetga tortardi. Hatto tikuvchi bilan sartaroshning oldida ham tiliga ortiqcha erk bermasdi. Oziq-ovqat do'konlarida esa og'zidan bitta ham ortiqcha so'z chiqmasdi.



Ishlab yurganida hayoti risoladagidek kechar-di, nafaqa olishni boshladi-yu hammasi izdan chiqdi. Kunduzi dastlab sayrga chiqqandayoq qo'ni-qo'shnilarning qiziqsinib kuzatayotganlarini payqadi. Bu o'yin paytida raqibi qasddan g'irromlik qilganday g'azabini keltirdi. Hech kimning salomiga alik olmasdi, irshayib qaraganlarga esa nafrat bilan tikilardi.

Avvaliga g'azablangan bo'lsa, ko'p o'tmay xavotir domiga qoldi. Bir gal xiyobondagi o'rindiqda hordiq chiqarib o'tirganda qo'lтиqtayoqli notanish kimsa yoniga joylashib olib, hasrat qila ketdi. Notanish kimsa o'ziga qarata gapirayotganini oldiniga tushunmadi: o'zi bilan o'zi gaplashadigan, oshkora o'ylaydigan va orzularga beriladigan savdoyillardan biri bo'lsa kerak, deb o'yladi. Afsuski, buning aksi edi. Notanish odam aynan unga qarata malomat toshlarini uloqtirardi.

— Bizday nogironlarning dardidan bexabar, oyoq-qo'li butun kimsalar ham bor, — dedi u. — Olamni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi, pinagini buzmay sayr qilib yuraveradi. Tog'ni ursa talqon qiladigan kuchi borligiga qaramay, tekinxo'r kanaday o'zgalar qonini ichadi. Mo'may nafaqa ham oladi. Men esa tishimning kirini so'rib yuribman. Shu hamadolatdanmi? Tabiatda ham shu ahvol... Kimdir dala-dashtda xarob kulbaga ega bo'lishni baxt deb biladi, kimdir esa chinorlar-u mevali daraxtlar bag'ridagi shohona imoratda davron suradi. Biroq ularga bu ham kam! Biz kabi g'ariblarga joy berishni xayoliga ham keltirmay xiyobonlarni egallab olishadi. Buni ularga kim ham taqiqlab qo'yardi, xiyobonlar hamma-

niki! O'zgalarga zarari tegmasa bas, bizda hamma erkin. Siz ham erkinsiz, to'g'rimi? Yo erkin emasmisiz? Mayli, indamay qo'ya qoling... Lekin sirasini aytganda, men ayrim kimsalar kabi ham xo'rdani, ham burdani uradigan olg'irlar xilidan emasman. Hech kimga zarracha ziyonim tegmasa deyman. Yana maqtanchoq ekan, deb o'ylamang. Axir, odamlarga turlicha xalaqit bersa bo'ladi. Gap-so'zlarim malol kelayotganini aytishgani hamono nari ketaman... Har kim o'z bilganicha yashaydi, buni tushunish kerak... Yonimda o'tirgan tasqara esa buni tushunishni istamayapti... Qulog'iga tanbur chertib nima baraka topardim. Bor-e!..

Notanish kimsaning ta'nalaridan toshday qotib qoldi. Qaysi aybi uchun? Nahotki bu kimsa uni tanisa? U bironta tuki qilt etmasdan, tili kallimaga kelmay g'ujanak bo'lib oldi. Baxtiga notanish kimsa sayray-sayray charchadi shekilli, bungilmaydigan oyog'ini sudragancha nari ketdi.

Biroz o'ziga kelib oldi-yu barchadan nigohini olib qochgancha uyiga oshiqdi. Ko'cha muyulishida to'xtab, odatdagidek yarimta baton olish uchun non do'konga kirdi. Kutilmaganda sotuvchi uzoq yillar mobaynida birinchi marta ism-sharifini aytib murojaat qildi:

– Sizga nima bo'ldi, tobingiz qochdimi, janob B.? Rangingiz dokaday oqarib ketibdi.

U yo'q, deganday imo qildi-da, qaytimni olishni ham unutib, tashqariga otildi. Uyiga kelib darvozani ham, eshikni ham qulfladi. Shunaqayam jahli chiqdiki! Hamma til biriktirib olganmi?! U bilan gaplashishga begona odamlarning qanday

haddi sig'di? Nima kerak ularga? Qaysi qilgan gunohlari uchun qasos olishmoqchi? Biron-bir sababsiz malomatga qolganini sira tushuna olmasdi. Nahotki, qo'ni-qo'shnilarini unga nisbatan birorta nojo'ya ish qilishni mo'ljallayotgan bo'lishsa? Biroq nega? Yo uyi bilan bir parcha bog'iga hasad qilishyaptimi? Qanchalar pastkashlik!

Ertasiga uydan kamroq chiqishga qaror qildi. Jismoniy tarbiya mashqlarini ham xonada bajardi, lekin dimiqqan xonada o'n daqiqa ham o'tmay toliqib qoldi. Risoladagidek hayotiga shu asno putur yetdi. Zora chalg'isam degan niyatda „Ludenlik jin chalgan rohibalar solnomasi“ kitobini o'qishga tutindi, biroq yuragidagi vahima yana ham kuchaydi: chor-atrofini ko'zga ko'rinnmaydigan g'ayrioddiy sharpalar qurshab olganday tuyldi...

Derazaning oldiga o'tirib olib, tirqishdan ko'chani kuzata boshladi. Ko'pgina yo'lovchilar hovlini o'ragan panjara devor osha bog'iga suqlanib qarayotganini payqab, yana vahimaga tushdi.

Kechasi barcha eshiklarni tambalab xonasiga qamalib oldi. Biroq sahargacha uxlay olmadi. Oromkursiga ikki bukilib joylashib olgancha bog'dan shoxlarning arang eshitilayotgan, biroq vahimali shitirlashlariga qulqoq solib chiqdi. Tun epkinlari qandaydir yovuz ruhlarning sovuq nafasini eslatardi... Tong bo'zarishi bilan ko'zguga nazar solib, bir kechadayoq soqoli qorday oqarib ketganini ko'rdi.

Keyingi kunlarda baqqol, qassob va sutchidan zarur mahsulotlarni xarid qilish uchungina ko'chaga chiqdi. Sotuvchi ism-sharifini aytib g'a-

shiga tegmasligi uchun non do'konga kirmadi, pecheniy bilan kun ko'rishga ahd qildi. Biroq bu ehtiyyotkorlik ham naf bermadi: hamma joyda shubhali nigohlarni sezib turardi. Sotuvchilar kelishib olganday o'zlarini uning sog'lig'i haqida qayg'urayotganday ko'rsatishardi. Eng alam qiladigani, ularning hammasi – ayrimlari oldinroq, ayrimlari keyinroq – unga ism-sharifini aytib murojaat qila boshladi. Hech kim bilan osh-qatiq bo'lishni istamasa ham hamma uni tanib olganga nihoyat, qat'iy ishonch hosil qildi.

Ko'chada hamma uning ortidan tikilardi. Biror davraning yonidan o'tadigan bo'lsa, gaplashib o'tirgan odamlar yaqinlashishi bilan jim bo'lib qolar, yiroqlashgani hamono yana gapga tushardi. Nazarida hamma faqat u haqda gapirar, kurakda turmaydigan mish-mishlarga zo'r berardi.

Oxir-oqibat uydan chiqmay qo'ydi. Suvga g'arq bo'lganday ko'zlardan yo'qoldi. Kunduzi darchalarni ochmas, kechasi esa chiroq ham yoqmasdi. Shunday qilsam hamma meni qayergadir jo'nab ketgan, deb o'laydi degan fikrda edi. Oziq-ovqatni juda tejab, hatto misqollab ishlatdi: axir, qamal uzoq davom etishi mumkin. Uyqusizlikka duchor bo'lgani kamday ishtahasi ham yo'qoldi. Polning g'ijirlashidan cho'chigan o'g'ri singari o'z uyida mushukday pisib qadam tashlardi.

Nimqorong'i uyda qo'liga kitob ham olmay qo'ydi. Kun-u tun butun vujudi qulqoqqa aylanib, tiq etgan tovushni ham ilg'ashga harakat qilardi. Nazarida xatarli tovushlar tobora ortib, yaqinlashib kelar, kuchayib borar, go'yo butun shahar uning uyi atrofida charx urib aylanardi.

Shu yili kuz osuda, havo ochiq keldi, shu bois qo'shnilarning ochiq derazalaridan uzuq-yuluq gaplar qulog'iga chalinardi. Ular, albatta, uni muhokama qilayaptilar. Barcha deraza-yu darchalaridan uning uyini kuzatuvga olishgan. U o'zini iniga qamalgan yirtqichday sezardi. Ayniqsa, qadam tovushlari uning asabini egovlardi; qadam tovushlari yaqinlashib kelayotganini aniq eshitardi, lekin nima uchundir qaytib ketgani eshitilmasdi. Qadamlar goh yashirin xatarday pisib kelar, goh oshkora do'q-po'pisaday qattiq eshitilardi. Hatto kechasi ham qadam tovushlari tinmasdi. Nega? Ayrim tunlarda qadam tovushlari bog'ning che-tida yoki sal narida to'xtaganday bo'lardi... Ko'p marta astagina taqillatish eshitildi, go'yo kimdir temir tayoq bilan panjaraga urganday edi. Balki, panjaraning mustahkamligini sinab ko'rgandir...

Ertalab panjarani kimdir taqillatayotganini eshitdi, bu safar uni sindirishga qasd qilganday rosmana urishardi. Kimdir uni chaqirardi:

– Janob B.! Janob B.! Uyda bo'lsangiz birrov qarang yoki tovush bering! Javob bering, yo'qsa chilangarni chaqirib eshikni buzamiz. Janob B., nima uchun javob bermayapsiz? Qayerdasiz, o'lib qoldingizmi? Qo'shnilar xavotirlanayapti, sizni hafta mobaynida bir marta ham ko'rishmabdi, nahotki nimadir bo'lgan bo'lsa?

U javob berishga majbur bo'ldi. Deraza qopqasini ochib, uyatdan qulog'igacha qizargancha derazadan boshini chiqardi. Politsiya komissarining baqirishidan bezovta bo'lgan butun mahalla uning uyi oldida to'plangandi. Qo'shnilar esa derazalaridan tikilib turardi. Tekin tomosha! Sharmanda!

Shunaqa ham haqorat qilishadimil! U o'zini olo-mon oldida yalang'och turganday his qildi. Boz ustiga oftob nurlari ko'zini qamashtirardi.

Biron gap aytmagani uchun politsiya komis-sari panjaradan oshib yaqinroq keldi-da, uni tashqariga chiqishga ko'ndirmoqchi bo'ldi. Ish-qilib, tinchlikmikan? Nima uchun uzzukun qo-rong'i uyga qamalib o'tiribdi? Tobi qochib qol-madimikan?

U xavotirlanishga o'rin yo'q, deb aytishga o'zi-da kuch topa oldi, shu bilan birga meni tinch qo'yinglar, sizlarning g'amxo'rлиgingizga zor emas-man, deb uzib ham oldi. Politsiyachi battar bo'l-maysanmi, deganday to'ng'illagancha ketvordi, u esa qopqani yana mahkam berkitdi. Kun botgun-chaga g'azabdan bo'g'riqib yurdi, chunki g'iybatchi va bekorchi xotinlar uyining oldida qoqqan qoziq-day turib olib, bu hodisani ataylab baland ovozda qizg'in muhokama qilishdi. „Sho'rlik janob B.“ qabilidagi qayg'urishlarni yuz marta eshitgandirov.

Qorong'i tushishi bilan uyidan hufyona chiq-di-yu shifokorning huzuriga yo'l oldi. Uyqusiz tunlar uni tamomila tinkasini quritgan, shu bois tinchlanishi zarurligini sezib turardi. Binobarin, shifokor tog'ga borib dam olsangiz, ko'rmaganday bo'lib ketasiz, deb maslahat berganda jon deb rozi bo'ldi.

\* \* \*

Ertalab deraza pardalarini ochish asnosida tog' cho'qqilari qor bilan qoplanganini ko'rди. Suv quyganday osoyishtalik hayratga solardi. Go'yo butun olam haykalday qotib qolgan. Hatto meh-

monxonada ham g'ayrioddiy osudalik hukm surardi. U derazani ochgan edi tog' jilg'asining bir maromdag'i shovullashi xonaga yopirildi. O'zini baxtiyor his qildi. Bu yerga kelganidan buyon birinchi marta qotib uxladi, yarim kechada qadam tovushlaridan cho'chib biron marta ham uyg'ongani yo'q. Odatda, juda kech uxlaydigan yosh nemislar kecha kechqurun jo'nab ketganini beixtiyor esladi. Butun mehmonxonada yolg'iz o'zi qolibdi. Ayni muddao!

Restoranga tushib, nonushta va gazeta so'radi. U bu yerda birinchi kuniyoq gazeta so'ragandi. Gazetani shunchalar berilib o'qirdiki, uni bezovta qilgani biron kimsaning jur'ati yetmasdi. Ofitsiant ham, xodimlar boshlig'i ham u bilan gaplashgani urinmadni ham. Ular uning ism-sharifini bilmadid. Mehmonxona xodimlari uchun ham „oltinchi xonadagi janob“ bo'lib qolaverdi. Nonushta qilib bo'lgach, xonasining kalitini topshirmsandan mehmonxonadan chiqdi.

Qayoqqadir shoshilayotganday tez yurib ketdi. Shaharchadagi kaftday maydoncha sari buriish o'rniiga tog' jilg'asi tomon eltadigan so'qmoq bo'ylab yurdi. Taxta ko'priq ustida bir nafas ham tin olmagani mehmonxona xodimlarining e'tiborini tortdi, narigi tomonga o'tib, qarag'ayzor bag'riga sho'ng'idi. Faqat chorrahaga yetgach to'xtadi. So'qmoqlardan biri tik tepaga qarab o'rلان, biri esa, aftidan, daraning tubiga olib borardi. U qaysi yo'ldan yurishni bilmay ikkilandi. Shu yergacha dadil yurib keldi. Endi esa ikki yo'ldan birini tanlashi talab qilinardi. Tunda tog'larga qor tushganini esladi. Qor tushgan joyga borish uchun

tik so'qmoqdan yurishga to'g'ri kelardi, shu bois o'zini ortiqcha urintirgisi kelmadi. Busiz ham yuragi bezovta bo'la boshlagandi. Juda tez yurgani uchun o'zidan ranjib, shoshilmay quyi so'qmoq bo'ylab yo'lga tushdi.

Chamasi biron soat o'rmon oralab yurdi, hech kim ergashib kelmayotganmikan, deb o'qtin-o'qtin ortiga nazar tashlab qo'yardi. Chap tomonda tog' jilg'asi sharillab oqar, daraxtlarning shoxlarida esa qushlar sayrardi. Yuragi odatdagidan tez-roq, biroq bir maromda urardi. Me'yordagidan sal qattiq urayotganini tan oldi. Bu toliqqani uchun emas, hayajon tufayli bo'lsa kerak: axir, hayotida birinchi marta yolg'izlik nashidasini surayotgandi. O'z ko'ziga ishongisi kelmasdi: bir soat mobaynida bironta ham tirik jon uchramadi-ya!

Ravon so'qmoq yuqoriga o'rlardi. U bir maromda, tog'liliklarday mardona ketib borayotganidan mamnun edi. Qo'llari ohista silkinganidanmi isib ketdi. Halovat mast qildi. Noyabrning oxiri bo'lgani uchun yo'l bo'yida billurday muzlagan halqoblar ko'zga chalinardi.

O'rmon daf'atan tugadi. Yana tekislikka chiqib olganini va tog' jilg'asining jildirashi deyarli eshitilmayotganini ham payqamadi. U o't-o'lan bilan qoplangan chog'roq yaylovga chiqib qolgandi, yastanib yotgan yaylov biron chaqirim naridan yana torayib ketgandi. Uning barcha tomonidan tik qoyalar siquvga olgandi. Bu joyning sirk maydonidan sira ham farq qilmasligidan hayratga tushdi. O'zaniga tushib olgan tog' oqimi singari yo'l ham belga uradigan o'tlar oralab ilonizi bo'lib ketgandi. Yalanglik bag'rida biroz vahima

chulg'ab oldi. O'zini ko'z-ko'z qilayotganday xijolatga tushdi. Qaysidir tepalikdan biron kimsa uni kuzatayotgani aqlga sig'masdi, biroq u rosmana maydon sahnida turardi. Bunday xijolatpazlik oqibatida tabiat go'zalligi ham tatinadi. Yana ilgari yurarkan, odam zotini axtarganday chor-atrofda-gi qoyalarga ko'z yogurtirdi. Hatto biron jonivorni ham topa olmagani shunday alam qildiki, go'yo butalar panasiga va xarsanglar oralig'idagi tirqishlariga bekinib olgan mavhum g'animplar uning sabr-u bardoshini sinayotganday tuyuldi. Bir xayoli ortga qaytmoqchi ham bo'ldi.

Bu yerda yolg'iz emasligini bilgach, fikridan qaytdi: u bilan birga maydon sahnida yana bir odam paydo bo'lgandi. Yo'lning narigi tomonida yerning ostidan chiqqanday bir yo'lovchi paydo bo'lib, unga peshvoz kela boshladi. Qochib qolishga kechikkandi. To'g'ri, notanish kimsa hali uzoqda, biroq – kunday ravshanki – undan ko'zini uzmay kelayotir. Kutilmagan istalgan xatti-harakat, oniy ikkilanish ham notanish kimsaning e'tiborini tortishi, oqibatda uni behuda savollarga ko'mib tashlashi hech gap emas... Bunday yalanglikda begona odamning e'tiborini tortmaslikning yagona yo'li – hamisha uning ko'z oldida bo'lish, degan fikr xayolidan chaqmoqday o'tdi. Va u atayin bir maromda, salmoqlab qadam tashlagancha notanish kimsa sari yurdi.

Begona odam imillab odimlar, juda sekin ya-qinlashardi.

O'rtada yuz qadamcha masofa qolganda notanish odamning raftoriga ko'z yogurtirdi. Tog' shamolida toblangan qiyofasiga qarab necha yoshta

kirganini tusmollab ham bilib bo'lmasdi. Manglayiga tushirilgan kallapo'shi ostida qop-qora ko'zlarini gavharday yiltirardi. Notanish kimsa bilan uchrashishga oldindan taraddudlanib kulimisiradi: balki, yo'l ustida to'xtab u bilan biroz hangomalashar, kuz yaxshi kelgani, biroq kutilmaganda havo aynigani-yu bu qish qattiq bo'lishidan darak ekanı haqida suhbatlashar. Begona odam esa turli savollar berishi, qayerdan kelayotganini surishtirishi shubhasiz. Sayohat maroqli bo'lishini tilab, qaysi yo'ldan yurgani ma'qul ekanini ham maslahat beradi.

Yo'q, janob B. bunga chiday olmaydi! U notanish kimsaning xayrixoh, samimiyo ko'zlariga qaramaslikka ahd qildi. Boshini egib olgancha yo'lda yotgan toshlardan ko'z uzmadni. Dadil qadam tashlayotganiga o'zining ham ishongisi kelmadi. Notanish odamga tobora yaqinlashib borar, hatto uning qadam tovushlarini ham eshita boshladi. Qadam tovushlari sekinlashdi, keyin esa eshitilmay qoldi. Yuragi qinidan chiqquday tipirchilab urarkan, hamon o'z oyoqlaridan ko'z uzmasdi. Yo'lning narigi tomonida begona boshmoqni il-g'adi. Hozir salomlashish uchun qo'lini uzatadi yoki xitob qilib meni to'xtatadi, deb xavfsirab nafasi ichiga tushib ketdi. Boshini quyi solgancha hamon shaxdam qadam tashlardi... Nihoyat, uning poyabzali notanish odamning boshmoqlari bilan baravarlashdi... Asabi torday taranglashdi! Bu lahzada har qanday arzimagan hodisa ham es-hushidan ayirgan bolardi... Qadam, yana qadam... Begona boshmoqlar g'oyib bo'ldi... Tamom, balo-qazo domidan omon o'tib oldi. Yigirma odim-

larcha yurgach, ortidan yana qadam tovushlarini eshitdi: demak, notanish odam yana yo'lga tushdi. U yengil tin oldi.

Kutilmaganda qor uchqunlay boshladi. Endi u tegirmondan sog' chiqqanini o'ylab quvonar, bu olishuvda g'olib bo'lganidan baxtiyor edi. Yiroqlashib borayotgan yo'lovchi ortiq hech qanday xavf tug'dirmasdi. Bu yerning odamlari shahardagi qo'ni-qo'shnilaridan tamomila boshqacha, kamtarin, hurmat qilishni biladi. Nigohini olib qochganidan afsuslandi. Notanish odamning chehrasiiga to'yib tikilsa bo'lardi, endi esa hatto qorasi ham ko'zga tashlanmayotir! Biroz tez yursa, ortidan yetib olishi hech gap emas, lekin buni o'ylagani ham yo'q: yaxshi tarbiya ko'rgan odamlar buni o'ziga ravo ko'rmaydi.

Qor kuchaydi. Qo'llarini tez-tez harakatlantirgancha yelkasini yupqa paxtaday qoplayotgan qorni tushirishga urinardi. Mehmonxonaga qayta qolsa yaxshi bo'lardi, biroq notanish odam ketimdan izma-iz kuzatib kelayotir, degan xayolga bormasin, deya bu fikrdan qaytdi. Yana ancha yurgandan keyin daraning tubiga yetib keldi: yo'l mana shu yerda tugardi. Tog'dan tushayotgan jilg'a bu yerda shalolaga aylanardi. Xarsang toshlar-u dov-daraxtlar oralab yuqoriga o'rlagan so'qmoq e'tiborini tortdi. U so'qmoq bo'ylab dadil ko'tarila boshladi.

Tabiatning barcha ranglarini kulrang pardal qoplaganday bo'ldi. Faqat yaqinroqdagi qarag'aylar qorayib ko'rinar, chor-atrofga sal bo'lsa ham o'zgacha tus berardi. U yo'ldan adashmaslikka urinib yana uzoq yurdi, so'qmoq bo'yidagi toshlar ham

qor ostida arang ko'zga chalinardi. Butun badani hamon qizib turardi. Nafas olishi yana ravonlashdi, keksa yuragi ham pand bermas, bir maromda urardi. Bundan buyon hech kimni uchratmaslikka ishonchi komil bo'lib, miyig'ida kulib qo'ydi. Hech qayoqqa nazar solmay shitob bilan yuqoriga ko'tarilar, butun e'tiborini shalolaning shovulashi jalg qilgandi. O'qtin-o'qtin tilini chiqarib qor uchqunlarini ilib olardi. Muzday qor uchqunlarini yamlamay yutarkan, bolalarday quvonardi.

Nishab so'qmoq nihoyat tekislasha boshladi, o'rmon ham siyraklashdi. Laylakqor yana ham kuchaydi. Qor uchqunlaridan himoyalanib ko'zlarini biroz qisib oldi. Qo'qqisdan oyog'i chuqur bir joyga tushib ketdi. Beixtiyor qandaydir devorga suyanibdi; shamol bu joyga ancha qorni to'plab qo'ygan ekan. Tashlandiq cho'pon kulbasining eshigi ochiq edi. U ichkariga kirdi, qurigan qo'lansa tezak hidi dimog'iga urildi.

Nihoyat, daraga tushib, mehmonxonaga qaytishga, bu yerdan umuman bosh olib ketishga qat'iy qaror qildi. Butunlay sog'ayganini sezib, tog'da qiladigan bo'lak ishi yo'q ekan ko'nglidan kechdi. Ertagayoq poyezdda jo'nab ketadi... Qilt etmay oyoqda turarkan, charchaganini his qildi.

Yonida yotgan yo'g'on to'nkaga cho'nqaydi: yo'l oldidan biroz nafasni rostlab olish kerak. Egnidagi qorlarni qoqar ekan, paltosi nam tortmagandan ajablandi. Biroq sochlari ho'l bo'lgandi. Mehmonxonadan chiqishda nahotki shlyapasini unutgan bo'lsa? Cho'ntagidan dastro'molcha olib, yuzi va bo'ynini artdi. Dastro'mol ho'l bo'lib ketdi, uni bir uyum tezak ustiga uloqtirdi. Nimqorong'i

kulbada faqat dastro'molcha oqarib ko'zga tashlanardi. U seskanib ketdi, sovuq qotganidan emas, balki allaqanday mavhum vahimadan cho'chib tushdi. Ochiq eshikdan lopillab qor yog'ayotganini ko'rdi, o'ttiz qadamlar naridagi qarag'ay qor pardasi oralab arang ko'zga tashlanardi. Bu yerda uzoq qolmasligi kerak. U qo'zg'aldi-da, kulbadan shoshib chiqdi. O'z izini topdi-yu kulbada qamrab olgan vahimadan qutuldi. Dimog'iga o'rmashib qolgan tezak hididan xalos bo'lish uchun entikib-entikib nafas oldi. Yo'lga tushgani hamono kulbada biroz o'tirganining o'zidayoq teri qotgani ni tushundi. Isinishga urinib, qo'llarini silkitgancha qadamini tezlashtirdi. Kapalakday laylakqor uchqunlari yuzini chimdilar, kipriklariga qo'nardi. Butun tabiatni oppoq qor choyshabi qoplab olganday tuyuldi. Hatto shalolaning ovozi ham quyidan arang eshitilardi. Baxtiga o'zining izlari yaqqol ko'zga tashlanar, qaysi tomonga yurish kerakligini ko'rsatib, ko'nglini xotirjam qilardi. Tepadan pastga tushish oson kechdi. Xirgoyi qilgisi keldi. Biron kimsaning qulog'iga chalinishidan cho'chib, ming'irlab xirgoyi qila boshladi. Daf'atan tanish izlar qor ostida ko'milib borayotganini pay-qadi. Bu ovloq joylarda adashib ketmaslik uchun shoshilgani ma'qul. U yugura boshladi.

So'qmoq burilishida o'zini to'xtatib qololmadi. U nishablikka ro'para kelib, o'zini tuta olmay qorni bilan yiqildi-yu yigirma qadamlarcha pastga sirpanib ketdi. Qandaydir buta joniga oro kirdi. O'rnidan turib o'zini biroz tutib olganiga qaramay, qo'l-oyoqlarini xavotirlanib siypaladi. Bir yelkasi biroz simillar, biroq hech qayeri sinma-

gandi. To'rt muchasi butunligi uchun shukrona aytdi. So'qmoqqa chiqib olishga urinib, goh toshlarga, goh butalarning ildizlariga yopishgancha qor changalladi. Biroq urinishlari behuda ketdi. Oyoqlari sirpanar, ushlagan toshlar esa ko'chib tushar, butalarning qurigan ildizlari esa sinib ketardi. Ilkis hayoti xavf ostida ekanini anglatdi.

Mening tog'da nobud bo'lganim haqida gazetada yozishadi, degan fikr xayolidan chaqmoqday o'tdi. Falon joyda joylashgan, falon mehmonxonada istiqomat qilayotgan allaqanday janob B. g'o'yib bo'lgani oradan bir necha kun o'tgandan keyin odmi gazetalardan birida oshkor qilinadi. Qidiruv ishlari hech qanday natija bermagani ham qayd etiladi. Bunday xabarlarni o'zi ham tez-tez o'qib turar, lekin e'tibor bermasdi.

Biroq bu xabarni qo'shnilaridan biri, albatta, o'qishi va yangilik butun mahallaga zudlik bilan yoyilishi, uni baqqolning ham, qassobning ham, non do'konni sotuvchisining ham oldida muhokama qilishlarini, hovlisining oldida esa hangomatalablar to'planib olib, uning ism-sharifini eshitib, ichi achigancha boshlarini sarak-sarak qilishlarni o'ylab g'azabga keldi. Va qayerdandir kuch paydo bo'ldi-yu, jon-jahdi bilan tepalikka chir-mashib, yuqoriga chiqib oldi...

Nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan odimlaganiga qaramay, qaltis tog' so'qmog'ining tuzoqlarini chetlab o'tolmadi. Ba'zan kutilmaganda qor bilan to'la o'rالarga tushib beligacha botib ketar va ulardan ming mashaqqat bilan chiqib olardi. Gohida esa muzlagan halqobni bilmasdan bosib olib, muvozanatni yo'qotar va chalqancha yiqlgancha

pastga sirpanib ketardi. Bunday kezlarda biron do'nglik saqlab qolar yoki qo'li ilingan butaga yopishardi. O'rnidan turib, yana yo'lida davom etardi. Bir lahma yo'lni topganday bo'ldi. Keyin esa yonbag'irlab aylangan so'qmoq bo'ylab ellik metrcha yurdi. So'ng qarag'ayzorda yana adashib qoldi. Goh shox-shabbalarga osilib, goh daraxtlarning tanasiga yopishgancha tik yonbag'ir bo'ylab ketib borardi. Daraxtlarning tagidagi qor yupqa bo'lib, ehtiyotkorlik bilan qadam tashlardi va bu unga ishonch baxsh etdi: yo'q, u hech qachon jurnalistlarning o'ljasiga aylanib, mish-mishlar sababchisi bo'lmaydi!

Butun irodasini ishga solib, qat'iyat va jidd-u jahd qilib, daraning tubiga yetib keldi. Ancha holdan toyganiga qaramay, xotirjam edi: axir, sarguzashttalab g'iybatchilarning umidlari chippakka chiqadigan bo'ldi. Bu yerda boshidan nimalar o'tganini hech kim, hech qachon bila olmaydi. Uning yoshidagi odamning bunday ahvolga tu-shishi o'taketgan bema'nilik ekanini bilar, biroq birorta ham guvoh yo'qligidan hech kim unga ta'na qila olmasligini o'ylab quvonardi. Ob-havo kutilmaganda yomonlashganidan hafsalasi pir bo'lgan sayohatchiday ertagayoq jo'nab ketadi va bundan hech kim ajablanmaydi. Uyiga qaytib borganidan keyin esa, ortiq odamlardan o'zini chetga olmaydi. Har tugul hayotining mana shu yerlarda kechgan bir bo'lagi qiziquvchan qo'ni-qo'shnilar e'tiboridan chetda qoladi.

Nihoyat, tekislikka chiqib oldi. O'zi kelgan yo'lni topishdan voz kechib, oldinga yuraverdi. Har safar qadam qo'yganida oyog'i to'pig'igacha

qorga botar, bu holdan toydirardi. Yuragi bezovta bo'la boshlaganidan cho'chib, asta-sekin, salmoqlab odimlardi. Vahimaga tushganidan keyin xotirjam qadam tashlash katta kuch talab qilardi. Muzlab qolgan qo'llarini isitish uchun cho'ntaklariga soldi.

U to'xtadi. Muzday qo'llari bilan asabiy ravishda cho'ntaklarini paypaslay boshladи. Boshiba qon urdi, keyin esa rangi o'chdi: kalitni yo'qotibdi.

Mehmonxonaga yetib borgach, xonasini ochib berishlari uchun sharmandalarcha yalinishini tasavvur qildi. Avval barcha kalitlarni saqlaydigan mehmonxona bekasiga murojaat qilishadi. Hamma xodimlar darhol xabar topadi. U tomoshaqovoqqa aylanadi, paltosi yirtilgani-yu shimi shilta bo'lib ketganiga e'tibor berishadi... Mehmonxona yo'lagida orqasidan shivir-shivirlar kuchayib, hammasi yangidan boshlanadi...

U orqaga o'girildi. Avvaliga iziga qaytib kalitni qidirishga chog'landi, biroq batamom holdan toygani uchun o'rnidan jila olmadi. Qor gupullab yog'ar, kalitni allaqachon ko'mib yuborgan bo'lsa, ajab emas. Darvoqe, cho'ntagidan tushgani hamono qor ostida qolgan. U alamdan toshday qotib qoldi. Sovuqdan titragancha oldinga yurishga ham chog'i kelmadи.

Kuragi sanchdi. Nima uchundir sartaroshini esladi, tasavvurida navbat kutib o'tirgan mijozlar gazetadan ko'z uzmasdi. „Oltmis besh yashar qariya tog'da yo'qolib qolganini eshitdingizmi? – Ha. Men uni tanirdim, u ham mijozim edi, rosti juda g'alati odam edi-da. Aytishlaricha, uning...“

U tobora muzlab borayotgan toshday og'ir oyoqlarini zo'rg'a ko'tarardi. A'zoyi badani muzlab qoldi, endilikda oyoqlarini ko'tara olmas, arang sudrab bosar, oppoq qor choyshabini go'yo shudgor qilib borardi... Chang'i uchiladigan maydonga yetib olsa bas. Mehmonxonaga kirmaydi. Ash-qol-dashqollari qolsa, qolib ketaversin, avtobusga o'tiradi-yu vokzalga jo'naydi. Poyezdda isinib ola-di... U yana bir necha qadam tashladi...

Qor sal sekinlashdi. Chor-atrof yaxshi ko'rina boshladi. Olisda, o'rmonning chetidagi yo'lakka ko'zi tushdi. Yo'l o'sha tomonga boshlab borar, unga uchragan notanish odam o'sha yerda ko'zdan g'oyib bo'lgandi! Bu tog'lik ro'para kelganda unga kulimsirab qaragandi... Boshini solintirib oyoqlariga nazar soldi, nazarida o'z oyoqlari begonaday tuyuldi. Nimani kutayotir? Yordammi? Kimdir kelishi kerak. Albatta, kelishi zarur. Notanish odam hammani oyoqqa turg'azgan bo'lsa kerak, qutqaruvchilar yo'lga tushgan bo'lsa, ajab emas. Qutqaruvchilar, avvalo, hov anavi qorayib turgan o'rmon chetidagi yo'lakda paydo bo'ladi. Ular o'n kishi bo'lib, uni shu yerda topib oladi va zambilga solib ko'tarib ketadi. Keyinchalik mehmonxonalar va mayxonalarda o'z jasoratlari bilan maqtanishadi. Hammaning e'tiborini tortadigan hodisa bo'ladi. Katta-yu kichik huzuriga kirib, salomatligi bilan qiziqadi. Keyin esa qo'li qichigan jurnalistlar...

Yo'q! Yo'q! Butun kuchini ishga solib, qochishi, qutqaruvchilarning qo'liga tushmasligi kerak. Muhimi – ularga peshvoz chiqmasa bo'ldi! Tez berkinishi kerak!

U muzlab qolgan paltosini bir amallab yechdi. O'rmonning chetidan ko'z uzmay paltosi bilan o'z izini yashirgancha ortga sudraldi. Oyoqlari qotib qolgan, quloqlari esa shang'illardi. Qaddini arang tutib turganiga qaramay, to'xtamadi. Ni-hoyat, qor to'xtadi. Qo'llarini cho'zgancha paltosi ni changallab turganini payqadi. Go'yo tulup yoki masxaraboz singari hammaning oldida sharman-dalarcha o'zini ko'z-ko'z qilayotir. Uyatdan yer yo-rilmadi-yu yerga kirib ketmadi.

Bekinishga oshiqib yiqildi. Egnidagi qora kiyimidan topib olishlaridan cho'chib oxirgi kuchini to'plab o'zini qor bilan ko'ma boshladi. Go'yo uni axtarib chorlayotgan ovozlarni eshitganda, o'z zarblari bilan e'tiborni tortmaslikka uringanday yuragi urishdan to'xtadi.

\* \* \*

Uni bahorda topishdi. Hisob-kitobni ham unutib mehmonxonadan juftakni rostlab qolgan mijozni hamma allaqachon unutgandi. Jasadni hech kim tanimadi. Gazetalarda hech qanday xabar bosilmadi, zero, tahririyatdagilar buni e'tibor berishga ham arzimaydigan hodisa deb hisoblashdi.

Uning bog'chasida daydi mushuklar paydo bo'ldi; qari qizlar panjara osha yeguliklar qoldiqlarini uloqtirib, mushuklarni boqardi. Luden shahar fuqarolik holatini qayd etish mahkamasining dalolatnomasiga ko'ra, u endilikda yetmish ikkiga kirgan bo'lardi. Basharti, hech vaqo o'zgarmasa, dalolatnomada hatto yuzga kirgani ham qayd etilishi hech gap emas.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **QISMAT**

Tun yarimlab borardi. Tog'lik yigit Ber Enason keksa shifokorning uyi oldida g'amga botib turardi. Sovuq qish osmonida yulduzlar ham tit-rayotgandek tuyulardi. Ayoz chorqirra derazalarni ham billur naqshlar bilan bezagan. Olisdan olis yo'lni bosib kelgan yigit sovqotganini nihoyat, endi anglatdi.

Shinam xonadon uni issiq bag'riga oldi. Quruq qoraqarag'ay o'tinlari alanga olib, oftobday isitar, qizigan pechka esa afsonaviy farishta kabi nay chalayotganga o'xshardi. Biroq bu farishta ayni pallada hech qanday yaxshilikni va'da qilmasdi.

Uy haminqadar jihozlangandi. Devorga ilingan bir juft qilich ostidagi kartinada yozuv stoli ustida lipillayotgan sham nurlari jilva qilardi. Bu qilichlar bir paytlar portretdag'i siymoga tegishli bo'lgan. Aytishlaricha, bu bahodir o'z davrida ko'plab mamlakatlarning qiz-juvonlarini ishq o'tida kuydirgan. Bemorlar halovatini buzmagan kezlarda do'xtir qilichlarga tikilib xayol surishni xush ko'rardi.

Ber Enason o'tirgani botinmadi. Faqat tortinchoq bo'lgani uchun emas. Bug'ularning shoxlaridan ko'z uzmay po'stak to'shalgan yalang channa da uzoq yo'l bosib kelgan yigitchaga bejirim

g'ilofli uch oyoqli stulga o'tirish noqulay tuyuldi. Keksa do'xtir buni payqamadi, u o'z ishiga shu qadar berilgandiki, yigitga iltifot ko'rsatish xayoli-ga ham kelmasdi.

Ber imkon boricha tez qaytib ketishi kerak: Sutoxaugen yaqinidagi olis kulgada sevgan ma'shuqasi Kletta og'ir xasta bo'lib yotibdi. Klettani tirik ko'rish nasib etarmikan, degan shubha uning bag'rini o'rtardi. Ko'zyoshlarini arang tutib turardi: Klettaning visoli nasib etadigan munavar ayyom nahotki toabad armon bo'lib qolsa?! Bu nurli ayyomga ularning ikkovi ham juda-juda intiq edi. Alamdan o'kirib yubormasa bas. Chuqur-chuqur nafas olsa... Shimolda, tog'lar yonbag'rida nima uchundir hamisha shunday bo'lar, qishda kimdir vafot etardi. Bu muqarrar qismat tusini olgandi. Biron kimsaning kuni bitgani hamono cherkov qo'ng'iroqlarining sadolari samoga tutash tog'larni ham larzaga solardi. Bu gal, aftidan, ma'shuqasi Klettaning kuni bitadi-gan ko'rindi.

Do'xtir bemor uchun dori tayyorlay boshladi. Bu juda qo'li yengil do'xtir edi. Hech kimdan yordamini ayamas, shu bois butun o'lka ahlining mehrini qozongan yagona odam edi. Ko'plab odamlarning hayotini saqlab qolgan do'xtir keksaligiga qaramay, hamon yordamga oshiqar, bemorlarni sidqidildan parvarish qilardi. Katta-yu kichikni tug'ishganiday ko'rardi. Aholi ham mehribonchiligini munosib qadrlar, uning portretini istalgan paytda afsonaviy qahramon portreti yoniga ilishga tayyor turardi. Do'xtir, eng muhimi, kasb-u kori orqasidan mo'may daromad qilishni sira o'yamasdi.

– Bemor xotiningmi, Ber Enason? – so'radi do'xtir.

Savol yigitning bag'rini o'rtab yubordi. Ber bo-shini quyi soldi.

– Shunday desa ham bo'ladi, – entikib dedi u.

Do'xtir o'ta o'tkir hidli suyuq malhamni tom-chilatib shisha idishchaga quyardi. Asta tomayot-gan tomchilarni erinmasdan birma-bir sanardi. Nihoyat, do'xtir shisha idishning og'zini yopdi. Malham tez yordam berishi uchun uni bemorga qanday ichirish kerakligini yigitga batafsil tu-shuntirdi.

– Umid qilamanki, ma'shuqang tuzalib ketadi, – deb qo'shimcha qildi.

– Rahmat!

Ber shisha idishni tez cho'ntagiga joyladi. So'ng charm hamyonini olib, stolning ustiga bitta ku-mush tanga qo'ydi.

– Tezroq yo'lga tush! – dedi do'xtir va unga tan-gani qayta uzatdi.

– Roziman, olavering, – dedi Ber. U qirov qopla-gan eshik kesakisiga qo'li bilan suyanib turardi.

– Qaytarib ol deyapman senga! Nikoh to'yini o'tkazishning o'zi bo'lmaydi! – dedi do'xtir mehr bilan.

Ber hamon eshikka suyangancha turardi.

– Zora shu dori bilan tuzalib ketsa, – u shun-day deb do'xtirga savolomuz tikildi.

Uyda osoyishtalik hukm surardi. Derazalarda oy nurlari shu'lalanar, tashqaridagi sovuq ich-kariga ham asta-sekin kirib kelayotgandek edi.

Do'xtirni xayol olib qochdi. Ayni shunday qish tuni oqimtir sarg'ish ulovdagi chavandozni xo-

tinidan toabad judo qilganini esladi. Ha, ayni shunday kechada...

– Har daqiqa g‘animat, bora qol, o‘g‘lim! – deya yigitga samimiy oq yo‘l tiladi ko‘zoynakli keksa do‘xtir.

Va Ber tun qo‘ynida arvoh kabi g‘oyib bo‘ldi.

\* \* \*

U tog‘li voha bo‘ylab chanada yelib borardi. Oyning sovuq shu'lalarida qor kumushday tovlandi. Yassi darani ayoz kishanlab olgandek. Kletta xastalanib yotgan kulba ayni daraning poyonida, Sutoxaugenning ortida bo‘lib, Ber Enason yonidagi malham bilan o‘scha tomon oshiqardi. Klettaning o‘pkasi shamollagandi. Yetti kundan buyon xastalik bilan olishardi. Xastalik kuchaygan yettinchi kecha.

Yigit avvaliga shamolday uchdi. Keyin bug‘u holdan toya boshladi. Chana bechora jonivorga ancha og‘irlik qilardi.

Bunday imillab ketishda faqat keyingi kungina manzilga yetib borishi mumkinligini Ber angladi. U qo‘lidagi kaltakni bug‘uga o‘qtalgancha bor ovozi bilan hayqirdi. Biroq hayqirig‘i osuda tog‘lar bag‘riga sassiz singib ketdi.

Tong bo‘zarganda u faqat Vargfelmannga yetib kela oldi. Nihoyat, qizg‘ish quyosh nurlari tog‘lar uzra yastandi. Kun boshlandi. Xira tortgan oy tog‘lar uzra inganday. Yulduzlar so‘nib, dara ustida ertalabki yorug‘lik o‘ynay boshladi. Vargfelmanndan kulbagacha yarim kunlik yo‘l qolgandi. Biroq bug‘u holdan toydi. U chanani arang tortib borardi. Ber es-hushini tamomila yo‘qotdi. Qo‘li-

dagi kaltakni qahr bilan o'ynatar, bug'uga bor zahrini sochardi. Qo'qqisdan jonivorni ura ketdi. Bug'u har zarbadan hushyor tortar, biroq charchoqni yenga olmasdi.

Ber Enason arslonday na'ra tortib, bor kuchi bilan bug'uga zarba berdi. Uning qichqirig'i qanchalar dahshatli bo'lmasin tong oldi g'ira-shirada ojizona yangradi. Faqat ro'paradagi tog' qoyasi och qolgan bo'rining uvullashiday sovuq aks sado qaytardi va yana sukunat cho'kdi.

Kletta esa o'z kulbasida to'shakda yo'lga ko'z tutar, xastalikning yettinchi kuni boshlangandi. Sutoxaugenda kun boshlanmasdan oldin u bechora o'z kulbasida jon taslim qiladi. Nozik jismidagi harorat so'nadi. Shundan keyingina oftob chiqadi...

– Hoy jonivor, ildamroq qadam tashlay qolsang-chi! – Bug'uga qichqirdi Ber. – Kletta men uchun qanchalar qimmatli ekanini bilasan-ku! Yolvoraman senga! Ma'shuqam o'lmasligi kerak! O'lmasligi kerak, eshityapsanmi?!

U kuchdan qolgan bug'u bilan shunday dardlashardi. Jonivor esa qorga yotib olgan, iztirob to'la ko'zlar bir juft baliq tangasi kabi yaltirardi.

Ber Enason shiddat bilan chanadan tushdi. Bug'uning qoshida tiz cho'kkancha bo'ynidan quchoqlab shivirlay ketdi:

– Toychaday mitti bo'lgan kezlaringga Kletta seni qanday mehr bilan parvarish qilganini unutmagan bo'lsang kerak?

Jonivor boshini mardona ko'tardi, iliq oftob nurlari manglayida jilva qildi. O'rnidan turishga urindi, biroq katta boshini yana majolsiz yerga qo'ydi.

– Xudo haqqi...

Ber bug‘uni shoxlaridan tutgancha ko‘tarmoq-chi bo‘ldi. Befoya. Yigit bug‘uning yirik ko‘zlariga bir nafas tikildi. Alamdan a’zoyi badani titrar, og‘zi burishib ketardi. Ber pichoqni olib, bug‘uga po‘pisa qila boshladi:

– O‘ldiraman, la’nati!

Lekin qo‘rquvdan ilkis o‘zini orqaga tashladi. Dahshatga tushdi. Yig‘lagancha ortiga o‘girildi. Bu jonivor xasta qaylig‘iga yordam bera qolsa nima qilarkan-a! Qaylig‘i hamisha muloyim va mehribon bo‘lgan. Ber daf’atan qaylig‘ini ko‘rdi. U o‘rmon chetida turar va siymosidan nur yog‘ilardi. Bir tutam yoz tuni poyoniga yetgan. Daraxtlarning yaproqlarida durday shoda-shoda shabnamlar. Sho‘x jilg‘alar shovullaydi. Bu shovqin-suronlar ostida qaylig‘ining voha uzra yangrayotgan qo‘shig‘i eshitilmay qoldi.

– Klettani nahotki unutgan bo‘lsang? – Ber yana bug‘uning bo‘yniga chang soldi.

Oftob esa cho‘qqilar oralig‘idan qilichday joy olib ulgurgandi...

Shunda Ber Enason keskin tizzalab joylashdi, ko‘z ochib yunguncha ham fursat o‘tmay bug‘uning baxmalday yungiga pichoq sanchildi. Yaralangan jonivor uzundan uzun hirillagancha o‘rnidan turishga urinib tipirchiladi. Biroq jarohatdan qon otilar – ortiq hech majoli qolmagandi. Faqat jon taslim qilishgina qolgandi.

Ber qaddini rostladi. U jarohatga yopishgancha issiq bug‘u qonini simira boshladi. Oyoq-qo‘li bir nafasda kuch-quvvat bilan to‘ldi. Jonivordan nari ketib, tog‘larga burgutday tikildi... Bu payt-

ga kelib quyosh o‘z manziliga, Sutoxaugen ortiga ham nur socha boshlagandi... U yana jonivorning jarohatiga yopishdi, issiq qonni to‘yib-to‘yib simirdi. Daf‘atan bug‘uning so‘nggi marta titraganini sezdi. Jonivor o‘lgandi...

Ber timdalangan yuzi dokaday oqargan alfozda archa butalari bilan qoplangan o‘nqir-cho‘nqirlar bo‘ylab yugurib borardi.

Nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qolsa ham yugurishdan to‘xtamadi. Sutoxaugen hali juda ham olisda! Nazarida tog‘lar har qachongidan ham g‘amgin ko‘rindi. Qora terga botdi. Biroq hamon chopgani chopgan edi... U shu tog‘larda voyaga yetgandi, lekin ularni birinchi marta ko‘rayotgandek edi.

Kun oxirladi. Quyosh ufqqa indi. Ber holdan toyib tiz cho‘kkancha jilg‘adan tashnaligini qondirdi. Botib borayotgan oftob nurlari suv mavjlarida jilvalandi.

Ber Enason boshini ko‘targan edi, dastlabki yulduzga ko‘zi tushdi.

Daf‘atan qulog‘i shuvulladi, oyoqlari chalishib ketdi:

– Tamom!

U cherkov qo‘ng‘irog‘ining ovozini eshitgandi. Qo‘ng‘iroq sadosi olis-olislardan kelardi. Bu zavol sadosi edi. Kimdir vafot etgandagina shu asno qo‘ng‘iroq chalinardi. Shom ichra alamlı sadolar dara bo‘ylab quzg‘unday kezar, Ber Enason esa tayoqqa suyangancha tosh qotib tinglardi.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **HAYOTGA MUHABBAT**

Palmadagi qizg'in hayot kechasi bozor ortidagi ko'ngilochar qahvaxona atroflariga ko'chadi: boshqa ko'chalarga tun qorong'isi va osudalik cho'kkan bir pallada qahvaxonalarining chiy parda tortilgan eshiklaridan nur yog'ilib, musiqa sadolari eshitiladi. Ana shunday qahvaxonalaridan birida deyarli tongga qadar qolib ketdim. Qahvaxona chor qirrali bo'lib, shifti qo'l cho'zsa yetadigan darajada past, ko'kimir rangga bo'yalgan va moviy naqshlar chaplab tashlangandi. Taxta shiftidagi son-sanoqsiz qip-qizil chiroqlar ko'zni qamashtiradi. Kaftday joyda orkestr ham, rang-barang shisha idishlar terib tashlangan rasta ham joylashganki, aql bovar qilmaydi. Qolaversa, qahvaxona tirbandligidan mijozlarning tirsagi tirsagiga tegib turadi. Faqat erkaklar. O'rtalikda atigi ikki quloch ochiq maydoncha. Ofitsiantlar qahvaxona bo'ylab ularhib yurgan shishalar-u stakanlarda qizil chiroqlar shu'lesi shafaqlanadi. Bitta ham hushyor yo'q. Hamma baravar baqiradi. Qandadir shirakayf dengiz zobiti menga iltifot ko'rsatadi. Yoshini bilib bo'lmaydigan bo'yи bir qarich kimsa esa boshidan kechirganlarini hikoya qiladi. Men esa uning hasratini tinglaydigan kayfiyatda emasman. Orkestr to'xtovsiz faqat bitta kuyni

chaladi, biroq mijozlar oyoqlari bilan yerni tapilatganlari uchun faqat kuy ohangini ilg'ayman.

O'qtin-o'qtin eshik ochiladi. G'ala-g'ovur oralab kirib kelgan yangi mijozga darhol kimlarningdir o'rtasidan joy topib berishadi. Daf'atan hushyorlikka chorlovchi sadolar ostida o'rtalikdagi kaftday sahnda bir qiz xirom qila boshlaydi. „Yigirma bir yashar“, – deydi imo qilib dengiz ofitseri. Hayratdan haykalday qotib qolaman. Chehrasi yosh boladay beg'ubor, biroq jussasi xarsangtoshday katta. Bo'yи ham uzun – boshi naqd shiftga tegay deydi. So'laqmonday gavdasi kamida bir yuz yigirma kilogramm tosh bossa, ajab emas. Qo'lini beliga qo'yib olgan, sarg'imtil to'qima trikodan oppoq badani xamirday toshib chiqayotganday ko'rindi, boz ustiga og'zi qulog'iga yetguday irshayadi. Qahvaxona quturgan dengizday junbushga keladi. Mijozlarning barchasi nainki uni tanishi, hatto shaydo ekani, chiqishlarini intazorlik bilan kutishi yaqqol seziladi. Labidan tabassum arimaydi. Nigohi bilan mijozlar ko'ngliga g'alayon soladi. Hamon sukut saqlagancha tabassum ulashadi, biroq tog'oraday qornini behayolarcha o'ynatishga tushadi. Zal hayqiradi, barcha, aftidan, o'zlariga tanish ashulani talab qila boshlaydi. Nihoyat, xonanda andalus xalq ashulasini boshlab yuboradi, bu hufyona, deyarli jirkanch xirgoyi bo'lib, har uch taktdan keyin nog'oralar sadosi qulogni qomatga keltiradi. Qiz tinmay kuylaydi, nog'oralar sadosiga hamohang ishva bilan muqom qiladi. Momiqday sonlari-yu quloch yetmaydigan bellarini o'ynatadi, yelkalarini uchiradi. Mahliyo bo'lgan zaldagilar es-hu-

shini yo'qotadi. Ashulaning naqoratiga kelganda atirgulday alvon og'zini katta ochgancha, kaftlari bilan bir juft ko'kragini xiyol ko'tarar ekan, zal-dagilarning barchasi g'ala-g'ovur bilan o'rnidan qalqib, unga jo'r bo'ladi. Xonanda esa terga botib, badaniga yopishib turgan tor to'qima kiyimda yana ham semizroq tuyulganidan qat'i nazar, qomatini g'oz tutgancha telba mijozlar hukmroniga aylanadi. Ayni soniyalarda u dengizdan chi-qib kelayotgan betavfiq ma'budaga o'xshaydi: beparvo alfovza ko'zları jovidiraydi, chopacha-chopa toliqqan to'riq kabi tizzalari qaltiraydi. Mijozlar baqirib-chaqirib olqishlaydi, u esa barqaror va ilhombaxsh hayot qoyasiday yana ham e'tiborni tortadi: umidsiz ko'zları ma'nisiz charaqlaydi, ter tomchilari qorni bo'ylab marjonday tiziladi...

Qahvaxona va gazetalarsiz sayohat tatimaydi. Ona tilingda chop etilgan gazeta hamda duch kel-gan odam bilan ulfatchilik qilinadigan qahvaxona yettiyon begona mahalliy odam bilan bamayli-xotir oshnachilik qilishga ko'maklashadi. Zotan, sayohatchchi hamisha hadiksirab qadam tashlaydi. Hadiksirash esa ko'ngil xotirjamligiga raxna soladi. Xizmatda, ishlayotgan kezlarimizda asil qiyofamizni niqoblashga ko'nikib qolganmiz, sayohat chog'ida bunday ayyorlikni eplay olmaymiz. To'g'ri, xizmatda munofiqlik qilmaslikka har doim harakat qilamiz, biroq ayni shu xislat bizlarni izardi yolg'izlikdan qutqarmaydimi?! Men har doim shunday roman yozishni orzu qilamanki, uning qahramonlari vaqtı-vaqtı bilan: „Agar xizmat bo'limganda, holim nima kechardi?“ degan bo'lardi. Yoki: „Xotinimdan judo bo'ldim, biroq

yaxshi ham baxtimga meni bu kulfatdan chalg'i-tadigan ish bor, bir dunyo hujatlarni ko'zdan kechirishim zarur“, – deb o'ziga o'zi taskin berardi. Sayohat bizlarni mana shunday boshpanadan mahrum qiladi. Ona tilingda gapiradiganlar va yor-u birodarlaringdan olisda, odatiy niqoblar-u tayanchlardan ayro tushgan holda (axir, begona shaharda hatto tramvay chiptasining narxini ham bilmaysan), asliyatimiz bilan yuzma-yuz kelamiz. Biroq begona sharoitda o'zimizni har qancha no-qulay sezmaylik, har bir ashyo-yu har bir jonzotning chinakam afsungar mohiyatini kashf etamiz. Telbalarcha raqs tushayotgan juvon yoki tamaki tutuni ortidan ko'zga chalingan shisha ham – barcha-barchasi ramziy ma'no kasb etadi. Bularning barchasida hayot yaxlit aks etayotganday tuyuladi, ayni ashylar-u odamlarda o'zimizning mavjudligimiz ham inikos etadi. Biz shunday lahzalarda hayot ne'matlarini o'zgacha jo'shqinlik bilan his etamiz, rang-barangligidan sarmast bo'lamiz, nihoyat, qalbimiz ko'zi yaraqlab ochilganday bo'ladi. Sirasini aytganda, meni Yer yuzidagi biron-bir joy O'rtayer dengiziday begona-yu ayni paytda qadrdon go'shaday rom qilmagan.

Palmadagi qahvaxonada ham ayni shunday kechinmalar og'ushida qoldim. Biroq choshgohda, yirik ibodatxonaning yalang gumbazlari ostida, qadimiylar saroylarning keng hovlilarida, ko'lanka qoplab olgan ko'chalarda meni qandaydir sinoat sehrlab qo'ydi. Ko'chalarda zog' ham ko'rinxaydi. Balkon derazalari ortidagi kampirlar haykalga o'xshab qimir etmaydi. Imoratlar yonida odimlab, yum-yumaloq kulrang ustunlar ro'parasidagi yam-

yashil gulzorlar oldida to'xtaganimda, o'zligimni batamom unutdim, o'z qadamlarimning sadosiga, hali quyosh nurlari jilva qilayotgan yuksak devor uzra ko'zga chalingan qush to'dalarining parillab uchishlariga do'nardim. Men Avliyo Fransisko ibodatxonasida ancha soat qolib ketdim. Uning zar bilan qoplangan purviqor ustunlari barcha ispan yodgorliklari singari yarqirab ko'zni qamashtiradi. Hovlidagi pushtirang dafna ham, manzara li qalampir buta ham, tepasiga zanglagan zanjirli cho'zinchoq cho'mich ilingan naqshin panjarali quduq ham esimda. Odamlar to'xtab quduqdan suv ichardi. Cho'mich quduq toshlariga urilganda chiqqan aks sado ba'zan quloqlarim ostida ro'yirost jaranglaydi. Bularning barchasidan qat'i nazar bu ibodatxonada qizg'in xayot nafasini his qilmadim. Kabutarlar to'dasining mustargina qanot qoqishlarida, bog'ning allaqaysi kunjaklariga bekinib olgan favqulodda osudalikda, quduq zanjirining g'aribona jiringlashida o'zim uchun yangi, ayni paytda yuragimga juda yaqin jihatni kashf etdim. Men bunday uyg'unlikdan zavqlanardim. Shaffof billur ko'zguda olam qiyofasini ko'rganday bo'ldim, lekin arzimagan qo'pol xatti-harakat bilan bu ko'zgu darz ketishi mumkinligini ham sezib turardim. Nimadir hammasini izdan chiqarishi kerakday edi: kabutarlar havoda jon taslim qilishadi va qanotlarini majolsiz yoygan holatda yerga ina boshlaydilar. Yolg'iz mening jim va tosh kabi qotib turganim tush singari bu manzaraga barqaror tus berardi. Men o'yin qoidalarini buzmadim. O'zimni aldashlariga yo'l qo'yмаган tarzda ko'z o'ngimdagи olam manzaralariga moslashdim.

Oltin oftob barkashi cherkovning sarg'ish g'ishtlarini ilitardi. Qandaydir xotin quduqdan suv oldi. Bir soat, bir daqiqqa, bir soniyadan keyin, hatto hozirning o'zidayoq bularning barchasi barbod bo'lishi mumkin. Biroq afsungar hayot davom etardi. Avvalgidek olam ham azaliy o'zanida kechardi – bokira, ayni paytda xiyol istehzoli, xuf-yona edi. Intiho tuyg'usi bilan yo'g'rilganidan qat'i nazar muvozanat buzilmadi.

Mening hayotga muhabbatim ayni shu o'rinda mujassam edi: istalgan soniyada qo'ldan chiqishi mumkin bo'lgan sirli manzaraga sassis ehtirosli mahliyolik, asriy sharob tubidagi achchiq quyqa.

Bu cherkovdan har oqshom ortga qaytar ekanman, bir lahzali halovat topgan jumlayi jahon teranliklari bilan ming mashaqqat bilan xayrlashardim. O'shanda Dorida Appolonlarining so'qir ko'zları va toshday qotib qolgan Djotto qiyofalari nima uchun yodimga kelgani bejiz emas. Ayni shunday lahzalarda shunga o'xshagan mamlakatlardan nimalarni o'rganishim mumkinligini yaq-qol his etardim. O'rtayer dengizi sohillari meni hayratga solardi, bu yerda men hayotning mustah-kam negizini his etardim, tafakkurimni yana ham boyitib, qalbimdagи nekbinlik va bashariy ham-jihatlik tuyg'usi yana ham qanotlanardi. Lekin meni, asosan, insoniy mezonlar bilan yaratilgan va aynan inson siy whole o'z tajassumini topgan olam hayratga solgan emas. Yo'q, basharti ayni mamlakatlar xalqlarining tilidagi nimadir meni yuragimga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bu ayni tilning o'ziga xosligi mening ko'nglimdagi muam-molarga yechim topib bergenida emas, balki o'sha

muammolarning barchasi behuda ekanini fosh etgani bilan bog'liqdir. Qolaversa, tashna yura-gimga huzur-halovat emas, aksincha, ulug'vor Mavhumiyat sehri o'zgacha shukuh baxsh etdi, zero, bu o'lkalarning otash oftob taftida qovjiragan adirlaridagina sirli Mavhumiyat qaror topadi. Zotan, hayotga muhabbat umidsizlik bilan pay-vasta.

Ibizada kun sayin bandargoh bo'ylab yastagan qahvaxonaga qatnadim. Asrdan keyin mahal-liy yoshlar sohilda qo'ltiqlashib kezib yurishardi. Ayni shu yerda yoshlarning taqdirlari bog'lanar, umuman ularning hayotidagi eng muhim voqealar sodir bo'lardi. Va men beixtiyor shunday fikrga keldimki, hayotning ayni shu asno, hammaning ko'z oldida boshlanishi – o'ziga xos bir ulug'vorlikka ega.

Peshindan keyingi issiqdan biron soya-salqinda panoh toparkanman, oppoq ibodatxonalar-u ularning surrang devorlari, issiqdan jizg'anak bo'lgan qirlar-u hurpaygan zig'ir bog'lari ko'z o'ngimdan ketmasdi. Men sharbat ichdim. Tuya o'rkarachiday adirlar pinhona dengiz sari talpinayotganday tuladi. G'ira-shira shom qorong'isi ko'kimir tus olganday. Shomda dengiz tomonidan esgan shabada eng balandadir ustidagi tegirmon parraklarini harakatga keltiradi. Daf'atan, go'yo sehrli tayoqcha amri bilan barcha sadolar pasaydi. Menga bepoyon osmon-u tobora yuksalib bora-yotgan, biroq olis-olislardan arang eshitilayotgan navolardan bo'lak hech vaqo yo'qday tuyuldi. Yorug'lik o'z o'rnini tun zulmatiga bo'shatib berayotgan mana shu qisqa fursat mobaynida olamni

na biron bir odam va na butun odamzod anglay olmaydigan allaqanday tuyg'u qoplab oldi. Ba'zida odam o'zini ko'zyoshi qilishdan tutib tura olmaganidek, daf'atan yuragimda mehr-muhabbat to'lib-toshdi. Bundan buyon mudrab o'tkazilgan har bir soat qizg'in hayotga xiyonat bo'ladi, deb o'yladim... Ya'ni allaqanday mavhum umidlar fursatidan. Palmadagi qahvaxona va Avliyo Fransisko ibodatxonasi dagi sehrli soatlarda butun olamni kaftimda tasavvur qilgandek g'aroyib holat qarshisida ojiz alfozda yana haykalday qotib qoldim.

Men nohaq ekanimni juda yaxshi bilaman: jumlayi jahon bilan uyg'unlikning ham chek-chegarasi bo'lishi kerak. Zotan, faqat shunday antiqa holatda inson nimadir yarata oladi. Biroq muhabbat haqiqatdan ham chegara nima ekanini bilmaydi, mayli noshud bo'lsam bo'la qolay – gap bunda emas, – muhimi barchani, butun olamni bag'rimga jo qila olaman. Genuyadagi ayollar esimga tushadi: har tong ularning tabassumiga mahliyo bo'lardim. Bilaman, chamasi, ularni ortiq hech qachon ko'rmayman. Yuragimni o'rtagan achchiq armonni ifodalay olmayman. Avliyo Fransisko ibodatxonasi dagi mo'jaz quduq hamon ko'z oldimda – men kabutarlarning parvozini kuzatar kanman, tashna ekanimni ham unutardim. Lekin vaqt o'tib borar ekan, bu manzaralar ko'z oldimda qayta-qayta paydo bo'laveradi.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## MAOSHGA QO'SHIMCHA

Jovanni Batistella kuni kecha ishga olingan yosh hamkasabasi unga nisbatan 20 ming lira ko'p maosh olishidan xabar topdi-yu, halovatini yo'qotdi. Shunchalar g'azablandiki, xotirjam paytida hech qachon qilmaydigan ishga jur'at qildi, barcha alamini to'kib solish uchun bosh direktor huzuriga otlandi.

Ulug'vor xonaning eshigini ochishi bilan uning to'rida o'tirgan boshliqqa ko'zi tushdi.

- Kiravering, kiravering, marhamat...
- Kechirasiz, janobi boshliq, biroq...
- Muhtaram Batistella, sira tortinmay kira-vering. Nihoyat, meni yo'qlab kelganingizdan juda minnatdorman...
- Minnatdormisiz?
- Bo'lmasam-chi! Sizni ko'r ganimdan boshim osmonga yetdi. Marhamat, bemalol joylashib olavereng. Juda qimmatli va qadrdon kishilarimizga kam e'tibor beramiz. Afsuski, bu achchiq haqiqat. Muhtaram Batistella, tez-tez ko'r shib, xotirjam dardlashganga nima yetsin. Lekin haftalab ko'r shismaymiz. Hattoki oylab... Balki, ko'r shiganizdan buyon bir necha yil o'tgandir.
- Rappa-raso ikki yarim yil oldin ko'r shgandik.

– Ikki yarim yil! Aytsam ishonmaysiz, muhtaram Batistella. Mana shu ikki yarim yil mobaynida har oqshom, uyquga yotishdan oldin, ya’ni o’z vijdonim bilan yuzma-yuz qolganda, o’zimga o’zim dakki berib keldim: „Batistella! Bebaho Batistella! Men uni tamomila unutib qo’ydim. Uni xolisona xizmatiga munosib lavozimga o’tkazishim kerak. Juda jonkuyar xizmatchi. Axir, firmamizingning ishongan bog‘i-yu suyangan tog‘i“. Sizga yolg’on, Xudoga chin: har kecha shunday fikrlar sira tinchlik bermaydi, o’zimni oqlay olmay vijdonim oldida qiynalaman.

– Demak, janob boshliq, siz...

– Albatta, albatta! Sizning niyatingizni sezib turibman. Nima demoqchi ekaningizni ham bila-man. Haqiqatan ham tirnog‘ingizga ham arzimaydigan ayrim no’noq xodimlar sizdan ko‘p maosh oladi. Buadolatsizlik! Sizning sabr-toqatingiz tugadi. Shunday demoqchimisiz?

– Ha, haqiqatan ham...

– Bunday ahvol, muhtaram Batistella, sizning hafsalangizni haqli ravishda pir qilgan. O’rinli e’tiroz. Fikringizga men ham qo’shilaman. Adolatsizlik – shunday illatki, eng muloyim odamni ham yirtqichga aylantiradi.

– Yo gapim noto‘g’rimi?

– Umuman, to‘g’ri...

– Mana ko‘rdingizmi. Siz bo’lsa meni sal bo’lmasa hech vaqoni tushunmaydigan, hech kimning qismati bilan qiziqmaydigan bag’ritoshga chiqarib qo’yardingiz. Odam degan bunaqa shuhagar bo’lishi kerak emas. Mayli, loaqlar bugungi kun siz uchun omadli bo’lsin. Bugun ikkalamiz

ham bir-birimizdan rozi bo'lishimiz kerak. Sizga 150 ming oylik maosh tayinlasam, nima deysiz?

– Nima dedingiz?

– Yanglishmasam, hozir 95 yoki 98 ming lira olasiz?

– 97 ming.

– Juda soz, nihoyat, oldinga dadil qadam tashlaymiz. 150 ming lira maosh sizga yetadimi?

– Kechirasiz-u, biroq bu hatto xayolimga ham kelmagandi.

– Mana, o'zingiz guvoh bo'ldingiz. Men kimlарdir orqamdan g'iybat qilgandek, ayyor tulki ham, qonxo'r ham, odamxo'r ham emasman.

– Rahmat, janob boshliq.

– Arzimaydi. Xolisona xizmatingiz uchun men sizga rahmat aytishim kerak. Chekasizmi?

– Rahmat, men chekmayman.

– Otangizga balli! Bamisoli farishtasiz, farish-ta! Men esa qarg'ish urganday chekkanim-chek-kan... Shunday... shunday... Nihoyat, masala hal bo'ldi.

– Vaqtningizni organim uchun meni...

– Bemalol, bemalol, muhtaram Batistella. Omad yor bo'sin! – Bosh direktor chuqur entikdi: – Af-sus...

– Nimaga pushaymon bo'lyapsiz?

– O'zim, shunchaki... Sizning masalangizda boshqa rejalarim bor edi, endi gapirgandan nima foyda...

– Gapiravering, jon deb eshitaman.

– Siz, yoshlarni juda yaxshi bilaman. Hamisha hovliqasiz, yaxshilikni bilmaysiz.

– Juda unchalik emas.

– Men siz bilan yaqin birodar kabi gaplashib olsam degandim. Lekin siz boshqacha tushuni-shingiz hech gap emas.

– Nima uchun?

– Gap shundaki, bu juda nozik masala...

– Nahotki menga ishonmasangiz?

Bosh direktor asta o'rnidan turdi, xona bo'ylab o'g'rincha qadam tashlab eshik oldiga keldi-da, uni qulfladi, yo'lak bo'ylab hech kim kelmayot-ganmikan, deganday biroz quloq soldi va barmo-g'ini lablariga bosib, shivirlab dedi:

– Batistella, gaplarimga yaxshilab quloq soling. Mening to'rimdan go'rim yaqin...

– Qo'rqtigmang, janob boshliq...

– Qaridim... qarib qoldim... O'qtin-o'qtin yura-gim pand berayotir. Bu ketishda...

– Janob boshliq, yaxshi niyat qiling.

– Mendan keyin bu mansabni kim egallaydi?..

Eshityapsizmi, Batistella?

– Albatta, albatta.

– Hech kimga churq etmang, bu gaplarni sizga ishonganidandan aftyapman. Anchadan buyon jid-diy o'zgarishlar bo'lishini bashorat qilishmoqda.

– Nahotki?

– Gapimga ishonavering. Yangi xo'jayinlar, boshqa moliyaviy guruh keladi. Keyin nima bo'ladi?

– Nahotki hozirgi boshliqlar o'rnini yangilari egallaydi?

– Buning oqibatida nimalar bo'lishini bilasizmi?

– Biron narsa deyishim qiyin.

– Birinchi galda tejamkorlikka zo'r berishadi.

Nazarimda, sanoqli kunlardan keyin rahbarlar o'z-garadi, chunki inqiroz bizlarni ham chetlab o'tgani

yo‘q. Ishlar ko‘ngildagidek emas, Batistella. Men ishdan ketamanmi, qolamanmi, bundan qat‘i nazar, mening o‘rnimga keladigan odam mablag‘-larni tejash choralarini qidira boshlaydi. Qanday choralar deysizmi? Juda oddiy... Bilasizmi, odatda, bunday holatlarda nima qilinadi?

– Yo‘q.

– Ish qayta tashkil qilinadi. Qaytadan tashkil qilish! Ajoyib ibora-a?! Bu nima degani? Ortiq-cha daxmazadan xalos bo‘lish degani. Saralash boshlanadi. Yirik maosh oladigan barcha xodimlar elakdan o‘tkaziladi. Kamina ham. Ularning pattasini qo‘liga tutqazishadi. Qayta-qayta elakdan o‘tkazishadi. Kim omon qoladi? Bunday holatda, odatda, hech kim nazarga ilmaydigan oddiy xodimlarga jin ham urmaydi.

– Demak?..

– Sizday sadoqatli xodimni ishdan bo‘shatish men uchun azob! Vijdonan, odam sifatida, muhtaram Batistella, sizni ogohlantirishim ham qarz, ham farz. Qolaversa, sizni bu balodan saqlab qolishim kerak.

– Qanday qilib?

– Sizni maoshingiz keskin ortishidan asrashim, niqoblab, ishonarli joyga berkitishim zarur. Biroq har qancha jon kuydirganimdan nima naf? Siz, yoshlar, buni hech qachon qadriga...

– Yo‘q, yo‘q, janob boshliq, gapingizni davom ettiravering...

– Sizga o‘z o‘g‘limday hammasini ochiq aytaymi? Yaxshi. Bunday vaziyatda sizning o‘rningizda bo‘lsam bilasizmi nima qilardim?

– Nima qilardingiz?

– Mana, nima qirlardim, jon bolam! Boshimni ikki yelkamni orasiga olib, faqir kishi panada deganlariday, boshliqlarning ko'ziga tashlanmaslikka, qancha berishsa ham...

– Qancha maosh olsam ham?

– Albatta. Shunday xulosa kelib chiqayotir: sizning moddiy ahvolingizni yaxshilash maqsadida, aslida, do'stning emas, dushmanning ishini qilayotirman. Xolisona aytganda, sizni boshi berk ko'chaga kiritib qo'ymoqdaman.

– Demak, sizning fikringizcha?..

– Muhtaram Batistella, bir kun kelib mendan norozi bo'lishingizni sira ham istamayman. Gaplarimga xo'p deyavering. O'z vaqtida meni ogohlantirmagan ekansiz, deb gina qilishingiz aniq. Vaqt esa, azizim, biz bilan hisoblashmaydi. Xo'jayinlar o'zgaradami, o'zgarmaydimi, baribir jiddiy choralar talab qiladigan fursat keladi. Shuni bilgan holda, nima uchun o'zingizni baloga giriftor qilishingiz kerak?

– Hech narsani tushuna olmayapman... Bularning hammasiga maoshim ortgani sabab bo'ladimi? Hozircha sabr qilganim ma'qul, demoqchimisiz?

– Shunchaki sabr qilish emas? Oldini olish kerak! G'anim to'xtovsiz o'qqa tutganda askarlar nima qilishini bilasizmi? Yerga yuztuban yotib oladi. Siz ham o'zingizni chetga oling, Batistella.

– Qanday chetga olaman?

– Ko'chma ma'noda aytyapman. Uzoq maqsadni ko'zlagan holda zarbalarga chap berish kerak. Bu borada har qancha g'ayrat qilsangiz ham – oz. Tushundingizmi, Batistella?

– Unchalik emas...

– Maoshingiz biroz kamaysa, sizday bo'ydoq odam nima ham zarar ko'rardi? Deylik, 97 ming o'rniga 80 ming lira olasiz. Ochingizdan olib qolmaysiz-ku. 90 ming liradan ortiq maosh oladigan xodimlar esa yaqqol ko'zga tashlanadi. Siz esa hech narsa bo'lmaganday xotirjam ishlayverasiz.

– Demak, maoshim kamaygani ma'qul?

– Mana, sizga nima degandim, yaxshisi bu haqda gap ochmasligim kerak edi. Mening so'zlarimni noto'g'ri talqin qila boshladingiz.

– Menga oyiga 80 ming lira taklif qilyapsizmi?..

– 70 mingga qanoat qilsangiz yana ham yaxshi bo'lardi, lekin o'ylashimcha, 80 ming lira maosh ham bo'laveradi.

– Janob boshliq...

– Yaxshi otga bir qamchi deb bilib aytishgan. Sizday tushungan odamning sadag'asi ketsang arziydi. Bir tasavvur qiling-a: sizning maoshingizni ko'paytirishdi! Oyiga 150 ming lira? Keyin-chi? Dastlabki qisqartirish paytidayoq kovushingizni to'g'rilib qo'yishardi. Sizni o'z bolamday ko'rganim uchun Xudoga shukur qiling.

– Sizningcha, qo'shimcha maosh...

– Hech shubhasiz, bolaginam. Hozirgi paytda maoshni oshirish – o'z boshingni dorga tutib berishday gap.

– Nima ham derdim, janob boshliq. Meni bir balodan asrab qoldingiz, katta rahmat.

– Rahmat aytishning sira ham hojati yo'q. Eng muhimi ko'nglingiz tinchidi, xotirjam ishlayvering. Menga ishonavering: siz uchun jonimni ham ayamayman, qimmatli Batistella!

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasি*

## **QIROL**

Men Qirolni faqat uch marta ko'rganman.

Birinchi safar biz uni o'marmoqchi bo'lganda ko'rgandim. Yozning dastlabki kunlarida bozor bo'ladigan shaharchaga borardik. Har shanba bu yerga tuxum, parranda, torf va boshqa qo'liga ilingan narsa bilan dehqonlar turli tomonlardan oqib kelardi. Kamalakday rang-barang bozor juda gavjum bo'lardi. Qizil yubka va toshday og'ir poy-abzallar kiygan, yelkasiga shoyi ro'mol tashlab olgan basavlat xotinlar ortidan ularning kanop ishton, paxtalik nimcha va etik kiygan erlari ergashib yurardi. O'tkir qora bo'zaning, otlar-u xachirlarning, o'ralardan yangi qazib olingan kartoshka-yu tovuqlarning tagidan olingan issiqqina tuxumlarning hamda karam bargiga o'ralgan til-laday xonaki sariyog'ning hidi hamma yoqni tutib ketardi. Oluvchilar ham, sotuvchilar ham bor ovozini qo'yib baqirar, yuk hayvonlari pishqirardi. Darbadar musiqachi alam bilan ashula aytar, uni eshitgan bag'ritosh odamlar ham ko'zyoshlarini tiya olmas, qo'lini beixтиyor cho'ntagiga solib, hamyonini qidira boshlardi.

O'sha kuni Jojo, Danin va men bozorga odadagi vaqtida yetib keldik. Biz kamon va o'q yasash uchun zarur narsani qo'lga kiritish niyatida bu

yerga kelgandik. Biz shumtol novdalari yuklangan arava bozor maydonidan chiqishi bilan uning iziga tushib, toki egasi payqaguncha anchagina novdani o'marib olardik. Bu uzundan uzun ajoyib novdalar bo'lardi. Uning yo'g'onroq tomonidan kamon, ingichkaroq bosh qismidan esa o'q yasardik. Mana shunday qo'l bola kamon va o'q bilan ko'cha fonarlaridagi elektr lampochkalarni urib sindirardik. Lampochkalarning qattiq chirsillab sinishi bizga zavq bag'ishlardi.

Novdalarni keragicha o'marib, juftakni rostlar-dik, keyin irlandiyalik landavurlar ustidan shumlik bilan kulardik. Egnimizda yirtiq ko'ylag-u kalta ishtondan bo'lak hech vaqo yo'q, boz ustiga hammamiz yalangoyoq – aravakashlar hayt de-gan hamono tiraqaylab qochib qolardik.

Shumtol novdalari yuklangan aravani Jojo birinchi bo'lib payqadi.

– Hoy bolalar, kelyapti! – qichqirdi u eshak tortib borayotgan aravaga ishora qilib. Aravaga yuklangan shumtol novdalarining uchi sollanib borardi.

– Qani, bo'la qolinglar! – dedi Denin odatdagidek kaftlarini ishtiyoq bilan ishqalagancha.

Denin bunaqa ishga ustasi farang edi – juda uzun novdani sug'urib oldi, undan kamida bit-ta katta kamon va ikkita o'q yasasa bo'lardi. Bular bilan qancha lampochkani chilparchin qilsa bo'ladi! Jojo ham bitta novdani qo'lga kiritdi. Men ham bir novdaga yopishdim, shoshib aravaning gupchagiga chang solibman – arava qalqib ketdi, aravakash o'girildi-yu, bizlarga ko'zi tushib, qam-chini o'ynatdi. Qamchi shunday zarb bilan teg-

diki, yelkam jizillab achishib og'riganidan beixtiyor baqirib yubordim:

— Voy, la'nati qari ko'ppak!

Aravakash ham irland tilida bizlarni qalash-tirib so'ka boshladи. Ko'zлari olayib ketdi. G'azab bilan so'kinar ekan, uning bo'yin tomirlari o'qlov-day yo'g'on tortib ketardi. Basavlat bu odamning bahaybat kelbati hamon ko'z oldimda. Ko'pdan buyon ustara tegmagan soqollari o'sib ketgan, shopmo'ylovli bu kimsaning qiyofasi qahrli bo'lib, tarix darsligidagi Chingizxonga o'xshab ketardi. Tishlari qorday oppoq, qalin qoshlari ko'zlarga soya solib turardi. Ajablanarlisi, ko'm-ko'k ko'zlarida qahrdan nishon ham yo'q edi. Umuman, uning qiyofasida o'ziga xos ulug'vorlik ko'zga tashlanardi.

U aravadan tushdi, qamchini o'ynatgancha biz tomon yurdi.

Birinchi bo'lib qochib qoldim. Daninning ovozini eshitib hushyor tortdim.

— Mana tomosha! — hurmat bilan xitob qildi u. — Bolalar, axir bu Samogon Qiroli-ku!

Hammamiz darrov to'xtadik. U chinakam qahramon edi! U bilan bog'liq hikoyalilar shunchalik ko'p ediki, agar hammasi to'plansa, ikkita kitobdan ham ortib qolardi. O'sha hikoyalarni qayta-qayta tinglab suyagimiz qotgandi. Samogon Qiroli ayyorlikda pixini yorgan iskovuchlarga ham pand berardi. Butun boshli politsiya batalyoni oldidan ham samogonni sezdirmay olib o'ta olardi. Uning o'zini ham, aravasini ham, eshagini ham, aravaga yuklangan torfni ham har qancha titkilashmasin, samogonni aytilgan joyga bir tomchi ham

yo'qotmay yetkazib borardi. Bir gal katta dasturxon yozib, motam marosimi uyuştirdi, o'shanda shuncha ko'p samogon yetkazib keldiki, Geluey grafligining barcha aholisini ham mast qila olardi. Uning nomi rostdan ham tillarda doston edi! Ingliz politsiyachilar o'rnnini irlandiyalik politsiyachilar egallaganda, ularni ham chuv tushirgan. Biz esa surbet politsiyachilarlari dog'da qoldira oladigan odamga hamisha Tangridan omad tilar-dik. Nazarimizda, u bu atrofdagi tengi yo'q odam edi. Shunday odamni ranjitishimizga sal qolib-di-ya!

– Bizni kechiring, Qirol! – dedim uning ko'zlariga tik qarashga botina olmay. – Tanimay qolib-miz, aks holda, Xudo haqqi, sira ham bunday qilmagan bo'lardik.

– Mana, qaytarib ola qoling, – dedi Danin, o'margan novdani uzatarkan.

– Men ham qaytarganim bo'lsin, – dedi Jojo istamaygina.

– Bir qultumdan samogon bersangiz bas, – dedi kutilmaganda Danin.

Qirol kutilmaganda qah-qah urib kula bosh-ladi va ulovning jilovini qo'lga oldi.

– Yo'qol hammang, churvaqlar, – dedi u yasa-ma po'pisa bilan. – Yo'qol deyapman, senlarga, yalangoyoqlar! O'margan novdalaring ham o'zlaringga buyursin!

Bor aytgan gapi shu bo'ldi. Sakrab aravaga mindi-da, jo'nab ketdi. Biz esa hayrat bilan ortidan uzoq tikilib qoldik. Bir martagina o'girilib, qo'lidagi qamchi bilan hazilnamo po'pisa qilib jilmayganda oppoq tishlari kumushday tovlanib ketdi.

O'sha kuni to'rtta elektr lampochkani urib, chil-chil sindirdik. Bundan xabar topgan otam meni ayamay savaladi.

Ikkinchি safar boshqacha vaziyatda duch keldim. Bu paytga kelib uzun shimplar kiyib yurardik, boshimizga ishtiyоq bilan sochmoy surardik, har birimiz o'ziga xos xushbo'y atirni ham ayamay separdik. Atirlarning xush bo'yidan yonimizdan o'tgan odamning naqd boshi aylanib ketardi. Katta shahar ko'prigining silliq toshlarida o'tirib olgancha Solt-xill tomon yo'l olgan kamdan kam qizlarga shilqimlik qilardik. Lekin sira omadimiz chopmasdi. Nazarimda, engil-boshimiz chinniday toza ekaniga qaramay, qiyofamiz hamingqadar edi. Binobarin, qizlar bizlarga bir bor nazar tashlab, burnini jiyirgancha ertakdagи shahzodani axtarib o'tib ketaverardi. Biz esa ularning ortidan so'kingancha qolaverardik.

– Jin ursin bu qizlarni! – dedi nihoyat Danin. – Yuringlar, yaxshisi Amerika kemasini tomosha qilamiz. Bunday oyimchalardan biri bilan yashagandan ko'ra umrbod bo'ydoq o'tganim bo'lsin! Sirkasi suv ko'tarmaydigan tegmanoziklarni ko'r-gani ko'zim yo'q! Ular manaman degan yigitning ham boshini yemaguncha tinchimaydi.

– Kamiga bor-budingni havoga sovuradi, – uni qo'llab dedi Jojo. Holbuki, o'zi haligacha yirik pulni ushlab ham ko'rmagandi.

Men e'tiroz bildirmadim. Amerika kemalarini xush ko'rardim. O'shanda bahaybat kemalar bizning bandargohga kirib o'tar, qishloq yoshlari unda Amerikaga yo'l olardi. Bandargohda ularni kuzatish, voqealarni esa tomosha qilsa bo'lardi.

Kema turgan joyga o'tishning o'zi bo'lmasdi. Soqoldor, dengizchilar libosini kiyib olgan tullak darbon ruxsatnomasi bo'lmasa o'z onasini ham kema tomonga o'tkazmasdi. Biz oddiygina ayyorlik ishlatdik. Ilgari ham shunday qilardik. Olomon kirib ketayotir, ular orasida bir xotin o'z ruxsatnomasini ko'rsatadi, Jojo uning bolasiday ro'molidan ushlaydi, Danin esa bir qo'li bilan Jojoning kamzulini tutamlab, bir qo'li bilan esa meni yetaklab oladi. Ustiga ustak kaftlarimiz bilan ko'zlarimizni to'sib, yosh boladay big'illab yig'laymiz. Bizning rosmana yig'layotganimizni ko'rgan qari darbon bu safar o'zi ham yig'lab yuborishiga sal qoldi.

Muhojirlar bilan tirband kema jo'nashga tayyor. Jo'nab ketayotganlar kema panjaralariga suyanib olgan. Odamlarning qo'llarida dastro'molchalar hilpiraydi, hammaning ko'zi yig'idan qizarib ketgan. Sohildagi xotin-xalaj qo'llarini cho'zadi. Yelkalaridan ro'mollari tushib ketganiga ham parvo qilmaydi, ularning yuzlarini ko'zyoshlari yuvaldi. Egniga paxtalik nimcha kiyib, qo'liga shumtoldan qilingan qamchi ushlab olgan erkaklar burunlarini qo'llari bilan artadi, ko'zyoshi qilgani oriyati yo'l qo'ymaydi. Biz beg'am o'smirlarga esa ermak kerak – hammani baravariga masxaralab kulgimiz keladi.

Kema gudogi yangradi, langarlar ko'tarildi va kema joyidan qo'zg'aldi.

Shu payt Qirolni ko'rib qoldik.

U Iso Masihday qulochini kergancha yig'lardi. Uni arang tanidik. Qaribdi. Mo'ylovi butunlay oqarib ketgan, burni sholg'omday qizil, qo'llari-yu bu-

tun tanasi daraxt shoxlariday quruqshab qolgan-day. U bizni avvalgiday jiddiy qiziqtirmas, biroq bolalik bilan bog'liq xotiralarni yana yodga solardi.

– Qaranglar, axir bu keksa Qirol-ku, – dedi Danin.

– Haqiqatan ham aynan uning o'zi, – tasdiqladi Jojo.

Hammamiz unga tikilib qoldik.

U qaysidir ma'noda qirol edi. U o'zini shohlar-day bemalol tutardi. Kemada o'g'li jo'nab ketayot-ganidan yuragi o'rtanib, faryod solib yig'lay boshladi. Odamlar nima deb o'ylaydi, degan fikr xayoliga ham kelmasdi. Yig'lash barobarida o'g'li-ga talpinib mehr bilan yolvorardi. Irland tilida. Biz endilikda irland tilini ancha bilib olgandik. Maktabda majburan o'rgatishardi. U o'g'liga talpi-nib tavallo qilardi:

– Bolam, bolajonim, meni tashlab ketma! Qari otingga rahming kelsin! Yorug' dunyoda sendan bo'lak hech kimim yo'q. Sensiz aqldan ozaman. Yolg'iz o'zimni, uyasi buzilgan chumchuqday chir-qillatib ketma! Ko'zimning oq-u qorasi! Nahotki seni ortiq ko'rmasam?! Ortingga qayt! Mehribon otangning bag'rige qayt, o'g'lim!

U ko'zlaridan shashqator yosh oqizib, fig'on qilgancha yolvorardi. Kemada uning o'g'liga ham ko'zim tushdi: u ham kulfatzada qiyofada, oyog'i-ning tagida safar jomadoni. Barvasta, otasi ham yoshlida ana shunday kelishgan edi.

Kema sohilni tark eta boshladi, Qirol o'g'lining kema panjarasi tutqichini mahkam changallaga-niga ko'zim tushdi. Kemadan ham, sohildan ham

shunday yig'i-sig'i, fig'on-u faryod ko'tarildiki, nazarimda, qiyomat-qoyim ro'y berganday bo'ldi. Hatto biz ham hazil-mazaxni unutib, qayg'u domida qoldik. Yon-atrofni hasrat ko'lankasi qoplab oldi. Kema sohildan chamasi besh qadamlar siljiganda Qirol qo'llarini cho'zgancha o'zini suvga tashladi.

Kemaga yeta olmay suvga g'arq bo'ldi. O'g'lining ko'zi qinidan chiqib ketayozdi. Sohil xizmatchilaridan biri qutqaruv chambarini suvga otdi, boshqasi esa kamzulini yechib suvga sho'ng'idi. Qirol suv yuzasiga qalqib chiqdi, shapkasi ko'zini to'sib qo'ygandi. Qari bo'lgani uchun suv yuzasida o'zini arang tutib turardi. Endi unga baribir edi. Suv qa'riga cho'kishdan oldin olislab borayotgan kema tomon yana qo'l silkishga ulgurdi. Qutqaruvchi shu pallada unga yetib olib, qutqaruv chambarini kiydirdi.

Shalabbo bo'lgan Qirolni suvdan qanday olib chiqqanlarini tomosha qilish uchun boshqalar o'sha yerda qoldi. Kimlar uchun bu kulgili tekin tomosha bo'lganmish. Lekin men qolmadim. Men Qirolni baquvvat, barvasta odam sifatida qadrillardim, uning qiyofasiga raxna solishni istamasdim. Shu bois odamlar uni mayna qilishlariga chiday olmasdim.

Uchinchi marta keyingi kuni ko'rdim. Sohilning oxirida ko'm-ko'k suvni kuzatardim. Oqchorloqlar charx urib uchardi. Suv yuzida kemalardan tushgan neft va sohildan tushgan ko'mir changlari mavjlanardi. To'lqinlarda apelsin po'choqlari, sigaretalarning qutilari suzib yurar, allaqanday itning o'ligi chayqalardi.

Daf'atan eshkakli qayiqqa ko'zim tushdi. Bandargoh o'rtasining shundoqqina ro'parasida odamlar ipga bog'langan mushukni tortishardi. Mushuk nimagadir yopishdi, zo'r berib torta boshladi, mushukni kuzatib turgan odamlarning qichqirgani eshitildi. Odamlar eshkaklarni qo'yib, mushukning ho'l arqonini torta boshlashdi, ayni shu palla suvdan Qirolning yuzi qalqib chiqdi.

Uning ko'zlarini yumilgan, boshida shapkasi yo'q edi. Quyosh ko'rмаган mangayi oppoq ekanini ko'rib ajablandim. Yakkam-dukkam sochlari ham qorday oqarib ketgandi. Yuzi kichrayib qolganday tuyuldi, oppoq qansharidagi momataloq dog' ham e'tiborimni tortdi.

Qayiqdagagi odamlar ko'kimdir tiyg'anchoq zinalar tomon suza boshladilar. Bir odam Qirolning kamzulidan ushlab olgancha suv bo'ylab sudrab kelardi.

Kecha yarim tunda kimdir uning suvga shaloplاب yiqliganini eshitibdi.

Begona yurtga darbadar ketgan o'g'lini qo'msab sohilga chiqqan bo'lsa, ajab emas. Aftidan, toyib ketib, boshi bilan sohildagi xarsangga urilgan va shundan keyin suvga g'arq bo'lgan. Yolg'iz o'g'lidan umid uzolmay yana bandargohga kelgan-da. Judolik dardiga chiday olmay anchagina ichgan ham bo'lsa kerak. Mast odamning oyoqda turishi esa qiyin. Hamma narsa bo'lishi mumkin. Buning ustiga qari odam. Ikki mamlakatning politsiyachilari bilan tap tortmay bellashadigan jasoratli, barvasta Qirol o'tmishda qolib ketgandi. U shu asno dunyodan ko'z yumdi. Balki, siz vahimali o'lim topibdi, dersiz. Bilmadim. Hammasini o'z ko'zi bi-

lan ko'rgan kamina, u dunyodan shoirona bosh olib ketdi, degan bo'lardim.

Qirol vafot etdi, unday odam ortiq dunyoga kelmaydi. Undan shohona tojni meros qilib ola-digan yolg'iz o'g'li ham, afsuski, begona yurtga bosh olib ketdi.

Qayiqdagilar taxta zinalar oldiga yetib kelganda, men boshimni ko'tara olmay uyga jo'nadim.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **BIR MUHABBAT TARIXI**

Badqovoq bulutlar qoplagan, qop-qorong'i aprel tunida shaharga yetib keldim. Shaharning nafis, biroq musiqaday sobit kumushtan ko'lankasi harir tuman pardasi ichra samoga bo'y cho'zgandi. Cherkovning qubbalar bulutlar og'ushida tebranardi. Shahar hokimligi binosidagi sarg'ish nurlanayotgan soat go'yo ipga ilib qo'yilganday havoda suzardi. Vokzalni tutib ketgan yasmin va barra maysalarning hidi odamni mast qilardi.

Vokzalning oldida shahardagi yagona – loqayd va chang bosgan fayton turardi. Chamasi, shahar mo'jazgina edi. Faqat cherkov, shahar hokimligi, favvora, burgomistr va aravakashdan iborat.

Faytonga joylashib olganimdan keyin hayal o'tmay turli jomadonlari-yu qutichalarni ko'tarib olgan yo'lovchilarni quvib o'ta boshladim. Ularning gap-so'zлari qulog'imga chalinar, g'aribona turmushi, alamlı qismati, zerikarli turmushlari-yu g'uussalari va tashvishlarining qashshoqligini tobora ravshan his etardim.

Yo'l bo'ylab tasodifiy odamlar duch kelardi. Sodda va laqma bu kimsalarning nima bilan shug'ullanayotganiga guvoh bo'lardim. Bir ayol tog'o-rada bolasini cho'miltirardi. Tog'oraning yaltiroq jez tutqichi e'tiborimni tortdi. Bolakay yig'lardi.

Bir erkak karavotda kerilib o'tirar, bir o'smir esa uning etigini tortardi. Zo'riqqanidan bolaning yuzi bo'g'riqib ketgan, etik esa loyga botgandi. Bir kampir uyini supurardi. Mening itday talaydigan buvim ham har doim kechasi uyni supurardi. Mushtdayligimdan buviming ham, supurgisini ham ko'rgani ko'zim yo'q edi, qasdma-qasdiga qog'oz parchalari, sigareta qoldiqlari, xullas, har qanday chiqindilarni xush ko'rardim. Nimaki qo'-limga tushsa, buvim va supurgidan berkitishga urinib, cho'ntaklarimga joylardim. Poxol parchalar, ayniqsa, jon-u dilim edi – ko'zimga olovday ko'rinardi.

Yarim tunga yaqinlashib qolganiga qaramay, yo'l-yo'lakay talay odamlarga duch keldim. Bu yerda shunchalik kech yotisharmikan? Yoki avji bahor pallasida butun tabiat uyqudan uyg'onayotgani odamlarni bezovta qilayotganmikan? Kichik shaharchalarda kechasi ko'chada tasodify odamlar bo'lmaydi. Faqat oshig'-u ma'shuqlar yoki fo'hishalar, yoki telbalar, yoki shoirtabiat kimsalar tentiraydi. Tasodify noshudlar-u loqaydlar shom tushmasdan pinakka ketadi.

Bozor maydonining qoq o'tasida shaharga asos solgan ruhoni haykali qad rostlagan, shu qadar jiddiy va xo'mraygan qiyofadaki, baayni nozir yoki mirshab deysiz. Nazarimda, odamlar uning haykalliga parvo ham qilishmasdi. Yonidan ko'z qirini ham tashlamay o'tishar, hatto uning guvohligida gunoh ishlardan ham tap tortishmasdi.

Sho'rlik ruhoniya ichim achidi, shaharga asos solaman, deb hazilakam ter to'kmagan, axir. Noshukur dunyodan alamzada odamday istehzo

bilan boqardi. O'sha tunning o'zidayoq tarixiy kitoblardan unga oid ma'lumotlar olishni ko'nglimga tugib qo'ydim. Lekin bunga qo'lim tegmadi. Zotan, chog'roq bu shaharcha odamlari o'ziga xos tarix og'ushida yashardi. Qolaversa, atrofda baho fasli hukmron, bunday pallada allaqanday ruhoniylar-u shahar asoschilari kimning ham xayoliga kelardi.

Ertasigayoq bir necha qiziqarli voqealardan xabar topdim.

Pochtalyon tug'ma cho'loq emas, faqat bir necha kundan buyon oqsayapti ekan. U kamdan kam ichar, yilda ikki marta: tug'ilgan kuni – o'n beshinchchi aprelda hamda yirik shaharlardan biriда o'zini osib qo'ygan o'g'li o'lgan kundagina ichkilikka zo'r berarkan. Shu darajada icharkanki, uch kungacha yo'l chetidagi panjaralarini ushlagancha arang odimlarkan. U ichkilikka zo'r bergen uch kun mobaynida shahar ahlidan hech kim na xat, na xabar olarkan.

Bir hafta muqaddam, o'n beshinchchi aprelda molday ichib olgan Pochtalyon yiqilib tushib oyog'i lat yebdi. O'shandan buyon oqsayotgan mish.

Bu shaharchadagi yolg'iz hodisa emas.

Men qo'nim topgan mehmonxonada naftalin, mushk va eski supurgilar hidi anqirdi. Pastak gumbazsimon shiftli katta oshxonada peshtaxta bolardi. Istarasi issiq Anna deraza rafiga suyanganucha xo'randalarning pivo grafinlaridan sira ko'zini uzmasdi. Grafinlarda hamisha pivo bo'lardi. Odamlar bu yerda juda ko'p pivo ichar, Anna nimagadir chalg'ib e'tibor bermasa, qopqog'inı grafinaga urib, uni hushyorlikka chaqirardi.

Anna o'shanda yigirma yetti yoshda edi. U malasoch juvon bo'lib, nur yog'ilib turgan chehrasi olmaday tarang, bir tutam zarg'aldoq kokili peshanasiga tushib turar, miriqib cho'milib, hozirgina hammomdan chiqqanga o'xshardi.

Chiroyli, baquvvat qo'llari tortinchoq edi. Nazarimda, uning qo'li har doim nimadandir iyman-ganday tuyulardi.

Anna asli Bogemindan bo'lib, bir muhandisni sevardi. Muhandis esa Annaning otasi ishlaydigan fabrikada boshqaruvchi edi. Anna muhandisdan bolali bo'lgandi. Muhandis esa boshqasiga uylanib, Annaga bolani parvarishlash va yo'lkira uchun pul bergen. U shu asno shu shaharda ofitsiantka bo'lib ishlay boshlagan.

Men ba'zida Anna yashaydigan xonada bo'lganimda o'g'ilchasining suratiga ko'zim tushardi. Farishtaday bola. Do'mboq qo'lchasi bilan havoni paypaslar, katta-katta ko'zlari bilan olamga tashna boqardi.

Anna kamgap bo'lgani uchun qismatini qisqa-cha so'zlab bergen.

Annani yo'ldan urgan muhandisday kimsalarni ko'rgani ko'zim yo'q, bu juvonga ishqim tushib qoldi.

– Siz uni haliyam sevasizmi? – so'radim Annadan.

– Ha! – javob berdi u. U bu so'zni go'yo amaliy ma'lumotnama berayotganday rasmiy va qat'iy aytди.

Shaharda kinoteatr ham bor edi. U gazlamar savdosi bilan shug'ullanadigan savdogarga tegishli edi. Juda ham serg'ayrat va tadbirkor bu

odam yakshanba kunlari o'zini qo'ygani joy topolmasdi. Endilikda begin kunlari savdo bilan shug'ullansa, yakshanba kunlari kino qo'yardi.

Anna bilan kinoga bordik.

Annaning mehridaryo ekanini ba'zan sezib qolardim. Men mehr-u muhabbat ko'zi yumilib qolgan buloqday ayollarni yaxshi ko'raman: ularning mehri ham ana shunday buloq singari ohista, sezilarsiz, biroq muttasil yuqoriga siza boradi – biroq yuzaga chiqqa olmasdan – yana ortga qaytadi, teranlikka singa-singa batamom barham topadi. Men Annani sevardim. U o'z mehri bilan meni rom qilgandi. Biroq u oldinda o'zini judolik kutib turganini bilmasdi.

Shahar ahlining mehri bilan munavvar xiyobon haqida hali to'xtalmadim. Oltin bahor yomg'iri kashtanlar-u jo'kalarning yaproqlaridagi borg'uborlarni yuvardi. O'rindiqlar gulzorlardan narida, shundoq maysazor ustiga o'rnatilgandi. O'y lashimcha, ruhoniy o'z qo'llari bilan o'rnatgan bu o'rindiqlar endilikda kashtanlar-u jo'kalar bilan birga o'sardi.

Yakshanba kuni Anna bilan kinodan chiqib xi-yobonga bordik.

Bir-biridan bo'sa olayotgan sevishganlarga ko'zimiz tushdi va Anna beixtiyor kulib yubordi.

– Yaxshi emas, Anna, – tanbeh berdim men, – muhabbatni masxaralab bo'lmaydi.

Anna darhol o'zini o'nglab oldi.

Mehmonxonaga qaytganimizda xo'jayin Annani axtarayotgan ekan – yangi mijoz kelibdi. Qandaydir korxonaning vakili – kommivoyajer. Uning yashil va qizil suratlar yopishtirilgan yap-yangi

charm jomadoni bor edi. Sochlari to'sday qop-qora, ko'zları yulduzday chaqnaydi. Mandolinani qoyillatib chalar, albatta, qizlarning boshini aylan-tirardi. Uning jomadoniga nazar solish imkonim bo'lmanida, qizlar hadya qilgan bir dasta dastro'molchalar-u ishqiy xatlarni ko'rgan bo'lardim.

Tunda oxirgi sham yonib tugadi. Yo'lakka chi-qib, Annaning xonasiga kirdim. Anna egnida ko'y-lak bilan karavotda yig'lab o'tirardi. Daf'atan kirib borganimdan cho'chimadi ham, e'tibor ham ber-gani yo'q – hamon ko'zyoshi qilardi.

Birpasdan keyin o'pkasini bosib, dedi:

– Quyib qo'yganday o'xshaydi-ya!

Yangi mijoz Annaning muhandisiga o'xsharkan.

– Sho'rim qursin! – diydiyo qildi Anna.

Shu-shu bir-birimizni sevib qoldik va buni ya-shirmsasdik. Anna mehridaryo bo'lishi barobarida tuzukkina rashk ham qilardi. Lekin men begona ayollarga qayrilib ham qaramasdim. Bu shahar-ning qiz-juvonlarini yoqtirmasdim. Faqat ko'klam-ning oltin oqshom paytlari daladan qaytishayot-ganda birrov nazar tashlab qo'yardim. Ayollar olamni yangilash uchun yaratilgan, axir. Ular ba-log'atga yetadi, kimgadir mehr qo'yadi, farzand ko'radi. Avji bahorda qiz-juvonlar qalbida onalik mehri to'lib-toshadi va bu butun yilga tatiydi.

Men har kuni barvaqt turardim. Bu paytda Anna ham, xo'jayin-u yangi mijoz ham hali ux-layotgan bo'lardi. Ostonada hamon tozalanmagan poyabzallar beixtiyor o'tgan kunni yodga solardi.

Dastlabki chorrahada Ket o'z darchasini ochib, quyiga, shaharga nazar tashlaydi. Men Ket bilan har doim salomlashaman, lekin u bi-

lan biron marta ham gapplashmaganman. Nimani ham gaplashardik? U derazadan termilib turga-ni hamda ertalab olam o'ziga xos va beg'ubor bo'lgani uchun salomlashardim. Zotan, olam yaralgan dastlabki pallalarda beg'ubor bo'lgan, atigi yigirma chog'li odam yashagan va barchasi bir-biri bilan tug'ishganlarday ahil kun kechir-gan. Peshinga yaqin ortga qaytardim, bu paytga kelib olam ming yoshga keksayib qolganday tuyu-lar, shu bois hech kim bilan salomlashmasdim. Bunday olag'ovur dunyoda umrida bir og'iz ham gapplashmagan odam bilan faqat savdoysi kimsa salomlashadi.

Xiyobonda yirik tarvuzday sug'orish bochkasi yumalab yurar, maysazorlar va gulzorlarni sug'o-rardi. O'rindiqlar atrofidagi maysalar ezilgan, ke-chasi kimlar uchundir ishrat to'shagi bo'lgani sezilib turardi. Ro'paramdan vokzal navbatchisi kelardi.

Bu temiryo'l xizmatchisini yomon ko'rardim. Uning yuzini tamomila sepkil bosib ketgan, terak-day uzun bo'lib, tarashadek qotib qolgandi. Unga ko'zim tushgani hamono Temiryo'llar vazirligiga maktub yo'llash fikri tug'ildi. Agar u yerga mak-tub yozsam, men nafratlanadigan bu mansabdor-dan ikki kichik stansiya oralig'ida telegraf ustuni sifatida foydalanishni taklif qilgan bo'lardim.

Bu Temiryo'lchini nima uchun yomon ko'ri-shimni bilmayman. Uning bo'yи favqulodda uzun edi, lekin hamma favqulodda narsalarga ham yomon ko'z bilan qaraydiganlar xilidan emas-man. Nazarimda, uning bo'yи qasddan o'sib ket-gan-u, ayni shu narsa mening g'ashimga te-

gardi. Qolaversa, uning yana ham daroz bo'lish-u sepkillarni bittalab terishdan bo'lak tashvishi yo'qday edi. Boz ustiga sochi ham zarpechakday qizg'ish edi.

U egnidan xizmat kiyimini yechmas, boshidan esa qizil shapka tushmasdi. Uzun oyoqlari bilan bemalol tez yurishi mumkin bo'lsa ham shoshilmasdan, ehtiyyotkorlik bilan odimlardi. Ohista qadam tashlaganiga qaramay, bo'yи tobora o'sib borayotganday tuyulardi.

Bu Temiryo'lchini hozir ham yaxshi bilmayman. Lekin imonim komilki, g'arazli niyatlari istagancha topiladi. G'animi ketib borayotgan poyezdni halokatga uchratib, hamma aybni strelkachiga to'nkashdan ham toymaydi. Bunday kimsalar bor ekan, poyezdda yurish xatarli.

Temiryo'lchiga o'xshagan tasqara yaxshi ko'r-gan ayolining hurmati uchun ham boshidagi qizil shapkasini yechmaydi.

Uni Anna ham yoqtirmasdi. Nima uchun undan nafratlanishimni so'ragan.

Annaga qanday javob berishni bilmasdan, do'stim Avel va u ko'ngil qo'ygan ayol haqida gapirib berdim.

Do'stim Avel Nyu-Yorkka borishni orzu qilardi. Avel karikaturachi rassom edi. U yurishni o'rganmasdan oldin karikatura chiza boshlagan. Go'zalilikning qadriga yetmas, aksincha, bema'ni manzaralarga mahliyo edi. Rostini aytsam, umrida biron to'g'ri chiziq tortmagan.

Avel xotinlarni jini suymasdi. Erkaklar ayollar timsolidagi barkamollikka shaydo bo'ladi. Avel esa komillikni rad etardi.

Uning o'zi ham yo'nilmagan tayoqday dag'al bo'lib, ayollar ayni shu bois uni sevardi. Xotinlar erkaklarning dag'al va qo'polligi ortida komillik yoki ulug'vorlik yashiringan bo'ladi, deb o'ylaydi.

Avel kunlarning birida Nyu-Yorkka yo'l oladi. Kemada umrida birinchi marta go'zal ayolni uch-ratadi.

Manzilga yetib borishlari bilan o'sha farishta ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu Avelga shunchalik alam qiladiki, navbatdag'i kema bilan Yevropaga qaytadi.

Anna esa do'stim Avel boshidan kechirganlar-ning Temiryo'lchiga nima aloqasi borligini bila ol-may garang edi.

– Nima uchun Avel haqida gapirib berding? – so'radi u.

– Anna, – dedim men. – dunyodagi hamma vo-qealar bir-biriga bog'liq. Ular mohiyatan yoki bir-biriga o'xshash, yoki qarama-qarshi bo'ladi. Temiryo'lchi bilan do'stim Avelning farqi bor. Juda katta farqi bor. Do'stim Avel halokatga yuz tutadi, vokzal navbatchisi esa nainki sassiq alafday o'saveradi, hatto stansiya boshlig'i ham bo'ladi. Do'stim Avelning orzusi bor. Vokzal navbatchisi-ning esa stansiya boshlig'i bo'lishdan bo'lak hech qanday orzu-umidi yo'q, bo'lmaydi ham. Avel ilk bora mehri tushgan ayolni qo'ldan chiqargach, bir umr talpingan Nyu-Yorkdan ham voz kechdi. Temiryo'lchi esa bir ayol sababli Nyu-Yorkni hech qachon tashlab ketmaydi.

Men, Anna hammasini tushundi, deb o'yladim. U esa meni bag'riga bosib, erkalandi:

– Sen ayni men tufayli Nyu-Yorkning bahridan kecharmiding?

O'sha kecha Annaga bor mehrimni baxshida etdim, chunki uni deya Nyu-Yorkdan bosh olib ketmagan bo'lardim. Bunga iqror bo'lishdan cho'-chidim, shu bois uni qayta-qayta qattiq bag'rimga bosdim. Men qo'rqoqlarcha ish tutganim holda o'zimni mardonavor ko'rsatishga urindim. Anna esa ko'nglimdagini sezib qolib, yig'i-sig'i qila boshladi. Uni bolasi bilan rad etgan muhandisdan qanday farqim qoldi, degan fikrdan xijolatga botdim.

Ertalab, odatdagidek, barvaqt chiqib ketdim – Anna uxbab yotardi. U chiqib ketganimni payqab, ko'zini ochmasdan mening o'rnimni paypaslagan bo'lsa ajab emas.

Yomg'irdan qochib qahvaxonaga kirdim.

Qahvaxona devorida katta taqvim ilig'lik turardi. Har kuni ertalab yetti yarimda oppoq bakenbardli Pochtmeyster kelardi. Pochtmeyster zabitlarday adil qaddini raso tutar, shimi juda uzun, poyabzalining – balki, shimming baloqlari hilpillamasligi uchun – temir tepkisi bo'lardi.

Pochtmeysterning ko'zlari dengiz kabi moviy edi – mehr to'la juda ham moviy ko'zlar. Nazarimda, ko'zoynak ustalari yasab berganday tuyulardi. Bakenbardlari esa qor kabi beg'ubor edi. Ehtimol, har kuni ertalab yoki uyquga yotishdan oldin bakenbardlariga upa separdi.

Har kuni ertalab Pochtmeyster qahvaxonadagi taqvimning yangi varag'ini ochardi. Qahvaxona egasi Ignatsga qolsa, taqvimda hamon birinchi yanvar varag'i ilinib turaverган bo'lardi. Lekin Pochtmeyster har bir sananing o'z raqami va nomi bo'lishi uchun qayg'urardi.

Pochtmeyster ko'zimga otamday issiq ko'rinardi.

Muhabbat gulshani bo'lgan xiyobon shahar markazida emas, bir chetda joylashgandi. Xiyobon-dan keyin yaylovlar boshlanardi.

Xiyobonga kiraverishda qahvaxona bo'lib, men shu yerda nonushta qilardim.

Ro'parada pochta joylashgandi. Bu, shahardagi yagona ikki qavatli bino edi.

Ikkinci qavatda janob Pochtmeyster istiqomat qilardi.

Ikkinci qavatdagi bitta deraza hamisha ochiq turardi. Bu Pochtmeysterning xonasi bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Ko'zлari hamisha moviy bo'lishi uchun zangori osmonga uzoq vaqt tikilishi kerak, axir. Qolaversa, Pochtmeysterning farzand-lari bo'lmasa kerak, oppoq sochini ixlos bilan turmaklab olgan keksa xotini bo'lsa kerag-u ular ikkalasi, ehtimol, kechki paytlar dardlashar, deb taxmin ham qilardim.

Men qahvaxonada shunday joylashardimki, ro'paradagi uyning ochiq derazasi har doim ko'rinib turardi. Men derazada Pochtmeestr paydo bo'lishini poylardim. Lekin u kamdan kam ko'rinish berardi.

Bir safar derazada farishtaday go'zal qizni ko'rib qoldim. U osmonni kuzatardi.

Qizning go'zalligi yuragimga g'alayon soldi. Kiprik qoqmay tikilib turganimni nihoyat, payqab men tomonga qaradi. Xijolatga botib salomlashdim. Salomimga alik olganday shirin imo qildi. Shu-shu uzzukun derazada paydo bo'ladigan bo'ldi.

Men o'z kechinmalarimni yovvoyi uzumday duch kelgan joyga o'tqazaman-da, shiddat bilan g'ovlab o'sishini kuzata boshlayman. Men kabi

yalqov kimsani tepsa tebranmas, deb to'g'ri aytishadi. Biroq derazadagi qizni ko'rgan lahzadan e'tiboran butunlay oromimni yo'qotdim, bolaligimda mana shunday yerga ursa ko'kka sapchiy-digan xilidan edim. O'sha kezlarda o'zimni ulkan olamning bir bo'lagiday sezardim, qismat to'lqinida allaqaylargadir shiddat bilan suzardim. Bolaligimda arzimagan ermagimni yo'qotib qo'ysam ham alamimni ko'zyoshimdan olardim. Balog'atga yetgach, kulishni ham, yig'lashni ham unutdim. Xotirjamligimga hech kim raxna sololmasdi. Iztirob-u quvonchlar ham begonaday edi.

Kutilmaganda hayotim yana iztirob va quvonch bilan to'ldi, arzimagan narsalar ham ko'zimga ajabtovur ko'rina boshladи.

Ertalab o'tib borarkanman, derazadagi qiz tikilib turardi. Har kuni egilib salom berardim. Uchinchi kuni u tabassum hadya qildi.

Uning lablarida o'ynagan tabassumga mahliyo bo'lar ekanman, dunyoda behuda narsaning o'zi yo'q, degan fikr ko'nglimdan kechdi.

Uning bejirimgina chehrasi sutga chayilganday edi. Ko'zлari tong yulduziday porlardi. Sochlari silliq qilib orqaga taralgan, ixcham yelkalari beozor musichaday qo'nishib turardi.

Yomg'ir paytida ham derazasi ochiq bo'lardi. Men qahvaxonada joylashib olgancha yomg'ir yuvayotgan oyna osha darchadan ko'z uzmasdim. Oynadagi yomg'ir tomchilarini dam-badam artardim. Shunday kezlarda qiz menga qarab shirin jilmayib qo'yardi.

Bir safar oyna oldidagi stolni boshqa xo'randalar band qilib ulgurishibdi, tashqariga chiqib,

qahvaxona eshigi oldida borib-kela boshladim. Bo'zchining mokisiday u yoqdan bu yoqqa qatnayverib kulgili holatda qoldim. Paltomning yoqasini ko'tarib, salmoqlab odimlardim. Paltom birpasda shalabbo bo'lib ketdi. Pochta va restoran yo'lagida odamlar yomg'ir tinishini kutardi.

Odamlar ustimdan kulardi. Ularga qaraganimda xijolatga tushib yuzlarini o'girishdi; nazarimda, meni telba deb o'ylashdi.

Aslida ham bu qizning ishqi bilan bir hafta savdoyi bo'lib yurdim. O'sha qiz haqida Annaga gapirib berdim, Anna esa mayna qilib ustimdan kula boshladi.

– Nega kulasan? – so'radim men. – Uni sevib qoldim.

– Yaxshi ko'rsang, nega o'ziga aytmaysan?

– Aytaman ham!

– Aytmaganing ma'qul! – o'tindi Anna. – Balki, rostdan ham uni sevib qolgandirsan.

Hech qachon yodimdan chiqmaydi, bir gal de razada qizning yonida Pochtmeyster ham ko'rinish berdi. Men salomlashdim, Pochtmeyster ham eski qadrdonim kabi salomlashdi.

Qiz uning jiyani ekan, dedi Anna.

Pochtmeyster bilan gaplashib olishga ahd qildim.

Lekin ikki hafta o'tsa ham unga ro'para bo'lishga jur'atim yetmadi. Men unga aytadigan gaplarimni ham pishitib qo'ygandim: „Muhtaram janob Pochtmeyster! Sizning ko'zlarингiz ham, temir tepkilaringiz ham, hatto uzun shimingiz ham menga yoqadi. Lekin jiyaningizni sevaman. Manglayimga bitilgan farishta ayni sizning jiya-

ningiz ekaniga imonim komil. Do'stim Avel kabi men ham o'z sevganimni qo'ldan chiqarishni istamayman". Shunday deb do'stim Avel boshdan kechirganlarni gapirib beraman.

Pochtmeyster tabassumdan yuzi yorishgancha o'rnidan qo'zg'aladi va uning temir tepkilari tajribasiz o'quvchining qo'lidagi kumush cholg'u asbobiday jiringlab ketadi.

Uning jiyani esa mening muhabbatimni rad etmaydi va Anna kabi bema'ni savollar bilan boshimni qotirmaydi.

U juda ham ajoyib. Ko'nglini eritadigan so'zlarni, albatta, topaman.

O'zinga pul jo'natish uchun qo'shni shaharga otlandim. Ism-sharifimni ataylab xato yozdim. Qaytib kelib kuta boshladim.

Pochtachi hayajonlangancha meni yo'qlab kirib keldi, chunki ikki yildan buyon pochta orqali hech kim pul olmagan ekan.

Pulni qo'shqo'llab tutqazmoqchi bo'ldi, lekin men uni shashtidan tushirdim:

- Ism-sharifim noto'g'ri yozilibdi.
- Hechqisi yo'q, - dedi pochtachi.

- Har holda tekshirgan ma'qul, - dedim men ikkilanganday. - Pochtmeyster bilan maslahatlashib ko'ring, shu ahvolda ham pulni olaversam bo'larmikan?

Shundan keyin janob Pochtmeysterning huzurida o'n yoki o'n besh daqiqa qolib ketdim. Lekin faqat nomimga kelgan pul haqida gaplashdik. U pul aynan menga kelganiga sira ham shubha qilmasligini aytdi. Bu shaharchada bunday ism-sharifli boshqa odam yo'q, dedi.

– Shahrizimiz haqiqatan ham mo'jaz qo'rg'onchaday, – dedi Pochtmeyster menga iltifot ko'rsatganday. Nazarimda, ko'nglimni ovlash uchun: „Bu yerda ism-sharifi siznikiday chiroyli boshqa odam yo'q“, deganday bo'ldi.

Uning temir tepkilari kumush cholg'u kabi ohista jiringladi, hammasi aynan men taxmin qilganday bo'ldi. Faqat derazadagi qiz haqida gap ochilmadi.

Ko'chaga chiqibоq derazaga nazar tashladim. Derazadan Pochtmeyster qarab turardi. Unga yana bir bor imo qildim, u ham xayrixohlik bilan javob berdi. O'ylashimcha, bu ortga qaytib, qiz haqida gaplashib olish uchun juda qulay fursat edi. Birroq men qulay imkoniyatlardan hech qachon foydalana olmaganman.

Hayotda hammasi – so'zlar ham, voqealar ham eskiradi. Qancha qulay imkoniyatlar bo'lindi deysiz. Zarur barcha so'zlar ham aytildi. So'zlarning takrorlanishiga ham, voqeа qaytalanishiga ham sira tob-u toqatim yo'q. Shunday kezlarda allaqachon urfdan qolgan kamzulni kiyganday o'zimni noqulay sezaveraman.

O'sha kuni kechqurun qiz derazada ko'rinnadi. Shaharni tark etishga ahd qildim.

Mehmonxonaga qaytib, narsalarnimni jomadonga joyladim. Anna kirib so'radi:

– Necha kunga ketyapsan?

Butunlay ketayotganimni u xayoliga ham keltingani yo'q.

– Ikki kunga, – dedim men va yolg'on gapirganim uchun biron tukim qilt ham etmadi. Anna-ga yolg'on gapirganimning nima ahamiyati bor?

Derazadagi qiz g'oyib bo'ldi, men esa qulay fur-satni boy berdim.

– Pochtmeyster bilan gaplashdingmi? – so'radi Anna.

– Gaplashganimdan nima foyda, – dedim has-ratimdan chang chiqib. – Anavi qiz ortiq qorasini ham ko'rsatmayapti.

– U, chamasi, betob! – dedi Anna.

– Betob? Nega bunday deyapsan?

– Chunki rostakamiga xasta! Bilmasmidng? U kasal! Sil kasaliga chalingani kamday shol bo'lib qolgan. Shu bois ko'chaga chiqmaydi. Yaqinda o'ladi!

Hamma gapni bir yo'la aytgani uchun nafasi tiqilib qoldi. Biroq har bir kalima yuragimga ket-ma-ket zarba bo'ldi. Hijjalab aytilganday har bir bo'g'in go'yo nashtar kabi bag'rimni tildi.

Annaga qaradim. U sochlari silliq turmaklangan, rang-ro'yi hozirgina hammomdan chiqqanday ko'pchigan holda ro'paramda turardi. „Anna o'lmaydi!“ – degan fikr ko'nglimdan kechdi.

Derazadagi qiz o'ladi! O'ladi! O'ladi!

U bilan hech qachon gaplasha olmayman. Ayni shu bois imkoniyatni boy berdim. Landavur bo'lganim uchun emas, qiz betob bo'lgani uchun imkoniyatni qo'ldan chiqardim.

– Anna, – dedim. – Butunlay ketyapman.

– O'sha qiz betob bo'lgani uchunmi? – so'radi Anna.

– Ha!

– Biroq men sog'lomman-ku! – dedi Anna.

Menga g'olibona nigoh tashladi. Rangi o'chib ketgan, sovuqdan sovuq edi.

– Seni vokzalga kuzatib qo'yaman! – dedi Anna. Birga vokzalga yo'l oldik.

Poyezd keldi, men chiptalar sotiladigan darcha tomon yo'naldim.

Anna titragancha qo'limga yopishdi. Beixtiyor to'xtadim.

– Ketma! – yolvordi Anna.

Qiyofasida g'olibona kayfiyatdan asar ham qolmagandi. Vahimaga tushgan baxtsiz jonivorga, biyday dalada dildiragan sho'rlik olmaxonga o'xshardi.

Temiryo'lchi yaqin kelib dedi: „Muhtaram janob! Xayrli kech! Siz ham hozir keldingizmi? Yoki jo'nab ketyapsizmi?“

– Yo'q! – keskin javob berdim men. – Hozirgina keldim! Va Anna bilan birga shaharga qaytdim.

Kechasi u xlabel olmay betob qizni o'ylab chiqdim. Yaqinda o'lishidan xabar topgandan keyin uning fikr-u zikriga hukmron bo'lib olganimga shubha qilmasdim. Men xayolan uni mahkam tutib turardim, hatto qo'ltiqlab olardim. U qalbim malikasiga aylangandi.

Ko'pdan buyon kasal ekanini qayoqdan ham bilardim. Bundan kuni kecha xabar topdim. U o'ladi, degan fikr ko'nglimdan kecharidi, ko'p o'tmasdan o'ladi. Men eng qimmatli narsasidan bugun bo'lmasa ertaga judo bo'ladigan odamga o'xshardim.

Ertasiga ertalabdan pochta derazasi ostida odimlay boshladim. Pochtmeyster har soatda de raza oldiga kelar, menga ko'zi tushib ajablanardi. Peshinda u uydan chiqdi, men u bilan salomlashdim, u ham ajablangancha salomlashdi. Keyin

soat uchda qaytib keldi, men esa hamon derazanining tagida borib kelardim.

Oqshom payti oyna oldidagi o'z joyimni egaladim. Ro'paradagi bino derazasi ochilib, nihoyat, o'sha qiz paydo bo'ldi.

Yanglishmasam, biroz shoshilibroq uning o'zi birinchi bo'lib salomlashdi. Bugun meni ko'raman deb o'ylamagan ko'rindi, chunki kecha u betob bo'lgan. Men unga uzoq vaqt intiqlik bilan termildim, dilimda to'lib-toshgan barcha dardlarimni nigohlarim bilan izhor etdim.

Basharti, uch kun to'xtovsiz gapirganimda ham bunchalik ko'p gaplarni ayta olmagan bo'lardim.

Men o'zimni ahmoqday his qildim, ustiga ustak yosh boladay hayajonlanardim. Nazarimda, ko'ngil izhorimni u uqib oldi. Qorong'i tushgach, derazani berkitdi; xona ichi chiroq nurlaridan yorishdi, parda tortildi. Yorqin parda ortidan daroz bir odamning siyog'i ko'zga tashlandi. (Bu Pochtmeyster emasdi, chunki uning bakenbardi yo'q edi. Bu odamning umuman soqoli ko'zga chalinmasdi. Balki, uning ukasidir.)

Xiyobonda uzoq sayr qildim. Sochlarini yelkasi uzra shaloladay yoyib olgan ayollar menga peshvoz chiqardi. Ular yo'laklar bo'ylab xafsalasizlik bilan sanqib yurishardi.

Ular sog'lom, o'yladim men. Ular o'lmaydi.

Anna o'zining xonasida ekan. U karavotda yig'lab o'tirardi. Uning qo'llari shalvirab tushgan, holbuki yig'layotgan odam yuzini qo'llari bilan to'sib oladi. Uning yig'isi ezib yog'ayotgan yomg'irni eslatardi, qizig'i, yurakdan yig'lamasdi, aksincha, uning qayg'uli holatida allaqanday

begona bir jihat bor ediki, bu hasratni yashirib ham, ovutib ham bo'lmasdi.

O'sha kechani Anna bilan birga go'yo birinchi visol oqshomiday o'tkazdim. Odam yangi sotib olgan narsasini, odatda, mana shunday avaylaydi, unga bor mehrini baxshida etadi.

Ertasiga mazkur shaharda qismatimga bitilgan so'nggi voqeani boshdan kechirdim.

Ertalabdan qahvaxonada kommivoy jer shirinlik yeb o'tirardi. Juda nazokatlari bo'lgani uchun shirinlikni pichog'-u qoshiq bilan shoshilmay tanoval qilardi. Keyin o'rnidan qo'zg'alib, taqvim oldiga keldi va Bugun yangi sanani bunyodga keltirayotgan qudratli Parvardigorday qat'iy va mag'rurona kechagi kun varag'ini yirtib oldi.

Men Pochtmeystering kelishini hayajon bilan kutardim.

Pochtmeyster o'nlab yillar mobaynida o'tgan kun varag'ini yirtib, yangi kunni boshlab berardi. U bu ishni Tangri kabi emas, balki uning mo'min bandasiday ehtiyotkorona va itoatkorona ado etardi. Bugun u taqvimga ajablanib tikiladi, kunlar-u sanalarda yanglishib, olamni anglay olmay qoladi.

Shu bois yirtib olingan varaqni qo'llimga olib tekisladim va yana taqvimga qistirib qo'ydim.

Kommivoyajer menga yuzlandi:

– Meni afv etasiz, biroq bugun yigirma sakkizinch may!

U sanani shu qadar qichqirib aytdiki, qo'rqib ketdim. Albatta, bu hammaga ayon edi, biroq men kommivoyajer allaqanday sir-u asrorni surbetlik va qo'pollik bilan fosh qilganday seskanib ketdim.

Yigirma sakkizinch may!

Ayni shu pallada minoradagi soat yetti yarimga zang urdi, va Pochtmeyster temir tepkilari ohista jiringlagancha kirib keldi. Janob Pochtmeyster tantanavor ravishda taqvim oldiga bordi va yangi kunni ochdi. Faqt shu lahzadan yigirma sakkizinchi may boshlandi!

Yigirma sakkizinchi may mening hayotimdagи muhim sanalardan biri bo'ldi. Gap shundaki, men jo'nab ketishga ahd qildim.

Bu shaharda qolib nima ham qilardim? Derazada ko'rinish beradigan qizning sanoqli kunlari qolgan. Annaga achinardim, ko'ziga tik qarashga ham yuragim dov bermasdi, biroq uning ko'nglini ovlash ham qo'lidan kelmasdi. Pochtachini ham, Pochtmeyster etiklarining temir tepkisining kumushday jiringlashini ham allaqachon yaxshi bilib olgandim. Ket har kuni ertalab derazasini odatdagiday ochaveradi, uning yonidan o'tib, salomlashmasam osmon uzilib yerga tushmaydi. Buning ustiga yigirma sakkizinchi may kelgandi. Yigirma sakkizinchi may! Bunday sanada odam qiladigan ishini juda yaxshi bilishi kerak.

Tez orada vafot etadigan va men biron marta ham bo'sa olmaydigan qizning derazasi ostida har kuni telbaday sanqishim kulgili emasmi axir, deb o'ylardim. Axir, ortiq hovliqma o'smir emasman, har bir kunning qadriga yetishim kerak, vaqtini behuda sarflash – gunohi azim.

Ba'zan yirik shahar tushimga kirardi. Bu yanglishmasam, Nyu-York edi.

Uyqudan uyg'onib, men bu shaharning tarkibiy qismi emas, balki bor-yo'g'i kulgili shaharchaning kulgili odami ekanimni his etib ajablan-

dim. Aslida ham kimman? Deraza ostidagi oshiqi sodiq. Birodar, dedim o'zimga o'zim, so'nggi kunlarini yashayotgan qizni unut, u shundoq ham o'lim to'shabida yotibdi, nihoyat chinakam hayotga mardonavor yuz tut. Hayot – muqaddas. O'sha qizning uyiga qatnab, kunlarni uning to'shagi yonida o'tkazish, oqshomlari esa derazaning yoniga joylashib olgancha izhori dil qilish, balki, hikmatdan xoli emasdир.

Biroq hayot – muhim.

Men o'zimga shu asno tanbeh berarkanman, ko'nglimni chulg'ab olgan g'ussa nolasini nainki bo'g'ishga urindim, balki shafqatsizlarcha bo'g'izladim.

Men o'zim kelgan, butun shahardagi yolg'iz faytonda vokzalga yo'l oldim. Annaga indamay qo'ya qoldim. Choshgoh. Oftob olam uzra oltin yog'dular sochardi. Vokzal bahaybat sarg'imtil mushukday oftobda toblanib yotardi. Relslar olislarga uloqib ketgan, zaminni metin quchog'iga olgandi.

Pochtachi esini yo'qotguncha ichsa ichavermaydimi! Pochtmeyster temir tepkilarini jiringlatib, kommivoyajer esa upa hidini anqitib yuraversin. Anna unga ma'shuqa bo'la qolsin.

Derazadagi qiz-chi?

„O'lmasa battar bo'lmaydimi!“ – shunday deya uyalmay to'rt mucham sog' ekanidan quvondim ham.

Keyingi haftada meni nima jin urdi? Do'stim Avel shunchalar ham ta'sirchanmi? U kabi qandaydir bir juvonning hajrida kuyib, o'zim orzu qilgan Nyu-Yorkni hech qachon, hech qachon tark etmagan bolardim.

Nihoyat, aynan Nyu-Yorkka otlanaman.

Hushtak ovozi xayolimni bo'ldi. Vokzal navbat-chisi qizil shapkasi bilan perronga chiqdi. Unga nihoyatda go'zal bir qiz ergashib kelardi. Bu o'sha, o'sha – derazada ko'rinish beradigan qiz!

– Biroz kutib tur, – dedi unga navbatchi. – Ho-zir kelaman.

Biroq qiz uning gaplarini eshitmadni. Biz bir-birimizga tikilib qoldik. Qomati sarvday ravon. Chappar urib gullagan olchaday oppoq ko'ylakda. Na sil, na shol – soppa-sog'. Temiryo'lchining qaylig'i yoki xotini bo'lsa kerak.

Poyezd qo'zg'aldi va men ko'zlarimni qizning nigohidan uzmay qo'l silkidim. Ayni mana shu sir-sinoat to'la nigoh sharafiga shu hikoyani yozdim.

Kupeda yig'lab yuborguday haykal kabi qotib o'tirardim. Chalg'ish uchun derazadan qaradim: cho'pon dalada itning ketidan quvib yurar, strelka-chi temiryo'l ko'tarmasi yonida uzala tushib yotar, xotini choyshablarni dorga ilar, qo'ng'izday mitti yuk mashinasi esa o'nqir-cho'nqir bo'ylab silkina-silkina ketib borardi.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **OYNI OLIB BERING!**

*Kattalar uchun ertak*

Qadim o'tgan zamonda, olis dengiz tomonda bir Qirol yashagan ekan. Qirolning Leonora ismli qizi o'n yoshga to'lib, o'n birga qadam qo'yibdi.

Malika kunlarning birida xo'jag'at qiyomidan ko'p yeb qo'yib, kasal bo'lib qolibdi. Oqibat ko'r-paga burkanib yotib olibdi va uni davolash uchun Qirollik Tabibini boshlab kelishibdi. Tabib avval Malikaning haroratini o'lchabdi, keyin tomir urishini eshitib ko'ribdi, nihoyat tilini ko'rsatishini so'rabi. Qirollik Tabibi xavotirga tushib qolibdi. Darhol Leonoraning otasi, Qirolga odam yuboribdi.

– Nimani xohlasang, hammasini muhayyo qilaman, – debdi Qirol Malikaga. – Ayta qol, qizalog'im, ko'ngling nima tusaydi?

– Oyni olib bering, – javob beribdi Malika. – Oyni olib bersangiz, darrov tuzalamana.

Qirolning ko'plab donishmandlari bo'lib, ko'ngli nimani tusamasin, ular darhol barchasini muhayyo qilar ekan. Binobarin, qiziga ko'ngling xotirjam bo'lsin, senga oyni olib beraman, deb va'da qilibdi.

Qirol taxtda savlat to'kib o'tirgancha qo'ng'iroq ipini uzun-uzun uch marta, qisqa qilib bir marta tortibdi – ko'p o'tmay huzuriga Lord Obergofmeyster kirib kelibdi.

Lord Obergoftmeyster tarvuzday baqaloq ekan. Ko'zoynagi ham qalindan qalin bo'lgani uchun ko'zlar iki baravar katta ko'rinarshan. Natijada, Lord Obergoftmeyster odatdagidan iki karra aqlliroq tuyularkan.

– Menga oyni olib berishingni istayman, – debdi Qirol. – Malika Leonora betob bo'lib qoldi va oyni olib berishimni so'rayapti. Oyni olib bersam, sog'ayib ketadi.

– Oyni? – hayratdan qichqirib yuboribdi Lord Obergoftmeyster ko'zlarini yana ham katta-katta ochib. Natijada, to'rt karra aqlliroq qiyofa kasbetibdi.

– Ha, oyni, – debdi Qirol. – Oyni! Uni bugun kechgacha, uzog'i bilan ertagacha olib kel.

Lord Obergoftmeyster peshanasini dastro'moli bilan artib, burnini qattiq qoqibdi.

– Ummim bo'yli, Hazrati oliylari, men siz uchun son-sanoqsiz narsalarni topib berdim, – debdi u. – Darvoqe, sizga turli davrlarda topib bergen narsalarimning ro'yxati kutilmaganda yonimda ekan-a. – U shunday deb uzundan uzun qog'oz o'ramini chiqaribdi. – Men siz uchun fil suyagi, maymunlar va tovuslar, dur-u yoqtular, zumradlar va javohirlar, pushtirang fillar va moviyrang jingalak yungli itlar, tilla qo'ng'izlar, qahrabodan yasalgan pashshalar-u hasharotlar, hurlarning qanotlari, to'tilarning tillari, bir shoxli otlarning shoxlarini; pahlavonlar, liliputlar va suv parilari; maddohlar, menestrellar va raqqoslarni topib bergenman; qolaversa, yarim kilogrammcha yog', yigirma to'rtta tuxum va bir qop shakar... afv etasiz, keyingilarini xotinim qo'shib qo'yibdi.

- Moviyrang jinglagak yungli itlarni negadir eslay olmayapman, - e'tiroz bildiribdi Qirol.
- Ro'yxatda aynan „moviyrang jingalak yungli itlar“, deb yozilgan. Oldim, deb imzo ham qo'ygarsiz, - debdi Lord Obergoftmeyster.
- Mayli, olgan bo'ssam, olgandirman, - debdi Qirol.
- Hozir esa menga oy kerak.
- Sizning istaklaringizni bajo keltirish uchun, Hazrati oliylari, hatto Samarcand-u Buxoroga, Arabiston-u Habashistonga ham odam yuborganman, - debdi Lord Obergoftmeyster. - Biroq oy haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Zotan, oy 75 ming chaqirim olisda joylashgan, u Malika yotgan xonadan ham katta. Qolaversa, oy - eritilgan misdan yasalgan.

Qirol g'azab bilan Lord Obergoftmeysterga, ko'-zimdan yo'qol, deb qichqiribdi. Zuzuriga Qirollik Sehrgarini yuborishni buyuribdi. Qirollik Sehrgari otga o'xshaydigan cho'zinchoq yuzli ozg'in kishi ekan. Boshida yulduzlar shakli bilan to'la terakday qirrador kuloh bo'lib, egniga tillarang boyqushlar rasmi tushirilgan uzundan uzun ko'm-ko'k yomg'irpo'sh kiyib olgan ekan. Qirolidan qizi uchun oyni olib berish kerakligini eshitgani hamono bechora Sehrgar vahimaga tushib rangi dokaday oqarib ketibdi.

- Men o'z vaqtida, Hazrati oliylari, siz uchun juda ko'p mo'jizalar sodir etganman, - debdi Qirollik Sehrgari. - Men siz uchun sodir etgan barcha mo'jizalarning ro'yxati, sira kutilmaganda yonimda ekanini qarang-a. - Qirollik Sehrgari ham yonidan uzundan uzun qog'oz o'ramini chiqaribdi.

– Mana, eshiting. Men sholg'omni siqib qon olganman, qondan esa sholg'om paydo qilganman. Shoyi qalpoqlar ichidan quyonlarni chiqarganman, quyonlarni esa shoyi qalpoqlarga aylantirganman. Men hech narsadan gullar, childirmalar va kabutarlar yaratganman hamda gullar, childirmalar va kabutarlarni hech narsaga aylantirganman. Yalmog'izlar, ins-u jinslar va qorong'i kechalarda sakraydigan balo-qazolardan saqlanishingiz uchun men hushtak, ituzum va burgutning ko'zyoshidan maxsus sharbat tayyorlab bergenman. Sizga so'laqmonday g'aroyib etik va sehrli qalpoqcha bergenman. Mening sharofatim bilan qo'lingiz tekkan narsa oltinga aylanadigan boldi.

– Sehrli qalpoqchang naf bermayapti, – debdi Qirol. – Uning nimasi sehrli?

– Yo'q, u rostakam sehrli qalpoqcha, – e'tiroz bildiribdi Qirollik Sehrgari.

– Yo'q, sehrli emas, – gapni cho'rt kesibdi Qirol. – Uni kiyib yurganimda turli narsalarga haliyam qoqilib ketyapman.

– Bu qalpoqning xosiyati – sizni ko'zga ko'rinxmaydigan qilishdan iborat, – tushuntiribdi Qirollik Sehrgari. – U yo'lingizdagi turli to'siqlarni bartaraf qilolmaydi...

– Sehrli qalpoq bo'lganidan keyin bartaraf qiliishi kerak, – o'z gapida turib olibdi Qirol.

Qirollik Sehrgari yana ro'yxatga tikilibdi:

– Men sizga Afsonalar o'lkasidan sibizg'alar, Rivoyatlar diyoridan qumlar va kamalakdan oltin olib bergenman. Shuningdek, bir g'altak ip, bir shoda igna hamda bir bo'lak mum... bir qoshiq

qonimdan keching, bularni xotinim ro'yxatga tirkab qo'yibdi...

– Hozir esa oyni olib berishingni istayman, – debdi Qirol. – Malika Leonora oyni olib berishimi ni xohlayapti. Oyni olib bersam, u yana tuzaladi.

– Oyni hech kim olib berolmaydi, – debdi Qirollik Sehrgari. – u bizdan 150 ming chaqirim nara da, ko'kimir pishloqdan qilingan, ustiga ustak mana shu qasrdan ikki hissa katta.

Qirolning g'azabi yana qaynab-toshibdi, Qirollik Sehrgarini qafasday g'origa haydab solibdi. So'ng bong urib, Qirollik Hisobdonini talab qilibdi.

Qirollik Hisobdoni kaltabin bo'lib, hamisha kallapo'sh kiyib yurarkan. Har doim ikki qulog'iga ikkita qalam ham qistirib olarkan. Qora kamzuliga esa oppoq qilib raqamlar yozib tashlangan ekan.

– 1907-yildan buyon men uchun nimalarni hisoblab berganiningning uzundan uzun ro'yxatini eshitmoqchi emasman, – deya gap boshlabdi Qirol. – Menga darhol Malika Leonora uchun oyni qanday olib berishni hisoblab bergen. Oyni olib bersak, u tuzaladi.

– 1907-yildan buyon siz uchun hisob-kitob qilib berganlarimning hammasini eslatganiningiz uchun juda minnatdorman, Hazrati oliylari, – deb ta'zim qilibdi Qirollik Hisobdoni. – Ularning ro'yxati sira kutilmaganda o'zim bilan birga ekan.

U ham yonidan uzundan uzun qog'oz o'ramini chiqarib, ro'yxatga tikilibdi.

– Eshiting, Hazrati oliylari! Men ikkilanishlar shoxlari orasidagi masofani, kun va tunni, A va

Zni siz uchun hisoblab berganman. Yuqori qanchalar balandlikda ekani-yu naridan nariga qancha vaqtida yetish mumkinligini hamda ketdi qayyoqqa g'oyib bo'lganini hisoblab chiqqanman. Men dengiz ilonining uzunligi va bebahoning narxini kashf qilganman. BIZ hosil bo'lishi uchun qancha MEN kerakligini ham bilaman. Agar siz uchun qiziqarli bo'lsa, dengiz tuzi bilan 781796132 ta qush ovlasa bo'ladi.

– Hammasini sanaganda ham shuncha qush chiqmasa kerak, – debdi Qirol.

– Men shuncha qush bor deganim yo'q, – javob beribdi Qirollik Hisobdoni. – „Agar dengiz tuzi bo'lsa...“, deganimni unutmang.

– Son-sanoqsiz qushlar to'g'risidagi safsatangi ni yig'ishtir! – dag'dag'a qilibdi Qirol. – Malika Leonora uchun menga oy kerak.

– Oy bizdan 300 ming chaqirim narida, – debdi Qirollik Hisobdoni. – U tangaday yumaloq va yapaloq, toshpaxtadan qilingan, o'lchami esa qirrolligimizning yarim maydoniga teng.

Qirolning yana qahri qaynab-toshibdi va Qirollik Hisobdonini quvib chiqaribdi. Keyin Saroy Masxarabozini chaqirtiribdi. Masxaraboz qiziqchilarning qirqyamoq kamzuli va qo'ng'iroqchalar qadalgan qalpog'ida echkiday sakragancha kirib kelibdi-da, taxtning poyiga o'tirib olibdi.

– Xizmatingizga tayyorman, Hazrati oliylari! – ta'zim qilibdi Saroy Masxaraboz.

– Hech kim xizmatimni uddalay olmayapti, – debdi Qirol alam bilan boshini qay toshga urishi bilmay. – Malika Leonora oyni olib berishimni xohlayapti, toki oyni olib bermas ekanman,

u tuzalmaydi, lekin mening qizim uchun oyni olib beradigan mard topilmayapti. Qolaversa, men odamlardan oyni so'raganim sayin tobora yiriklashib, tobora bizdan uzoqlashib borayotir. Sening qo'lingdan ham hech narsa kelmaydi, mayli, sozingni chalib, qo'shiq aytib bera qolar-san.

– Oyning kattaligi qancha ekan? – so'rabdi Saroy Masxarabozi. – Oygacha masofa-chi?

– Lord Obergoftmeysterning aytishicha, oygacha masofa 75 ming chaqirim bo'lib, hajmi Malika Leonoraning xonasidan ham katta emish, – javob beribdi Qirol. – Qirollik Sehrgarining fikriga ko'ra esa, bizdan 150 ming chaqirim olisda bo'lib, mana shu saroydan ikki baravar katta ekan. Qirollik Hisobdoni esa oy 300 ming chaqirim na-rida, u sizning saltanatingizning yarmicha keladi, deb meni ishontirmoqchi bo'layotir.

Qirollik Masxarabozi sozini ting'illatibdi.

– Ularning bari – donishmand, – debdi u, – shu bois gaplari to'g'ri bo'lsa, ajab emas. Oy – har bir odam o'zicha tasavvur qilganday katta va olis bo'lsa kerak. Binobarin, Malika Leonora uni qanchalar katta va qanchalar olisda deb o'ylashini bilish kerak.

– Bu xayolimga ham kelmabdi, – tan olibdi Qirol.

– Hozir, uning o'zidan so'rayman, – debdi Saroy Masxarabozi.

Malika Leonora uyg'oq ekan, Saroy Masxarabozini ko'rib quvonib ketibdi, lekin juda g'amgin bo'lib, ovozi ham juda zaif ekan.

– Menga oyni olib keldingmi? – deb so'rabdi u.

– Hozircha yo‘q, – javob beribdi Saroy Masxarabozi, – lekin tezda olib kelaman. Ayt-chi, oy juda kattami?

– Yo‘q, – debdi Malika Leonora. – Boshmaldo-g‘imning tirnog‘idan sal kichik, chunki boshmaldo-g‘imni ko‘tarib qaraganimda, oy tamomila ko‘rinmay qoladi.

– Oy juda uzoqdam? – yana so‘rabdi Saroy Masxarabozi.

– U deraza ortidagi katta daraxtdan balandda emas, – debdi Malika, – chunki ba’zida yuqori shoxlarga o‘ralib qoladi.

– Senga oyni olib bergenim bo‘lsin, – va’da beribdi Saroy Masxarabozi. – Bugun kechqurun anavi daraxtning yuqori shoxlariga o‘ralib qolganda, daraxtga chiqaman-da, oyni senga olib kelib beraman.

Daf’atan bir gap esiga tushib so‘rabdi:

– Ha-ya, Malikam, oy nimadan qilingan?

– Shuni ham bilmaysanmi, nodon, albatta, ol-tindan qilingan-da!

Saroy Masxarabozi Leonoraning xonasidan chiqib, Qirollik Zargarining huzuriga yo‘l olibdi. Qirollik Zargaridan Malika Leonoraning boshmaldo-g‘ini tirnog‘idan sal kichik, tangaday yu-maloq tilla oy yasab berishni so‘rabdi. Keyin esa uning talabi bilan Qirollik Zargari Malika bo‘y-niga osib olishi uchun tilla oyga zanjir o‘tkazib beribdi.

– Men nima yasadim-a? – ajablanibdi Qirollik Zargari.

– Sen oy yasading, – javob beribdi Saroy Masxarabozi.

- Oy bizlardan 500 ming chaqirim olisda-ku,
- hayratlanibdi Qirollik Zargari.
- Ustiga ustak shisha shar singari yumaloq bo'lib, bronzadan qilingan.
- Sen oyni shunday tasavvur qilasan, – debdi Qirollik Masxaraboz.

Masxaraboz oyni Malikaga olib borib bergen ekan, uning boshi osmonga yetibdi. Ertasiga so-g'ayib, bog'chada bolalar bilan o'ynay boshlabdi.

\* \* \*

Ertasiga Qirol yana tashvishga tushib qolibdi. U kechqurun osmonda yana oy paydo bo'lshini o'ylab, Malika Leonora uni ko'rsa nima bo'ladi, deb o'zini qo'ygani joy topa olmas emish. Darhol Lord Obergoftmeysterni chaqirtirib, shunday debdi:

– Kechqurun oy chiqqanda, Malika Leonora uni ko'rmasligi uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini qiling.

Lord Obergoftmeyster ko'rsatkich barmog'in chekkasiga tiragancha o'ylab shunday debdi:

– Topdim. Eng yaxshi chora shu. Malika Leonoraga qop-qora ko'zoynak yasab berish kerak. Ko'zoynak shu darajada qora bo'ladi, Malika uni taqib olgandan keyin hech narsani, jumladan oyni ham ko'rmaydi.

Qirolning g'azabi kelib, boshini sarak-sarak qilgancha unga o'shqiribdi:

– Esing joyidami, galvars!

Agar Malika shunday ko'zoynak taqib yuradigan bo'lsa, qoqilib ketadi-da, yiqladi, oqibatda yana betob bo'lib qoladi!

Qirol Lord Obergofmeysterni haydab yuborib, Qirollik Sehrgarini chaqiribdi.

– Bugun kechqurun oy chiqqanida uni Malika Leonora ko'rmasligi uchun oyni yashirish kerak, – debdi Qirol.

– Nima qilish kerakligini juda yaxshi bilaman, – debdi Qirollik Sehrgari.

– Baland-baland ustunlar o'rnatib, qora duxoba pardalar tortamiz. Bu pardalar sirkning gum-bazi singari qasrdagi barcha bog'lar ustini qoplaydi, natijada, kechqurun oy chiqqanda uni Malika Leonora ko'rmaydi.

Bu gapni eshitib, Qirol battar darg'azab bo'libdi, qo'lini qilichday sermab Qirollik Sehrgariga bor zahrini sochibdi:

– Qora pardalar havoni o'tkazmaydi, ovsar!

Havo yetishmaganidan Malika Leonoraning na-fasi qisilib, yana kasal bo'lib qoladi!

Xullas, u Qirollik Sehrgarini ham haydab yuboribdi va Qirollik Hisobdonini chaqiribdi.

– Biz oqshom payti oy chiqqanda, – debdi Qirol, – uni Malika Leonora ko'rmasligi uchun nimadir qilishimiz kerak. Agar sen chinakam donishmand bo'sang, menga darhol shuning hisob-kitobini qilib ber.

Qirollik Hisobdoni avval doira bo'ylab pildirab aylanibdi, so'ng chor burchak bo'ylab odimlabdi va nihoyat bir joyda to'xtabdi.

– Hisobini chiqardim, – debdi u. – Har kuni oqshomda mushakbozlik qilamiz. Kumush favvoralar-u oltin sharsharalar barpo qilamiz. Mushaklar yarqirab, favvora-yu sharsharalar porlaganida xuddi kunduz kuni kabi hamma yoq charog'on

bo'lib ketadi. Shunday qilib, Malika Leonora oyni payqamaydi.

Qirol shu darajada darg'azab bo'libdiki, goh depsinib, goh taxtni mushtlab qichqira ketibdi:

– Mushakbozlik paytida Malika Leonora uxlay olmaydi! Tun bo'yи mijja qoqmagandan keyin yana betob bo'lib qoladi!

U shunday deb Qirollik Hisobdonini quvib chiqaribdi va hafsalasi pir bo'lib, boshini changal-lagancha o'tirib qolibdi.

Boshini yana ko'tarib qaraganda esa tashqarida shom qorong'isi tushib qolgan, olis ufqda yorqin oy gardishi bir tilim qovunday ko'rinish turgan mish.

U vahiga kelib sapchib o'rnidan turibdi-da, Qirollik Masxarabozini chorlabdi.

– Nima qilib berishimni istaysiz, Hazrati olilari? – ta'zim qilibdi Saroy Masxaraboz.

– Men uchun hech kim hech narsa qilib bera olmayapti, – debdi alam bilan Qirol. – Ana, yana oy chiqayotir. Hademay Malikaning darchasidan uning yog'dusi tushadi. O'shanda zanjirlangan oy o'zining bo'ynida emas, balki hamon osmonda ekanini bilib, Malika Leonora yana betob bo'lib qoladi.

Qirollik Masxaraboz qo'lidagi sozining torlari ni ting'illatibdi.

– Sizning donishmandlaringiz bu borada nima deyapti? – so'rabdi u.

– Ular oyni yashirish chorasini topa olmayapti, – deb javob beribdi Qirol.

Qirollik Masxaraboz Qirol yaxshi ko'radigan qo'shiqlardan birini asta kuylabdi.

— Sizning donishmandlaringiz hamma narsani biladi, — debdi u. — Ular oyni yashirishning uddasidan chiqa olmagan ekan, demak, bu ishni qilib bo'lmaydi.

Qirol yana boshini changallagancha oh-voh qila boshlabdi. Kutilmaganda taxtdan sakrab turibdi-da, derazadan oyga ishora qilib debdi:

— Ana, qara! Oy Malika Leonoraning xonasiga ham mo'ralayapti!

Saroy Masxarabozni sozini bir chetga qo'yib, shunday debdi:

— Sizning donishmandlaringiz oy juda ham katta va bizlardan juda ham uzoq deb taklifingizni rad etganda, oyni qanday qilib qo'lga kiritish yo'lini kim aytgandi? Malika Leonora. Bundan kelib chiqadiki, sizning barcha donishmandlaringizdan Malika Leonora aqlliroy ekan, demak, oy bilan bog'liq masalalarini ularning barchasidan ko'ra Malika yaxshi biladi. Shuning uchun buni ham uning o'zidan so'raganim bo'lsin.

Malika oppoq to'shakda, biroq hali uxlaman, osmondagи oydan ko'zlarini uzmay yotardi.

Qirollik Masxarabozni yasatib bergan oy hamon unda edi. Qirollik Masxarabozni juda g'amgin holda, hatto ko'zlarida yosh tomchilari o'ynab astagina shunday debdi:

— Men bir narsani tushuna olmayapman, Malika Leonora. Oyni zanjirlab bo'yningga taqib olgansan. Osmondagи oy qayoqdan paydo bo'ldi?

Malika unga qarab kulib yuboribdi.

— Shuni ham bilmaysanmi, masxaraboz, — debdi u. — Bitta tishim tushsa, o'rniga yangi tishchiqmaydimi, axir?

– Albatta, chiqadi, – uning fikrini ma'qullabdi Saroy Masxarabozi. – O'rmonda yakkashoxning shoxi tushib qolsa, uning manglayidan yana yangi shox o'sib chiqadi.

– Juda to'g'ri, – debdi Malika. – Qirollik Bog'-boni bog'dagi atirgullarni kesib chiqqandan keyin ular yana g'unchalab ochiladi.

– Bu sira xayolimga kelmabdi, – debdi Saroy Masxarabozi, – tun o'tgandan keyin yana kun boshlanadi-ku.

– Oy ham shunday, – debdi Malika Leonora. – Mening nazarimda, butun dunyodagi hamma narsalar shunday xususiyatga ega.

Malika Leonora bu gaplarni deyarli shivirlab aytibdi. Saroy Masxarabozi qarasa, Malika uxlab qolibdi. U uyqudagagi Malikaning ko'rpasini ohista to'g'rilib qo'yibdi.

Lekin xonadan chiqib ketishdan oldin deraza oldiga kelib, oyga qaragan ekan, oy unga ko'zini qisganday tuyulibdi, u ham oyga qarab ko'zini qisib qo'yibdi.

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasি*

## **CHINNIGULLI YIGIT**

– Qo‘rqmang, mademuazel, qo‘lga olinganlar sizni ko‘rmaydi.

Lyusena, aslida, hozircha qo‘rqlayotgandi. Faqat xonani sinchiklab ko‘zdan kechirdi. Ikki politsiyachi ixcham reflektor chiroqlarni devor tomon to‘g‘rilashdi, stullarni olib qo‘yishdi. Qizning ko‘ngli xijil bo‘ldi – mehnat ta‘tili tugashiga bir necha kun qolgan bo‘lsa ham bugun kechqurunoq Barselonadan jo‘nab ketadi. Uch politsiyachining bittasi, qotma, qoramtil Alvaro yasama oliftaligi bilan Lyusenaning ensasini qotirdi.

– Qanchalar shahlo ko‘zlar tikilganini ular hech qachon bilishmaydi!

Shilqim! Qiz qizarib ketdi. Ehtiyyotsizlik qilgani uchun o‘zidan yana bir bor o‘pkaladi.

Yo‘lakdan odamlarning asta gaplashgani, qadam tovushlari eshitildi. Tergov tugamaguncha politsiya mahkamasida ushlab qolishlari ham ehtimoldan xoli emas, u holda poyezdga kechikadi. Lyusena bu shaharni imkon boricha tezroq tark etishga oshiqar, allaqanday xavotir sira tinchlik bermasdi.

– Besh daqiqadan keyin hammasi yakun topadi, – dedi Alvaro.

Nahotki, Lyusena hayajonlanayotganini bildirib qo‘ydi? Keng xonada, to‘g‘rirog‘i kamerada

oyog‘ini chalishtirib o‘tirarkan, qiz erinmay lablarini bo‘yar ekan, pardoz qutichasidagi ko‘zgu bilan politsiyalarni zimdan kuzatardi.

„Keyingi safar tilimga ehtiyyot bo‘laman“, – degan fikr uning ko‘nglidan kechdi.

Hammasi o‘tgan kechasi boshlandi. Iyul tunida dimiqib ketgan Lyusena toza havodan nafas olish uchun balkonga chiqdi. Mehmonxona balkonidan shoh ko‘cha, yarim kecha bo‘lgani uchun deyarli ship-shiydam bo‘lib, ahyon-ahyonda bandargoh tomon yuk mashinalari o‘tib turardi. Qiz den-giz shamoliga yuzini tutib, yengil nafas olarkan, uch haftalik ta’tilning yarmi Tanjerada do‘satlari davrasida ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketganini eslab shirin entikdi.

Daraxtlarning panalarida chopib kelayotgan bir yigit beixtiyor Lyusenaning e’tiborini tortdi. Qiz ermak topilganidan xursand bo‘lib uni kuzata boshladi. Yigit ro‘znomalar do‘koni yonida to‘xtab, qo‘ynidan tezda katta varqa chiqardi-da, yelimlaganidan keyin devorga yopishtirdi. Lyusena xira chiroq yorug‘ida yirik qizil harflar bilan yozilgan „Pueblo“ so‘zini o‘qiy oldi, xolos. Boshqa so‘zlarni bunday masofadan o‘qiy olmadi. Shu pallada qiz churullagan hushtak ovozini eshitdi. Yigit xavotirlanib o‘sha tomonga qaradi. Keyin esa beixtiyor balkonga ko‘z tashladi. Lyusena hurpaygan sochli yigitning yuzini aniq ko‘rdi. Yigit oyog‘ini qo‘lga olib qochdi. Hech qancha o‘tmay tuyulishda paydo bo‘lgan uzun qora mashina chiroqlari porlagancha mehmonxona tomon katta tezlikda yaqinlasha boshladi. Osuda tun bag‘ri darz ketganday bo‘ldi. Mashina ro‘znomalar do‘koni qar-

shisida to'xtadi, politsiya ofitseri varaqqa tomon yugurdi va uni devordan g'azab bilan shilib oldi. So'ng politsiyachilar yigitning izidan tushdi. Olis bandargohdan shatakchi qayiqning sirenasi eshitildi. Lyusenaning eti uchganday bo'ldi va xalatiga o'ralib oldi. Kutilmaganda o'q ovozi yangradi, qizning nazarida, yonginasida qarsillab eshitilganday bo'ldi...

Ertalab umumiy dasturxon ustida qariya kechasi o'q ovozidan uyg'onib ketdim, deya shikoyat qildi. Lyusena tunda ko'rganlarini soddadillik bilan oqizmay-tomizmay gapirib berdi: bir yigit, yashirin guruhning a'zosi bo'lsa kerak, do'koncha devoriga varaqqa yopishtirdi; quvib kelayotgan politsiyachilar unga qarata o'q uzishdi. Davradagilardan hech kim savol bermadi, shuning uchun ortiqcha izohga hojat qolmadi. Davradoshlarining befarqligi Lyusenani ajablantirdi, birpasdan keyin esa hammasini unutdi. Nonushtadan keyin bir soat o'tgach, qiz mehmonxonadan chiqib ketayotganda boshqa politsiyachilar bilan birga Alvaro ham uning yo'lini to'sib, bir necha savol berdi. Lyusena endi o'ylab gapirishi kerakligini angladi, zero, mehmonxona bekasi Ruis ham ko'zini uzmay tikilib turardi. Lyusena yigitning yuzini ko'ra olmadim dedi. „Birinchidan, chiroqning yorug'i juda xira edi, ikkinchidan, hammasi shunchalik tez sodir bo'ldimi, e'tiborga molik biron jihatni eslab qolishga ulgurmadim“, deb aytdi.

Alvaro qizning javobidan qoniqqanday edi, biroq qizga shubha bilan tikildi. Inspektor Lyusenaning xonasiga chiqishi lozim, dedi. Qiz asabiylashib norozilik bildirdi, lekin politsiyachi beka

bilan birga zinapoya bo'ylab ko'tarila boshlagani ni ko'rib ularning ortidan ergashdi. Lyusenaning noroziligi inspektorning e'tiborini tortdi. Alvaro balkonga chiqib, do'koncha va unga tutash ko'-chaga bir necha daqiqa diqqat bilan tikildi. Shu asno hammasi yakun topganday edi.

Lyusena tushdan keyin cho'milishdan qaytganda mehmonxona vestibulida ikkita politsiya-chiga ko'zi tushdi. Ular, chamasi, uni uzoq kutilishgandi, stol ustidagi kuldon chekib tashlangan sigareta qoldiqlari bilan to'lib ketgandi. Alvaro muhrlangan rasmiy qog'ozni ko'rsatganiga qaramay, oldiniga ular bilan birga borishdan bosh tortdi. Lekin inspektor juda nazokat bilan, labidan tabassum arimay qizning qo'llig'idan oldi.

– Arzimaydigan xizmat. Bir necha daqiqa vaqtinuzni ayamasangiz bo'ldi, faqat bitta rasmiy ishni ado etsangiz, bas...

...Daf'atan ikkala reflektor ham porladi, ro'paradagi devor, hatto ko'zni qamashtira boshladidi. Hozirgina yo'lakdan kameraga kiritilgan odamlar ham ko'zlari qamashib nigohlarini olib qochishdi. Ular sakkiz kishi bilan, hammasi odmi kiyingandi. Ayrimplari oshkora hayajonlanayotgani sezilib turardi. Faqat chapdan uchinchi turgan odam hech gap bo'lmaganday o'zini xotirjam tutardi. Manglayi keng, iyagi ixcham yigitni Lyusena darrov tanidi – varaqani yopishtirgan aynan shu edi! Uning saxtiyon kamzulining yuqori cho'ntagidan oppoq chin-nigul chiqib turardi, biroz eskirgan odat bo'lsa ham bu bezak yigitga o'zgacha ko'rк bag'ishlardi. U butun qiyofasi bilan aybdor emasligini, politsiya behuda vaqt sarflayotganini ta'kidlardi.

Ha, bu rostdan ham sochlari hurpaygan, yoqim-toy o'sha notanish yigit edi. Lyusena bilan deyarli tengdosh – yigirma olti-yigirma sakkiz yoshlarda.

Yonma-yon turgan gumondorlar yorqin chiroqqa tik qaray olmay ko'zlarini tez-tez pirpiratardi. Ularning ba'zilari qorong'ilik ichra o'tirgan Lyusenani ilg'ashga urinardi. Qiz xijolat cheka boshladи. Muhimi politsiyalar har bir xatti-harakatini kuza-tib turgan ayni pallada o'zini qo'lga olib, sir boy bermasligi kerakligini tushundi. Asosiysi – devor oldida tik turganlarning har biriga sinchiklab tikilmasligi, hayajonini ham bildirmasligi kerak. Lyusena eng chetda turgan odam tomonga o'girildi va uning yuzidagi qotib qolgan qonni ko'rib, nafasi bo'g'ildi. Politsiyachilarga bularning ichida sizlar izlayotgan odam yo'q, deya sal bo'lmasa baqirib yuborayozdi. Biroq tili kalimaga kelmadi. Ortida turgan politsiyachilar uning fikrini kutishardi. Politsiyalar esa jinoyatchini yaxshi tanib olish uchun qiz ularni sinchiklab ko'zdan kechirayotir deb o'ylab, uni o'zlarining gumashtasi hisoblagan bo'lislari ham ehtimoldan xoli emas. Bu fikr Lyusenaning ko'ngidan kecharkan, eti jimirlab ketdi. Goh unisi, goh bunisi tikilar ekan, qiz gumondorlarning ko'ngidan kechayotgan turli xavotirli fikrlarni ham uqqanday bo'lardi. Faqat cho'ntagiga chinnigul solib olgan yigit hamon xotirjam edi. Yigit Lyusenaga sira e'tibor bermasdi, lekin barcha qatori u ham talab qilingandek, boshini o'ngga o'girib, qo'llarini tushirgancha itoatkorona turardi.

– Xo'sh, – so'radi pakana Alvaro.

– U bularning ichida yo'q.

– Hech birini tanimadingizmi?

Lyusena yelka qisdi. Sal bo'lmasa yig'lab yuboray dedi, biroq butun irodasini ishga solib, o'zini qo'lga oldi. Cho'ntagiga chinnigul solib olgan yigitning hurpaygan sochlari projektorlarning porlagan yorug'i ostida metall qalpoqday tuyuldi.

– Anavi ko'k kiyimli emasmi... yaxshiroq qarang! Alvaro go'lax kiyimidagi jag'lari qovushgan, qarashlari qahrli yigitga ishora qildi.

– Uni ham sizning mehmonxonangiz yonida qo'lga olishgan.

– Aytdim-ku, hech kimni taniy olmayapman.

– Afsus, – dedi alamini arang ichga yutib Alvaro. – Nahotki esingizda qolmagan bo'lsa?

Lyusena bu pakana politsiyachidan nafratlana boshladи. Surbet, yolg'onchi! „Arzimagan rasmiyatçilik“ emish! Bu sharmandali tomosha nahotki shunchaki rasmiyatçilik bo'lsa! Qiz shaxt bilan o'rnidan qo'zg'aldi. Sabr-toqati tugayotgani ni sezdi. Alvaro undan ko'z uzmasdi. Bu massxrabozlik poyoniga yetganini anglatish uchun qo'lga olinganlarga orqa o'girib oldi.

– Bir soniya, mademuazel. Balki, uning yonida turgan kimsadir?

– Anavi qariyami? – Uning chap tomonidagi, ko'kragida gul bor yigit.

– Yo'q, u emas, – dedi Lyusena.

Biroq hayajonini ovozidan bildirib qo'yganini sezib, nafasi ichiga tushib ketdi.

Kameraga azobli sukut cho'kdi, Alvaroning suvuqdan sovuq bo'g'iq ovozi go'yo yerning ostidan kelayotganday eshitildi:

– Qat'iy fikr aytishga oshiqmang. Nazarimda, bu yigitni taniysiz.

Lyusena qo'rqib ketdi. Alvaro pixini yorgan ter-govchi. Guvohlarni ham bulbulday sayratishga ustasi farang bo'lsa ajab emas.

– Hurpaygan sochlari qarang, qorong'i ke-chada ham boshqalar orasidan uni tanib olish hech gap emas, – dedi Alvaro.

Lyusena yana ortga o'girildi. Qo'lg'a olingen sak-kiz nafar odam o'z taqdiri hal bo'lishini kutardi. Ko'krak cho'ntagiga chinnigul taqib olgan yosh yi-git hamon o'zini xotirjam tutar, biroq uning ko'z-larida allaqanday istehzo uchqunlari porlardi... Do'konchaga varaqani u yopishtirganini bilishsa, sheriklarining ism-shariflarini aytishni talab qilib, o'lguncha kaltaklashadi, azoblashadi, keyin esa uzoq muddatga qamoqqa tiqishadi. Lyusena shularni o'ylab dahshatga tushdi.

Yana inspektor tilga kirdi:

– Chamasi, bu yigit boshqalarga qaraganda sizni ko'proq qiziqtirayotir?

Lyusena ilkis cho'chib tushdi. Lekin zo'rma-zo'raki jilmaydi-da, biroz kinoya bilan dedi:

– Meni-ya? Albatta! Qop-qora sochlari mahliyo qildi.

Alvaro ham kului. Lyusena nahotki xato qil-dim, sir boy berib qo'ydim, degan fikrdan vahimaga tushdi. Lekin inspektor xiyol engashib, tag-dor qilib ta'kidladi:

– Bu kelishgan Romeo ertami-kechmi o'z Jul-yettasini topadi...

– Ehtimol...

Lyusena chiqish eshigi tomon yurdi, eshik ol-dida esa ikki barvasta politsiyachi qo'llarini orqa-siga qovushtirib, oyoqlarini keng yozgancha vajo-

hat bilan toshday qotib turardi. Balki, bunda ham bir ayyorlik bordir. Ular o‘z vajohati bilan uning yuragiga vhima solib, biron harakati va ishorasi bilan sirni fosh qilib qo‘yishini xohlayotgandir. Soqchilar unga yo‘l berishdi. Alvaro ham ergashib yo‘lakka chiqdi va quyuq minnatdorchilik bildira ketdi. Lyusena quruq javob qaytardi:

– Minnatdorchilikka arziydigan hech ish qilganim yo‘q.

Ular yop-yorug‘ yo‘lak bo‘ylab yonma-yon ketib borardi. Yorug‘lik yon tomondan tushar, Alvaro ning yuzini nimko‘lanka qoplagani bois qizga yana badjahl, hatto shafqatsizday ko‘rindi.

– Sizga sidqidildan minnatdorchilik bildiryapman. Axir, bizga yordam berish uchun astoydil urindingiz. Umid qilamanki, jinoyatchini tanigan bo‘lsangiz, kimligini nihoyat menga aytasiz.

Alvaro qizdan sal orqada, yo‘lakka yotqizilgan tosh plitalarni qarsillatib, shaxdam qadam tashlab kelardi. Lyusena unga siz qattiq yanglish-yapsiz, demoqchi bo‘ldi. Yuragida qahr-u g‘azabi tug‘yon qildi, biroq so‘nggi lahzada o‘zini bosib, indamay qo‘ya goldi.

– Nahotki indamay ketaversangiz? – hafsalasi pir bo‘lib so‘radi inspektor.

Lyusena taksiga o‘tirib mehmonxonaga keldi va narsalarini shoshilinch yig‘ishtirib, vakzalga yo‘l oldi. Perron gavjum, vakzal radiokarnayidan uzuq-yuluq gaplar eshitilardi.

Vagon hali huvullab yotar, hatto chirog‘i ham yoqilmagandi. Uning kuplesida ham hech kim yo‘q ekan. Lyusena o‘z joyini topib, chiptaga qarab raqamni yana bir bor tekshirdi. Peshtaxtada

nimadir yotar, biroq Lyusena qorong'ida nima ekanini bila olmadi. Avvaliga ajablandi, keyin biroz hayajon bilan chiroqni yoqqandi, bir dasta oq chinnigulga ko'zi tushib, ko'ngli yorishib ketdi.

Yangi uzilgan gullar olovday qizil tasma bilan bog'langandi. Guldastadan bahor nafasi ufurardi. Lyusena shosha-pisha vagon derazasini tu-shirdi-da, perrondagi odamlarni ko'zdan kechira boshladi, lekin, nazarida, unga hech kim e'tibor bermadi. Ikki kampir inqillab-sinqillab vagonga ko'tarildi; askarlar devordan chiqib turgan jo'm-rakka idishlarini tutib, to'dirib olishdi... Qo'shni temiryo'l izlari bo'ylab parovoz sirpanganday de-yarli sassiz o'tib ketdi. Radiokarnay orqali esa kimnidir axtarib behuda chorlashardi. Go'yo kim-sasiz cho'ldagiday...

Lekin bu yer biyday biyobondan tamomila boshqa joy ekani Lyusenaning ko'ngidan kechdi. Nihoyat, yelkasidan tog' ag'darilganday o'zini yengil his qilar, eng muhimi kimningdir g'oyibona mehrini tuyib entikardi. Qo'lida bir dasta chinnigulni ushlagancha poyezd joyidan jilmaguncha vagon derazasidan nari ketmadi...

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **QIYOMAT-QOYIM**

Ba'zi-ba'zida jinim qo'zib qoladi – rosmana qiyomat-qoyim sodir etaman, bu hunarimni qaqshatqich momaqaldirog‘-u ketidan yarqiragan chaqmoqqa o'xshataman.

Xoh ishoning xoh yo'q, biroq haftalab, oylab, hatto yillab ko'nglimda nafrat yig'ilib boradi. Sababini bilmayman, lekin ochiq yoz kunida ufqda paydo bo'lgan bulutlar lashkariday tobora keng quloch yoyib, tobora qudratli kuchga aylanadi. Keyin arzimagan bahona bois nafratim daf'atan portlaydi. Faqat shunday kezlarda aynan kimdan nafratlanayotganimni anglab yetaman; qahrли, ammo adolatli va aniq malomatlarni do'lday yog'diraman, zikr qilayotgan qalandarday jazavaga tushib, butun qahr-u g'azabimni to'kib solaman-u, nihoyat yengil tortaman. Bu go'yo to'fonga o'xshaydi, unga hech kim, eng avvalo, o'zim sira ham bas kela olmayman. Bunday jazavalı holatlarning qaysi biri esingda qolgan, deysizmi? Albatta, o'n sakkiz yoshimda otam bechorani esankiratib qo'yganim. Darvoqe, otam g'aflatizada chekka shaharchalardan birida butun umr mol do'xtiri bo'lib ishlagan. O'shanda dovdirab qolgan onam-u toshday qotib qolgan singillarim va ukalarimning ko'z oldida sal kam uch soat ayyu-

hannos solib tomosha ko'rsatganman. O, o'shanda nimalar demaganman-a!

Ko'nglimga kelgan gaplarning hammasini to'kib solganman. Otamni ham, oilamizni ham, shaharchamizni ham, hatto butun yorug' olamni ham malomatga ko'mib tashlaganman. Ovloq shaharchada siqilib yashash jonimga tegib ketganini, sassiq shaharchada gulday hayotim xazon bo'lishiga yo'l qo'ymasligimni aytib, bundan buyon ham shu ahvol davom etadigan bo'lsa, duch kelgan mashinaga o'tirib qochib ketaman yoki suyuqyoq qizlar safiga qo'shilaman, deb dag'dag'a qilganman. Ularning zerikarli bag'ri kengligi-yu machshanlarga xos sipoligidan bezor bo'lganimni baralla aytib, bularning barchasi menga begona, men sho'x-shaddod hayot kechirishni istayman, deb qichqirganman. Afsuski, andishani tamomila unutib, otamning ham, onamning ham yuziga tik qarab, ularning nainki axloqiy, hatto jismoniy nuqsonlarini ham ko'rishga ko'zim yo'q ekanini ovoza qilganman. Aytmagan gapim qolmagan! Quyunday qaynab-toshganman, desam ishonaving. Zotan, quyun ham yo'lida uchragan jamiki xas-xashaklar-u jirkanch latta-puttalarni uchirib, olis-olislargal uloqtiradi. O'n sakkiz yoshimda jazavaga tushishim nima bilan tugadi? Albatta, bo'shimga balo orttirdim. Ota-onamning ko'ziga tik qaray olmay, qolaversa, oldingiday hayot kechirish uchun sabr-toqatim yetmasdan erga tegdim. Dastlabki duch kelgan kimsaga. Sezib turibman: men jazavaga tushadigan soniya tobora yaqinlashardi, zero, cherkovda nikohdan o'tayotganimzda ruhoniyning savoliga yuragim orziqib „ha“

deya javob bergen lahzadan e'tiboran bulutlar quyuqlasha boshlagandi.

Mana, mening manglayimga bitilgan kuyovo-to'ra! Nihoyatda did bilan bezatilgan shohona xonadonimizga zamonaviy o'rindiqlar-u divanlar oralab kirib kelayotir, ayanchli, ko'rimsiz, dardi bedavo; tayini yo'q idoraning yugurdagi yoki mahmadona oqlovchiday to'q kulrang kastum kiyib olgan; to'rtko'z, yaltirbosh, albatta, chekkalarini qirtishlamagan, navbatdagi uzoqdan uzoq qarindoshiga motam tutib, bilagiga qora tasma bog'lab olgan; bo'yinbog'i ham qora, hatto dastro'molining hoshiyasi ham qora.

Lapanglab odimlayoutotir – balki, oyoqlari qiyshiq bo'lgani uchun ayiqday maymoqlanib yurayotgandir! Qo'lida bir dasta gazetalarni g'ijimlab olgan. Gazetalarga ko'zim tushgani hamono jinim qo'zidi. Yuragimda ko'pdan buyon yig'ilib qolgan zahrimni to'kib solish fursati yetdi. Ilonday bor zahrimni sochdim.

– Yana la'nati gazetalarga yopishdingmi?! O'qiyverib ko'zlarining teshilib ketmadimi! Ularning soni bor, sanogi yo'q. Rim gazetalari, Milan gazetalari, kamiga Xudo urgan mana shu shaharda chiqadigan gazetalar! Bu jirkanch gazeta sahifalaridan nimani axtarasan o'zi! Ko'ngling xotirjam bo'lsin, gazetalarda sen haqingda ham, men haqimda ham hech qachon hech vaqo yozishmaydi! Men tekingga berishsa ham qo'limga olmayman. Gazetalarni rosmana hayot kechirayotganlar, hayot qozonida chinakamiga qaynayotganlar o'qiydi, sen bilan bizning turmushimizni esa hayot deb bo'lmaydi. Shu ham hayot bo'ldimi? Biz yashayotganimiz

yo'q, shunchaki kun kechiryapmiz, xolos. Binobarin, bizlarga gazetalarning nima keragi bor?!

Xunukdan xunuk erim ro'paramda aftoda ahvolda turgancha kattadan katta ko'zoynagi osha menga tikiladi. E'tiroz bildirish uchun og'iz juftlaydi, men esa og'zini ochgani ham qo'ymayman.

– Umuman, hammasini oydinlashtirish fursati yetdi: jonioqga tegib ketding, bunday turmushdan bezor bo'ldim, ortiq zarracha ham sabr-u toqatim qolmadi. Inkor etmayman, qiymati yarim milliard turadigan xonadonimiz bor, har birining vazni yuz kilogrammdan ortiq tosh bosadigan, narxi ham milliondan kam bo'limgan jihozlari-miz ham bisyor! Biroq bu hashamatli xonadonda nima karomat ko'rsatyapmiz? Deyarli hech qanday. Faqat oilaviy turmush kechiryapmiz, xolos. Darvoqe, oila muqaddas, oila! Nihoyat, oila bilan bog'liq gaplarni ham aytishim shart! Oil desa, joningni ham berasan, marhamat, biroq nima uchun meni ham shunday qilishga majburlaysan?! Yarim milliardlik mana shu xonadonda men sho'rpeshana faqat sening qavm-u qarindoshlar-ringni xizmatini qilish bilan band ekanimni hech o'ylab ko'rganmisan? Meni kechirasani, lekin bor gapni aytishga majburman: yomon qovunning urug'i ko'p bo'lganday, qarindosh-urug'laringning son-sanog'i yo'q! Oila-oila emish. Ha, oilaning qadrini men bilmayman, yetimxonada o'sganman! Aka-ukalar-u opa-singillar, kuyovlar-u qayin ega-chilar, amma-xolalar-u amaki-tog'alar, o'g'il-u qiz jiyan-u jiyanchalar shunchalar ham ko'p bo'ladimi, axir! Ustiga ustak hamma-hamasini erta-yu kech ovqatlantirish ham mening zimmamda!

Bunday oilani yer yutsin, iloyim! Har kuni butun oqshom yalmog'izdan farq qilmaydigan qari onang-u alvastiday qariqiz singling bilan televizor ko'rishga mahkumman! Qaynonamning xizmatini qilganim kamday, qayinegachim bilan muzeylarda kartinalarni tomosha qilishim, biron narsa ham xarid qilmasdan do'konma-do'kon kun bo'y sang'ishim kerak. Darvoqe, qimmatbaho kiyimkechaklar-u mo'ynalarning menga nima keragi bor, sening urug'-aymog'ing oldida o'zimni ko'zko'z qilishim uchunmi?

Erimga ham jin tegdimi? Qo'lidagi gazetalar tushib ketdi, cho'ntagini paypaslab, qo'li qaltiragancha sigareta cheka boshladi. Yaqinlaridan birontasi ham u bilan bunday ohangda gaplashmasligini yaxshi bilaman, lekin men quyushqondan chiqib bo'lgandim, shu bois oshkora ranjigani nainki jahlimni tiydi, balki yana ham alanga oldirdi:

- Ha, mening sha'niga tirnoqcha ham dog' tushmagan ajoyib oilam bor. Dindorlik bobida ham sizlarga hech kim bas kela olmaydi. Tangriga jon-jahdingiz bilan sig'inasiz; Tangrini ham, Iso Masihni ham, Bibi Maryamni ham, aziz-avliyolarning hamma-hammaсини ham o'zlashtirib olgansiz. Muqaddas qadamjolar ziyoratini ham kanda qilmaysiz. Ertadan kechgacha tilovat qilib zerikmaysiz, shohona xonadon emas, ibodatxonaning o'zginasi! Bu g'ayrioddiy ibodatxonada yo'q narsaning o'zi yo'q: aziz-avliyolarning suratlari-yu haykalchalari ham, Lurdadan keltirilgan tasbehlar ham, Quddusi Sharifdag'i muqaddas buloq suvi bilan to'latilgan shisha idishlar ham istagan-

cha topiladi. Ruhoniylarning dastxatlari-yu duolari bitilgan fotosuratlarini aytmay qo'ya qolay. Men xudojo'y emasman, bildingmi, dahriyman, dahriy! O'z uyimda faqat ota-onamning hurmati uchungina cherkovga qatnardim, qolaversa, biz u yerga faqat yakshanba kunlari borardik. Bu yerda esa uzzukun kallayi sahardan ibodat boshlanadi!

Erim sigaretani bosib-bosib tortadi-da, menga tikiladi, menga tikilgancha bosib-bosib sigareta tutatadi. Men uni bunday qiyofada hech ko'rma-gandim, vajohatidan biroz qo'rqa boshladim, biroq bulutlar quyuqlashib bo'lgan, momaqaldiroq hamon qarsillar, so'nggi chaqmoq esa hali yarqi-ramagandi:

– Benuqson oilaviy turmushimizda, bilasanmi, ayniqsa, nima jonimga tekkan? Sizlarning xufiyona pichir-pichir qilishlaring! Men italyan qiziman, ona tilim – italyan tili, biroq sizlarning gaplarin-gizni sira ham tushuna olmayman. Nimalar ha-qida shivir-shivir qilasizlar, o'lay agar bilmayman. Sarmoya sarflash haqidami? Italiya va Shveysariya banklaridagi jamg'armalaringiz to'g'risidami? Aksiyalar, obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar, quy-ma va tanga oltinlar haqidami yoki? Sen ishbilar-mon ekaningni bilaman, ko'p daromad qilishing ham ehtimoldan xoli emas, biroq bular mening oldimda menga tushunarsiz tilda gaplashish uchun bahona bo'la olmaydi. Nimadan qo'rqsiz-lar? Chet ellardagi sarmoyalaringiz bilan bog'liq sirni fosh etishimdanmi? Yoki seyfning kalitini o'g'irlaydi, deb mendan xavfsiraysizmi? Bu sirli pichirlashlarning, men tushunmaydigan sheva-da gapirishning nima keragi bor? Ha, men kam-

bag‘al oiladanman, biroq o‘zimga yarasha oriyatim bor, sening sariq chaqangga zor emasman. Tupurdim hamma pulingga! Binobarin, mening oldimda istagancha italyan tilida suhbatlashib, qo‘lga kiritilgan daromad-u foizlar haqida istagancha safsata sotaveringlar, sizlarning gaplaringizga parvo ham qilmayman, eshitmayman ham!

U xonaning adog‘idagi stolga yaqinlashdi, endi cheka boshlagan sigaretasini kuldonga bosib o‘chirdi, shoshilmay men tomon qaytdi va qo‘llarini kamzulining cho‘ntaklariga tiqqancha ro‘paramda to‘xtadi. Ayni pallada butun kuchimni to‘plab oxirgi zarbani berishga chog‘landim:

– Nihoyat, betga aytganning zahri yo‘q: sen mening didimdagи odam emassan, boylik desa tashlaysan, urf-odatlarga yopishib olgansan, bundan tashqari, o‘ta jiddiysan. Hatto odamga o‘xshab kiyinishni ham bilmaysan. Seni ko‘rgan odam motam mahkamasida ishlaydi, deb o‘ylaydi! Nahotki ko‘cha-ko‘yda yoshlар qanday kiyinishiga e’tibor bermasang? Jinsilar, ohori ketmagan ko‘ylaklar, bejirim shippaklar! Soqollari o‘zlariga yarashadi, yelkalarida uzun sochlari to‘lqinlanadi, qo‘llarida hamisha gitara! Anqov opa-singillaringdan boshlab dumbul aka-ukalaringgacha butun urug‘-aymog‘ing ham, o‘zing ham yumshoq supuridan farq qilmaysiz. Gap kelganda otangni ham ayama, deyishadi, nihoyat, hech kimga aymagan sirimni senga oshkor qilaman: bilasanmi menga qanday erkak yoqadi? Ha, ha, juda to‘g‘ri topding: aynan Alen Delonga o‘xshagan erkaklar. Ayniqsa, qaroqchi, o‘g‘ri, talonchi, xullas, jinoyatchi rolini ijro etganda. O‘shanday erkakni orzu

qilaman: kelishgan, jasur, hech kimdan, hech qachon qo'rqmaydi, biron xavf tug'ilgani hamono – to'pponchasiga yopishadi; hayoti bamisoli afsona.

Oh, Alen Delon! Oqshomlarni qahvaxonalarda, shohona mehmonxonalarda aysh-ishrat bilan o't-kazadi, Parijdan Nyu-Yorkka, Nyu-Yorkdan Rio-de-Janeyroga, Riodan esa Parijga parvoz qiladi. Oilaga tish-tirnog'ing bilan yopishib olib, xudojo'ylig-u zerikarli xulqing bilan nimaga erishding: sening jufti haloling qaroqchining xotini bo'lishni orzu qilayotir.

Nihoyat, butun qahrimni sochib bo'ldim. Lekin nimagadir qo'rqa boshladim. Gap shundaki, erim ham tamomila boshqacha, teshib yuborguday, hatto vahshiyona tikilardi. U shoshilmasdan ya-qinlashib, cho'ntagidan bir qo'lini chiqarib, yuzimga shunday ketma-ket tarsaki tushirdiki, hatto oyog'ining ostiga olib tepkilaganda ham bunchalik alam qilmagan bolardi. Uning zarbalaridan keyin qanday yiqlilib tushmaganimga hayronman, men undan ko'z uzmay jon-jahdim bilan chinqirdim – nazarimda, uni birinchi marta ko'rib turganday edim, – dahlizga qarab otildim, keyin zinadan pastga uchib tushdim. Ko'chaga chiqqanimdan so'ng qadamimni sekinlatib uyimizga yaqin xiyobon tomon odimladim.

Maysazorda bolakaylor o'ynardi, uning atrofiga o'rindiqlar qo'yilgan. Bo'sh o'rindiqqa joylashib, fikrlarimni jamlashga urindim. Lekin hamon ikkala yuzim ham lovullar, hech o'zimni bosa olmasdim. Yonimda odamlar sayr qilib yuribdi, ularning oldida ko'zyoshi qilish uyat. Kimdir o'rindiqda gazeta qoldirib ketibdi, uni qo'lga

oldim-da, o'zimni zo'r berib o'qiyotganday tuta boshladim. Ko'zyoshlarim nigohimni to'sar, gaza-ta sahifasiga tomardi.

Keyin tuman asta-sekin tarqadi, nazarimda, o'zimga kelgandim. Kutilmaganda, gazetaning birinchi sahifasidagi tanish chehra e'tiborimni tortdi... Bu axir erim-ku! Men nazarga ilmagan shov-vozning xuddi o'zi!

Gazetani ochdim – unga ikki ustunni bag“ish-lashibdi – sen bilan biz haqimizda gazetalarda hech qachon hech vaqo yozishmaydi, degan gapim beixtiyor yodimga tushdi.

Gazetani o'qir ekanman, sira ishongim kelmasdi. Maqolada zikr etilganlarning hech birini bilmasdim, bularning barchasini u mendan sir tutgan ekan. Maqolada o'g'irliliklar, qotilliklar, jinoiy fitnalar, giyohvand moddalar-u fokishabozlik ha-qida yozilgandi. Ha, ha, fokishabozlik ham tilga olingandi. Erimning qandaydir jurnalist bilan suhbati ham bosilgandi. Erim barcha ayblovlarni, albatta, rad etgandi. Gapining oxirida esa menga tanish ohangda shunday degandi: „Gaplarimni hazilga yo'y mang. Men hech vaqoni bilmayman. Kamina risoladagidek oilaparvar odamman“.

Bugun ertalab bir to'da gazetani g'ijimlab ol-gancha nima uchun shu darajada xafa-yu chorasziz ahvolda bo'lganini endi tushundim. Uni hayotida birinchi marta gazetada urib chiqishgan, butun el-u yurt, qolaversa, mening qarshimda barcha qilmishlari fosh bo'lganidan alamzada edi. Men laqma esa qaroqchi erkaklarni yaxshi ko'raman, deb yuziga aytib o'tiribman. Holbuki, niyatimga yetgan ekanman-ku.

Momaqaldiroq ham gumburladi, ketidan chaqmoq ham yarqiradi. Biroq bu chaqmoq aynan o'zimni kunpayakun qildi!

Keling, hammasini oydinlashtirib olaylik. Men risoladagidek odamga turmushga chiqqandim, uni qo'y og'zidan cho'p olmagan, musichaday beozor deb o'ylasam, jinoyatchi bo'lib chiqdi. Nima qilishim kerak edi? Jinoyatchiga turmushga chiqib, aslida, jinoyatchi emas, go'dakday ma'sum ekaniga iqror bo'lishim kerakmidi? Yoki keyinchalik afsus qilmaslik uchun tamomila boshqacha yo'l tanlashim kerakmidi?

Afsuski, xato qildim, biroq aynan qanday xatoga yo'l qo'yganimni bilolmay xunobman!

*Dildora ARZIKULOVA tarjimasi*

## **PUSHTI RANG UPA**

Nihoyat Soufi o'z xonasida dam olib o'tirar edi.

U o'lguday toliqqandi. Kun juda og'ir o'tgan; xuddi kechagi kunday, xuddi kechadan oldingi kunday og'ir o'tgandi. Aslida-ku, har bir kun shunday og'ir tarzda o'tar va bu kunlar Soufining yana bir yoshini asta-sekinlik bilan undan uzoq-larga olib ketmoqda edi. Yana ikki yil o'tgach, Soufi ham ellik yoshni urib qo'yadi. U uchun har bir kun borgan sari og'irlashib borardi.

Pastdagi yo'lak bo'ylab taralayotgan beka bilan xo'ja-yinning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozi oqsochning qulog'iga chalindi. Bekaning g'azab otiga mingani yaqqol sezilib turardi. Eri bilan gaplashganida uning tepa sochi tikka bo'lishi odatiy holga aylanib qolgandi.

Qo'ng'iroq chalinishi bilan Soufi dik etib o'rni-dan turdi-yu, koridor tomon halloslagancha yugurib ketdi. Obbo, qo'ng'iroq tag'in chalindi. Beka kutishni yoqtirmasdi.

— O, Xudoyim-ey, Soufi! Qorangni endi umrbod ko'rmas ekanmanmi, deb o'ylagandim!

Soufi miq etmadi. Nima ham desin? Beka eshigi ochiq kiyim javoni oldida kuymalanardi. U qo'liga bir dasta qilib ko'yaklarini ilib olgan, yana allaqanchasi karavoti ustida yoyilib, sochilib yotardi.

– Ertaga, Soufi, – dedi beka shoshilayotgani-dan nafasi bo'g'ziga tiqilib, – bizlar Rimga jo'nab ketamiz. Ertaga ertalab. Demak, ayni daqiqada-noq tayyorlanishimiz zarur.

– U yoqda qancha vaqt bo'lasizlar, xonim?

– Bunisini bilmayman. Ehtimol, ikki yoki uch hafta bo'larmiz.

– U holda kattaroq chamadonni tayyorlagani-miz ma'qul emasmikan? Men hozir borib o'shani olib kelaman.

– Kel, senga qarashib yubora qolay, Soufi, – dedi beka oqsochi zil-zambil chamadonni keltiriши bilan. Odatda, beka atrofida qari ayol uy-malanib yurishini jini suymasdi. Ammo Soufi o'z ishini ko'ngildagidek ado etardi.

Keksa oqsoch narsalarni joylashtirish bilan band ekan, ko'ngli negadir cho'kib borardi.

– Butun kuni divanda, – deya o'y surardi u, – aynan xonimniki singari kattagina rohatijon karavot ustida o'tkazish. Faqat uqlash, dam olish, yana xonim to'g'risida va uning qaysi topshiriqlarini bajarish haqida zig'ircha tashvish qilmaslik – shunaqasi ham bo'larkanmi?

– Uning so'nggi o'yinidan keyin, – beka eri ha-qida so'zlab ketdi, – o'zining aytishicha, bir tiyini ham qolmagan emish. – „Biror donayam yangi ki-yim sotib ololmayman“, dedi u. – Beka derazadan tashqariga bir qarab oldi. – Boz ustiga, – deya gapida davom etdi, – erimning qari otasi ham peshanamga kelib olgan. – „Shunday shoir ering bilan faxrlanishing kerak“, deydi-ya qariya tushmagur. Yuziga qarab xaxolab yuborishdan o'zimni zo'rg'a ushlab qoldim. – Beka qah-qah otib kulib

yubordi. – O, o'zimning Soufiginam-ey, nechan-chi osmonlarda uchib yuribsan-a? Manavi almi-soqdan qolgan yashil ko'yakni joylashingga balo bormi?

Soufi indamasdan ko'yakni garderobga ilib qo'ydi.

– Nima uchun bu aynan shu kecha qovoq-tumshug'ini osiltirib olibdi? – deb o'ylardi beka ichida. – Yuzlari ham sarg'ayib, tishlari ko'karib ketibdi. Bunchalik xunuk bo'lmasa. Yaxshisi ux-lagani jo'natib yubora qolay. Ammo nima qilib bo'lsa ham ish yakunlanishi kerak-da. Nima qilsam ekan-a? Beka o'z-o'ziga achinib ketdi.

Beka „Hayot og'ir-da, – deya o'y surganicha divani ustiga cho'kdi. – Sarg'aygan yuz va ko'kar-gan tishlar! Chindan ham o'ta yoqimsiz!“ Soufi ning afti bekani kasal qilayozdi.

– Hayot og'ir-da, – deya yana takrorladi beka. U oqsochini xonasiga ketkazib yuborsa ham bo'-lardi. Biroq lash-lushlarini hozirlashni bir o'zi eplolmaydi. Ustiga-ustak, ertaga saharlab Rimga ketishlari kerak. Beka eriga sayohatga keta oli-shini aytganida, u ishonqiramay miyig'ida kulib qo'ygandi.

– Soufi, – dedi xonim nihoyat bir chora topgan-day, – borib, mening pardoz stolim ustini bir qa-ragin-a. O'sha yerda pushti rang bir upa turibdi. O'shandan yonoqlaringga ozgina surtib ol. Yana o'sha joyda qandaydir lab bo'yog'i ham bor.

Keksa Soufi o'rnidan turib, pardoz stoliga bor-guni-cha va aytilgan topshiriqni adog'iga yetkaz-gunicha beka ko'zlarini yumib turdi. Obbo, bu xotin buncha ivirsimasa... Nihoyat, Soufi imilla-

gancha joyiga qaytib kelib, narsalarni joylashda davom etdi. Xonim ko'zlarini ochdi. „Voy, shunisi yaxshiroq bo'ldi, sal bo'lsa-da odambashara bo'ldi-qoldi“.

– Rahmat, Soufi. Tuzukkina odamga aylanding-qo'yding. – Beka o'rnidan turdi. – Qani endi, chaqqon-chaqqon qimirla, mana bu narsalarni tez joylab olaylik.

*Qandilat YUSUPOVA tarjimasi*

## **VASİYATNOMA**

Bu aka-ukalar Angliyaning Oldkesl shahrida istiqomat qilishardi. Jon ellik ikki, Robert qirq to'qqiz yoshda bo'lsa-da, ular hanuzgacha bo'y-doqlar safida edi. Qizig'i, tug'ilgandan buyon birga yashab, birga ovqatlanishadi-yu, biroq necha yildirki, gaplashmaydilar...

Bunga o'n yil burun sodir bo'lgan bir mojaro sabab. Shundan buyon ular bir og'iz ham so'z-lashmadilar. Agar muloqotga kirishish zaruriyati tug'ilib qolsa, faqat qog'oz-qalam orqaligina buni amalga oshirardilar.

Bir kuni kechki ovqatdan so'ng odatdagidek birga o'tirishgandi. Ularning ikkalasi ham qora libosda edilar, boisi singillari Mari to'satdan vafot etgandi. Jon qog'oz oldi-da, yozdi: „Janob Liverseyj biznikiga tashrif buyurar ekan“. Liverseyj ularning advokati edi. „Nega?“ javob yozdi Robert. „Bilmayman. U qo'ng'iroq qildi va bizni ko'rmoqchi ekanligini aytdi“.

Shu payt eshik qo'ng'iroq'i jiringladi. Bu Pavel Liverseyj edi. U Jon va Pavel bilan ham maktab-dosh, ham qalin do'st, shuningdek, aka-uka, singari u ham hali uylanmagandi.

– Qalaysan, Pavel? – so'radi Jon.

- Juda yaxshi, - javob qaytardi advokat.
- Men sizlarga singlingizning vasiyatnomasi haqida aytmoqchi edim. Bundan xabaringiz boradir?
- Yo'q, - javob berishdi ular birdaniga. - U biza ga biror nima qoldiribdimi?
- 12 ming yevro. Lekin avval vasiyatnomani o'qishga imkon bersangiz...

Advokat yon cho'ntagidan qog'oz chiqardi va o'qishni boshladi:

*„Akalarim Jon va Robertga!*

*Sizlar o'zingizni yosh boladek tutasizlar. Men haliyam Anni Emeri tufayli janjallahib qolganlik-laring sababini tushunmayman. Sizlar bechora Anniga nisbatan beshafqatlik qildinglar. U o'n yildan buyon biringizni kutadi, axir. Qisqasi, vasiyatim shuki, ikkingizdan qay biringiz Anniga uylansangiz, men pullarimni o'shang a qoldiraman. Ikkingiz ham uylanmasangiz, u holda pullar Anniga qoladi.*

*Sevimli singlingiz Mari“.*

Aka-uka bu haqda bir necha kun o'yladilar. O'n yil oldin Anni yigirma yetti yoshligida ikkalasi uni sevib qolgandilar. Shu tufayli ular ko'p janjallahdi. Oxirgi dilxiralikdan so'ng gaplashmay qo'ydilar. Ammo ular bir-birining Anniga uylanish fikridan qaytganliklarini bilmasdilar...

Nihoyat, vasiyatnomasi o'qilgandan keyin 5-6 kun o'tib Jon gap boshladi:

- Balki, Anni uchun tanga tashlarmiz. Chik-kami yo pukka?
- Pukka, - dedi Robert.

Tanga chikkani ko'rsatib tushdi. Ertasiga Jon Annining uyi tomon yo'l oldi. U yetib borganda Liverseyj u yerdan chiqayotgan ekan...

Xullas, aka ham, uka ham Anniga uylanolmadi. Ular haliyam bo'ydoqlar safida, ammo bir-biri bilan gaplashishadi. Anni-chi? U yaqinda Liverseyjga turmushga chiqdi va Mari qoldirgan pullar ularning qo'lida qoldi.

*Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi*

## **UNUTILGAN KITOBLAR QABRISTONI**

Dadam meni ilk marotaba Unutilgan Kitoblar qabristoniga olib borgan kunni hali-hanuz yaxshi eslayman. 1945-yilning ilk yoz kunlari edi va biz kulrang osmon ostida yastanib yotgan Barselona ko'chalari bo'ylab yurib borardik. Tong esa Ram-la de Santa Monikani mis gulchambarlariga o'rab qo'ygandek edi, go'yo.

„Daniyel, bugun ko'radigan narsangning nimaligini hech kimga aytmasliging kerak, dadam meni ogohlantirdi. – Hattoki yaqin do'sting Tomasga ham. Hech kimga.“

– Hatto oyimga hammi?

Dadam chuqrur tin oldi va butun hayotiga soya solib turgan alamni g'amgin bir tabassum ortiga berkitishga urinarkan, og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Albatta, unga aytishing mumkin, javob berdi u juda g'amgin holda. Biz undan sir yashirmaymiz. Sen unga hamma narsani aytishing mumkin.

Fuqarolar urushidan qisqa vaqt o'tib, mudhish vabo meni oyimdan judo qildi. Biz uni mening to'rtinchi tug'ilgan kunimda Montjuikka dafn qildik. O'sha mash'um kunda yodimda qolgan yagona narsa shuki, o'sha kuni butun kunutun yomg'ir yog'ishdan tinmadi, dadamdan jan-

nat yig'layaptimi, dada, deb so'raganimda esa u javob bera olmadi.

Oradan olti yil o'tib, oyimning yo'qligi men hali ham ko'nika olmagan juda qattiq sukunatga aylanib ketdi. Dadam bilan biz Kelli Santa Amada-da, cherkov muyulishidan uncha uzoq bo'lмаган kamtargina bir kulgada yashardik. Uyimiz bo-bomdan qolgan kolleksionerlarning noyob asar-lari va ikkinchi qo'l kitoblari sotiladigan kitob do'koni – mo'jizakor do'konning shundoqqina te-pasida joylashgan bo'lib, dadam bir kun kelib uning meniki bo'lishiga umid qilardi.

Men kitoblar bilan voyaga yetdim, sahifalardan ko'rinas do'stlar orttirdim va bu bugungacha davom etmoqda. Bolalikdan qorong'i yotog'imda uyquga ketishdan avval onam bilan „suhbat qu-rishga“, unga kunning voqealarini, mактабдаги sarguzashtlarimni va unda o'ргanganlarimni so'z-lab berishga odatlanib qoldim. To'g'ri, uning ovo-zini eshita olmas edim, biroq uning tafti va nafasi uyning har bir burchagida mavjud va o'z yoshini nozik barmoqchalari bilan sanab aytadiganlarning begunohligi haqqi, ishonardimki, agar hozir ko'zla-rimni yumsam, u qayerda bo'lmasin, meni eshitadi.

Ba'zan shunday xayollar og'ushidaligimda, da-dam meni oshxonadan tinglab, jimgina yig'lagan...

O'sha iyun tongida saharga yaqin qichqirib uyg'onib ketdim. Ko'ksimdagи yuragim go'yo chiqib ketgudek urardi. Dadam darhol xonamga shoshildi va meni qo'llariga olib, tinchlantirishga urindi.

– Men... Men uning yuzini eslay olmayap-man... Oyimning yuzini eslay olmayapman... Na-fas olmay qaytarardim men.

Dadam meni mahkam bag'riga bosdi.

– Xavotir olma, Daniyel. Men ikkimiz uchun ham eslayman.

Biz tong yorishguncha bir-birimizga biror so'z topolmay qarab qoldik. Dadamning keksayib qolayotganini bиринчи мarta ana o'shanda payqadim. U o'rnidan turib, tongning shu'лasi kirib turishi uchun pardalarni surib qo'ydi.

– Daniyel, kiyin. Senga bir narsa ko'rsatmoq-chiman.

– Hozirmi? Tonggi soat beshda-ya?

– Ba'zi narsalarni faqatgina qorong'ida ko'rish mumkin, – dedi dadam o'zgacha bir sirli tabassum bilan (ehtimol, buni u Aleksandr Dyumaning biror romanidan o'qigandir).

Biz old eshikdan chiqqanimizda, qorovul hanuz qorong'i ko'chada sanqib yurardi. Tongning g'ira-shirasida Ramblas bo'ylab ko'chalarni yoritgan chiroqlar shaharning uyg'onganidan darak edi, bu go'yo jozibador akvarelning hayotga sekin kirib kelishiga o'xshaydi.

Kalli Arko del Teatroga yetib bordik va ustunlar bo'ylab Raval tomon yurishda davom etdik. Men dadamning izidan to ortimizdagи Ramblasning xira chiroqlari g'oyib bo'lguniga qadar ergashib boraverdim. Tong yorug'i ufqdan balkonlarga va yerga yetmay erib ketayotgan qiya nurlar ichidagi devorlarga tarqaldi. Nihoyat, dadam vaqt va namlik qoraytirgan, yog'ochdan ishlangan ulkan o'yma eshik oldida to'xtadi. Bizlardan oldin ko'zimga sharpasi ko'ringan narsa bu qasrning jonsiz jasadi bo'lib, u menga aks-sadolar va ko'lankalar makoni bo'lib tuyuldi.

„Daniyel, bugun sen ko‘radigan narsaning nima ekanini hech kimga aytmasliging kerak. Hatto eng yaqin do‘sting Tomasga ham. Hech kimga“.

Kichikdan kelgan, siyrak, kulrang sochli tas-qara bir kishi eshikni ochdi. Uning dosh berib bo‘lmas burgut qarashi menga qadalgan edi.

„Xayrli tong, Isaak. Bu mening o‘g‘lim, Daniyel“, ta‘kidladi dadam. „U yaqinda o‘n bir yoshga to‘ladi va kun kelib do‘kon uniki bo‘ladi. Uning bu joy haqida biladigan vaqtি keldi“.

Isaak nomli kishi boshini sarak sarak qildi va bizni ichkariga taklif etdi. Ko‘k rangli kishining ta‘bini xira qilguvchi qorong‘ilikdan marmar zina-nning burilishlariga va u yerdan farishtalar bilan o‘ralgan odamlar va turli g‘aroyib mavjudotlar freskolari bilan bezatilgan galereyaga o‘tdik. Mez-bonning ortidan yuqori yo‘lka tomon yurdik va tepamizdagи ulkan shisha gumbazdan yorug‘lik tushib turuvchi ko‘lankalar bazilkasi joylashgan aylana zalga yetib bordik. Yo‘laklar labirinti va liq to‘la kitobjavonlardan xuddi asalari uyasiga o‘xshash gumbazning yuqori qismiga ko‘tarildik, tunnellardan, zinapoyalardan, platformalardan, ko‘priklardan o‘tib, imkonи yo‘q geometriya bo‘lib ko‘ringan ulkan kutubxonaga yetib bordik. Men toshday qotib, dadamga qaradim. U menga jilmayar ekan, ko‘zini qisib qo‘ydi.

„Unutilgan Kitoblar Qabristoniga xush kelibs-san, Daniyel“.

*Ingliz tilidan  
Maftuna RAIMQULOVA tarjimasi*

### **TINCHLIKPARVAR**

Ajabtovur odamlar bilan uchrashib, zap omadim kelyapti-da. Bu kamdan kam uchraydigan holat, nega desangiz, oddiy odamlarni har kuni uchrata-miz. Masalan, kecha o'zini Iso Masih deb biladigan odam bilan tanishdim. Ammo bunga sira hayron bo'lmanq, axir, dunyoda o'zini Napaleon deb o'ylay-digan odamlar son mingta, minglab o'quvchi qizlar ko'zguga qarab Greta Garboning aksini ko'radi, sochini uzun o'stirib olgan bir gala yosh-yalang o'zlarini mashhur estrada qo'shiqchilariday tutadi.

Xullas, kechagi tanishuvim bundoq bo'ldi.

„Lukull“ restoraniga tushlik qilgani yo'naldim...

– Nega restoranga? – deya og'zimga uradi besabr o'quvchi. – Uyingizda ovqatlansangiz bo'l-maydimi?

Ma'zur tutgaysiz, davom etaman. Kecha oq-shom xotinim ketib qolganini batafsil aytishim bilanoq, nega u birdan ketib qolganini, kim bilan va qayoqqa gumdon bo'lganini, safarda qancha fursat bo'lishini, o'rtamizda qo'ydi-chiqdi bo'lgan-midi, o'zi nima sababdan xotinimsovutkichda menga ovqat-povqat qoldirmaganini ijikilanib so'-rab-surishtirishingiz turgan gap.

Modomiki menga birinchi bo'lib so'z berilgan ekan, odamni aybsitaveradigan o'quvchining bar-

cha savollariga ham javob bermayman. Shunday qilib, „Lukull“ga yo'l oldim. Eshik tagida uzunsoch yoshlar uymalanib turgan ekan. Bo'yinbog'lari bo'lmagani sabab ichkariga qo'yishmayotgan ekan ularni. Gapning po'stkallasini aytsam, ularning cho'ntaklarida hemiri ham yo'q edi. Yigitlar norozilik bildirmoqchi bo'lishib, bir-birining sochidan yulqilay boshlashdi. Bittasining qo'liga yasama soch tushib qoldi, shunda ma'lum bo'ldiki, yigitlarning orasiga qiz bola suqilib kirgan ekan, chunki yigitlar ulamasoch taqishmaydi-da. O'rtada ixtilof kelib chiqib, ikki guruhga bo'linishdi: bir tomon – ulamasoch uchun, ikkinchi tomon – unga qarshi. Ur-yiqit boshlandi. Odadagi mushtlashuv. Bahona ham tappa-tayyor: to'qlikka sho'xlik.

Ta'bir joiz bolsa, jangovor tulporlarning yollari singari savatsochlar hilpiray boshladи. Mushtlashuv ayni avjiga chiqqandi hamki, yonimga halloslagancha o'rta yoshli bir taqsir kelib qoldi. Ko'cha tomondan chopib kelgan shekilli, hars-hars yutoqib nafas olardi.

– Nima gap, nima bo'lyapti bu yerda? – so'radi u inglizchalab. Antiqa talaffuzidan bildimki, u Texasdan – huuv, o'sha, shoxdor qoramol yetishtiriladigan, kuppa-kunduzi prezidentlarga o'q uzi-ladigan Amerika shtati.

– Ser, nima bo'lyapti o'zi? – oyoq tirab so'radi u tag'in. – Yigitlar urishishyaptimi?

– Ha, shunaqaroq.

– Qurolsiz-a?

– Finlyandiyada kichik ko'ngilsizliklar musht yordamida hal qilinadi.

- Dahshat-ku!
  - Aynan nima?
  - Odamlar bir-birining go‘shtini yesa-yu, birov aralashmasa. Afu etgaysiz, o‘zimni tanishtiray. Kebot.
  - E... kechirasiz, harfma-harf aytolmaysizmi?
  - Si-ey-bi-ou-ti – Kebot. Anglamadingizmi? Bundoq: Karolina, Alabama, Boston, Oklaxoma va Texas – Kebot. Endi uqdingizmi?
  - Ha, rahmat.
  - Juda soz! O‘! Qarang, qarang!
- Anavi yigit birodarining yuziga musht tushirdiya. Yo bibi Maryam! Menga yordam berolmay-sizmi, ser?
- Qanday qilib, janobi Kebot?
  - Tilmoch sifatida. Bu odamyovvoyilar bilan bir gaplashsam devdim. Men, bilsangiz, nasroniyman, tinchlikparvarman. Odamlarning yoqalashishi shini ko‘rishga ko‘zim yo‘q. Janjalni to‘xtatishning bir yo‘li bor.
  - U holda to‘xtating. Haytovur, men bu ur-yiqitga aralashgim yo‘q. Qolaversa vaqtim ziq.
  - Shoshmang, ketmay turing, – deya elangancha janob Kebot qo‘limdan oldi. – Rostdan ham menga yordam berolmaysizmi? Yopiray! Endi anavilar bir-birini tepkilashga o‘tishdimi? Agar hozirning o‘zidayoq yoqalashayotganlarni yarashtirmasam, o‘zimni dunyodagi eng gunohkor banda deb bilaman. Yo‘qsa, osmondagи otamizning siy-mosiga qay yuz bilan boqurmen, uning farzandi ekanimni qay til bilan ayturmen...
  - Janobi Kebot, o‘zi nima istaysiz? – so‘radim jiddiyashib.

– Nizoni bartaraf etmoqlikni. Bu odamlar tinchlik va bahamjihatlikda yashashlarini istayman. Shu bois ham sizga iltimos ila murojat etmoqdaman. Urishqoqlardan so‘rab ko‘ring-chi, o‘qotar qurol sotib olishmasmikin?

– Kechirasiz-u, janobi Kebot, men sizni tushunmay turibman. Tinchlik tarafdoriman, tinchlik-parvarman, deyapsiz-u, shuning barobarida qurol sotmoqchi bo‘lyapsiz.

– Buning nimasiga ajablanyapsiz? Qurolsiz tinchlik o‘rnatib bo‘larkanmi?! Rabbimning ham samoviy lashkari mavjud. Zaminda esa cherik deganlari tinchlik nomi ila harakat qilur. Ooo muqaddas ruh! Xudo xayringizni bersin, ko‘maklashsangiz-chi! Mehmonxonadagi hujramda bir talay to‘pponchalar bor, arzongarovga beraman.

– Quloq soling, janobi Kebot. Miyangizni hech tekshirtirib ko‘rganmisiz: istasangiz, bir yaxshi shifokor-mutaxassisning qabuliga olib boraman.

– Siz meni haqorat qilyapsiz. Nima, meni jinnipinni deb o‘layapsizmi? Yurtimda meni elma-el yurib, xalqlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatishga yo‘l ko‘rsatguvchi yangi zamon payg‘ambari deb atashadi.

Janob Kebot birdan pichirlashga o‘tdi:

– Menda yana gaz-to‘pponchalar ham bor, uch soniyada raqibni behush qiladi. Axir, ser, tinchlikni oddiy gaz bilan ham o‘rnatsa bo‘ladi, ajoyib emasmi?! Siz bu aqldan ozganlarga bir qarang! Bittasining hatto bosh terisini ham shilib olishibdi!

– Xotiringiz jam bo‘lsin, janobi Kebot. Bu bor-yo‘g‘i ulamasoch. Aytgancha, o‘zi siz kim-

siz? Chog‘imda, qurol-yarog‘ kontrabandası bilan shug‘ullanasız, shekilli?

– Birgina qurol emas. Yonimda doim bir jomadon nyu-yorkcha jargonga o‘girilgan arzon Bibliyalarni ham olib yuraman. Ammo o‘qotar qurollarni jon deb pullayman, chunki samarasi ko‘proq. Bibliya oniy xotirjamlik bersa, to‘pponcha batamom osoyishtalik o‘rnatadi. Yana bir bor ma’zur tutgaysiz, ser, sizga orqa qilsam bo‘ladimi? Sal-pal toshbag‘ir bo‘lsangiz ham halol odamga o‘xshayapsiz. Siz, masalan, bu qonli olishuvga kiprik qoqmasdan qarab turaverasiz, vaholanki bu to‘s-topolonni mening maslahatim ila osongina hal etish mumkin. Shunaqa, ser. Sizga ishonsam bo‘ladimi? Bilsangiz, cho‘ntaklarimda bir nechta namuna bor. Reklama uchun bittasini judayam arzonga beraman. Agar qo‘lingizda to‘qqizta o‘qli to‘pponcha bo‘lsa, bir o‘q bilan janjalga barham berasiz.

– Bitta-yarimtasi o‘lib-netib qolsa-chi?

– Agar tinchlik va tartib o‘rnatmoqchi bo‘lsang, shunday bo‘lishi turgan gap. Jasad qancha ko‘p bo‘lsa, tinchlik ham shunchalik barqaror bo‘ladi. Agaradolatli tinchlik borasida gap keta-yotgan bo‘lsa, raqibni miyasidan otish kerak. Ko‘ryapsizmi, ser, urush dushman borligi tufayli qo‘zg‘aladi. Lekin g‘animni paydo bo‘lishi bilanoq o‘ldirsang, abadiy tinchlik hukm suradi. Hayotga bo‘lgan qarashlarim shunaqa mening. Bu qarashlar Bibliyaga tayanadi. Menda yana bundan ham puxtarqlari bor.

– Aftidan, siz qurol-yarog‘ fabrikasi egasisiz, shekilli-a, janobi Kebot?

– Bekorlarning beshtasini yebsiz! Menkim ez-gulik elchisi, amerikacha sulhparvarlikning alo-hida vakiliman. To‘g‘ri, yo‘l-yo‘lakay quroq ishlab chiqaruvchi bir nechta zavodlarning yangi mah-sulotlarini ham reklama qilaman. Axir, bo‘s qop tik turmaydi, lekin... E Xudoyim!.. Politsiya qayoq-dan paydo bo‘la qoldi? O‘zim ham shunaqa deb o‘ylagandim. Ular mening tinchlikka qaratilgan tashabbusimni barbod qilishlarini bilgandim o‘zi. Endi qarang, bu nimasi-a: ular yigitlarni furgon-ga tiqishyapti. Bu borib turgan vahshiylik... Naq yig‘laging keladi-ya. Ko‘rmaysizmi, ziyraktabiat-man. Men tinchlik va ozodlikni sevaman. Bar-cha odamlar erkinlik va yashash huquqiga ega bo‘lishlari lozim. Dushmanlardan tashqari, albat-ta. Ularga shafqat qilib bo‘lmaydi... Aybga buyur-maysiz, ser, sizning ham dushmanlaringiz bormi?

– Bo‘lishi mumkin. Dadil ishonch bilan aytol-mayman.

– Unday bo‘lsa, har ehtimolga qarshi mendan to‘pponcha sotib oling.

– Aslo. Fahmimcha, meni ko‘rolmaydiganlar to‘pponchasiz ham ishini bitiradi.

– Unda bejirim qilib ishlangan qo‘l granatala-rini taklif qilaman – cho‘ntakda olib yurish uchun maxsus ishlangan.

– Keragi yo‘q. Yo‘qsa men dushmanimning portfeli plastik bombaga to‘la, deb o‘ylayman...

Janob Kebot o‘y surib menga qarab qoldi, so‘ngra pichirladi:

– Men sizga optik mo‘ljallagichli zamонави avtomatik miltiq topib berishim mumkin. U dav-lat arboblarini o‘ldirishga mo‘ljallangan. Basharti

dushmaningizda ham shunaqa miltiq bo'lsa, men sizga biryo'la o'qo'tmas kastum ham sotishim mumkin. Innaykeyin, men sizga atom... Siz meni eshityapsizmi?

– Yo'q. Tushlikka shoshyapman. Tinchlik yo'li-dagi faoliyatizingizda muvaffaqiyat tilayman.

Restoranga yo'naldim, ammo janob Kebot o'chakishganday ortimdan ergashdi.

– Men siz kabi odamlarni yoqtiraman, – dedi u. – Sizni grog<sup>1</sup> bilan siylashga izn bergaysiz.

Men xushmuomalalik ila uning manziratini rad etdim, lekin janob Kebot tirdg'alib kelgancha restoranga birqalashib kirdi va yonimga o'tirdi. Piyoz to'g'ralgan bifshteks buyurtirganimda, u vahima-ga tushdi. U o'zini sobitqadam go'shtyemasligini ma'lum qildi va faqat johillargina nafsi qondirish uchun begunoh jonivorlarni o'dirishga qodir ekanligini aytdi.

– Etxo'rlik odamni dag'allashtiradi, – dedi u.  
– Men har borada nasroniylikning ezgu so'zlariga amal qilishga intilaman.

– Men esa yo'q, – dedim kesatib. – Aksincha, odam o'ldirgim keladi, chunki baribir odam go'shti-ni yemayman.

Janob Kebot cho'qinib oldi va xitob qildi:

– Siz beshafqatning bunday deyishga qanday tilingiz bordi?! Kasbingiz nima o'zi?

– Kasbim yo'q. Men kitob yozaman. Sizning nozik ko'nglingiz esa ur-sur bo'layotgan, inson qoni to'kilayotgan yerga intiladimi deyman-a?

– Tinchlik o'rnatish uchun.

---

<sup>1</sup> Grog – sharob, rom yoki konyakka sharbat qo'shib tayyorlangan issiq ichimlik (tarj.).

- Qurol sotibmi?
- Bu – eng samarali yo'l.
- Nega siz qovoqxonalarda, cherkovlarda, maktablarda, ko'chalarda jiqqamusht bo'layotgan yurdoshlariningizga qurol sotmaysiz?

Janob Kebot bosh chayqadi.

- O'zingizni yozuvchiman deya tanishtirdingiz. Adashmasam, yozuvchilar tijoriy sezgirlikdan mahrum bo'lishadi.

– Hozir gap tijorat haqida emas, tinchlik uchun kurash haqida ketyapti.

– Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Keling, men sizga tushuntiraman. Hozir mening yurtimda birligina ichki savdo bilan kun ko'rib bo'lmaydi. Mahsulotni o'tkazish kerak, molni esa qon to'kilayotgan, qurol talab qilinayotgan yerga yo'naltirish lozim. Shu tariqa bandlik ta'minlanadi, birvarakayiga ulug'vor tinchlik g'oyasi ham joriy qilinadi. Chin nasroniy kabi biz xalqlarni g'anislardan xalos etamiz.

– Siz alomat odam ekansiz, janobi Kebot. Ajabtovursiz! Sizning sharafingizga ikkinchi bifshteksnini va bir qadah sharobni buyurtiraman.

Janob Kebot tong qotib, endi og'iz juftlashga chog'langandi, e'tiborini ko'cha mojarosi tortdi. Ikkita yuk mashinasi to'qnashib ketdi, haydovchilar kabinadan tushib, „iltifot“ ila musht o'qtalib, odatdag'i „navozish“ so'zlar bilan bir-birlarini siyladilar. Janob Kebot cho'ntagidan lug'at olib ko'chaga chopdi. Haydovchilar bir-birining yoqasi pishiqligini tekshirib ko'rishga endi o'tishmoqchi bo'lishgandi hamki, janob Kebot bittasining qo'llidan tutib, chetga tortdi-da, qulog'iga allambalolar-

ni shivirlay ketdi. Ko'p ham topag'on emasman-u, lekin bu samimiyl tinchlikparvar haydovchiga imtiyozli reklama narxida to'pponcha taklif etganini fahmladim.

Restorandan qaytgach, o'zimni so'roq-savolga tutdim. Tan olishim kerakki, janob Kebot haq edi: tijoriy sezgirlik yetishmaydi menga. Yo'qsa undan imtiyozli narxda to'pponcha sotib olib, kreditorlarim bilan osongina orani ochiq qilgan bo'lardim, keyin esa davlat tomonidan to'la xizmat ko'rsatish bilan umrbod beriladigan nafaqa va ijodiy tinchlik bilan ta'minlangan bo'lardim. Lekin o'zingizdan qolar gap yo'q, do'stlarim, yozuvchi ijodiy tinchlik uchun o'z o'quvchilarini otib tashlolmaydi. Shuning uchun ham u tijorat bobida uquvsiz.

*Rus tilidan  
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi*

## **TALAB QILINMAGAN VA'DA**

Xotinim hamisha kech qolib yuradi. „Kleridj“ mehmonxonasida birga nonushta qilishga kelishib, u yerga o'n daqiqa kechikib borganimga qaramasdan, xotinimdan hamon nom-nishon yo'q edi. Odatini yaxshi bilganim uchun ajablanmadim. O'zimga kokteyl keltirishlarini buyurdim. Ayni dam olish mavsumi qizigan palla, shu bois mehmonxonaning kutish bo'lmasida faqat ikki yoki uchta stol bo'sh turardi. Ayrim mijozlar ertalabki nonushtadan keyin qahva ichib o'tirgan bo'lsa, boshqalar men singari martini solingan qadahni qo'lida o'ynab o'tirardi.

Egniga yozgi yengil ko'ylik kiyib olgan juvonlar quvnoq va jozibali, erkaklar esa hushchaqchaq ko'rindi. Lekin men shu yerda bo'lib turgan o'n besh daqiqa mobaynida ularning hech biri e'tiborimni tortmadi. Bu odamlarning qiyofasi men ga xush yoqardi: ular kelishgan, yaxshi kiyingan, o'zlarini beparvo va xotirjam tutishardi, ayni paytda deyarli barcha o'ziga xoslikdan mahrum rangpar olomonday taassurot uyg'otardi, binobarin ularni befarq, hech qanday qiziqishsiz kuzatardim.

Xotinim, ta'bir joiz bo'lsa, ikki bezak: feruza taqinchoq va soat taqishga tobi toqatim yo'q, deb xarxasha qiladi, aytishicha, feruza taqinchoq ko'-

karib ketsa, soat to'xtab qolarmish. Bu yaxshilik alomati emasmish. Feruza taqinchoq borasida biron gap aytishim qiyin, biroq soatni vaqtı-vaqtı bilan murvatini burab turishni unutmasa, menimcha, u to'xtab qolmaydi.

Ko'nglimdan shunday fikrlar kecharkan, mehmonxona xizmatchisi sirli va ma'nodor qiyofada (ular ayni shunday qiyofada hatto oddiy xabarga ham vahimali tus baxsh etmoqchi bo'ladilar) ro-paramanda paydo bo'lib, xonim qo'ng'iroq qilganiyu ushlanib qolishini bildirib, men bilan nonushta qila olmasligini ma'lum qilganini aytdi.

Men ikkilanib qoldim. Gavjum restoranda yolg'iz nonushta qilish yoqmasdi, biroq fursat boy berilgani uchun klubga borishdan voz kechib, noiloj shu yerda qoldim. Mehmonxona restoraniga kirdim. Hashamatli restoranlarning bosh mezbonlari yaxshi tanishlari (barcha mashhur kishilar singari) mening ham g'ashimga tegardi, lekin bu safar restoran mezboniga umid bilan tikildim. U esa yuzing-ko'zing demay, hatto bir oz yovqarash qilib, bo'sh joy yo'q, deb to'ng'illadi. Men keng va ajoyib zalga umidsizlik bilan nazar solar ekanman, ilkis tanish chehraga ko'zim tushdi. Elizabet Vermont xonim – eski qadrdonim-ku! U menga qarab jilmaydi, yolg'iz ekanini payqab, asta yoniga bordim.

– Och qolgan kimsaga rahmingiz kelsin, – dedim iltifot bilan, – yoningizdan joy olishga ijozat bersangiz.

– Marhamat, marhamat, – javob berdi xonim bag'rikenglik bilan, – biroq men ovqatlanib bo'ldim hisobi.

Vermont xonim odamning qulochi yetmaydigan ustun yonidagi stolda o'tirar, uning ro'parasi-ga joylashganidan keyin, ustunning panasida restoran gavjum bo'lishiga qaramay, ikkalamiz yolg'izlanib qolganday bo'ldik.

- Omadim keldi, - mamnun dedim men. - Ochlikdan sillam qurib, yiqilar darajaga yetgan-dim-a.

Elizabet Vermont xonimning tabassumi juda chiroyli edi: tabassumi yuzini darhol charog'on qilib yubormas, aksincha, ohista joziba baxsh etardi. Dastlab lablarida qanotlangan tabassum sekin-asta yulduzday yirik ko'zlarida porlay boshlardi. Elizabet Vermont jozibali juvon ekanini, shubhasiz, barcha e'tirof etardi. Men uni qizlik paytida ko'rmangan. Lekin yoshligida farishtaday go'zal bo'lganini, unga ro'para bo'l-ganlarning ko'zları hayrat yoshlari bilan to'lishini ko'pchilik gapirib berardi, va men bu so'zlarga ishonardim, zotan, ellik yoshni qoralagan bu ayol hamon jozibasi bilan rom etardi. Vaqt beshafqat hukmini o'tkazganiga qaramay, yosh juvonlarning navqironligiyu xushro'yligi ham Elizabet xonimning go'zalligi qoshida g'aribday tuyular-di. Qiz-juvonlarning bo'yoq chaplab tashlangan chehralarini yoqtirmayman, menimcha, turli atir-upalaru lab bo'yoqlarini yuzlariga chaplab, ular ahmoqona yo'l tutadilar. Lekin Elizabet Vermont atir-upalardan tabiatga taqlid qilish uchun emas, unga o'zgacha ko'rк baxsh etish maqsadi-da foydalanadi. Jozibador qiyofasiga nazar solar ekansiz, bezanib olganini payqamaysiz ham, aksincha, faqat hayratlanasiz.

Elizabet xonim pardoz buyumlaridan shunchalar ustalik bilan foydalanardiki, chiroylı chehrasining rang-barang qirralari kamalakday tovlana boshlardi. Qop-qora sochlari silliq bo'lib, qatron-day tovlandardi: chamasi, sochlarni hamisha bo'yab yurardi. Qomati juda kelishgan bo'lib, hamisha sarvday tik tutardi, hatto o'tirgan chog'ida ham torning tarang torlarini eslatardi.

Egniga sidirg'a odmi qora shoyi ko'ylak kiyib olgan, bo'yni va ko'kragini gavharlar shodasi bezab turardi. Gavhar marjonidan tashqari yagona qimmatbaho taqinchog'i yirik zumrad toshli nikoh uzugi bo'lib, xira yaltirashi asnosida qo'li yana ham oppoq bo'lib ko'rindardi. Lekin aynan yorqin qizil bo'yoq bo'yalgan tirnoqli qo'llari yoshi o'tib qolganini fosh etib turardi. Qizlarning muloyim va dumaloq qo'llariga o'xshamaydigan panjalariga ko'zingiz tushganda seskanib ketardingiz. Ular allaqachon yirtqich qushlarning dastpanjalariga o'xshab qolgandi.

Elizabet Vermont g'ayrioddiy ayol edi. Aslzoda oilada (u gersog Sent-Ers yettingching qizi edi) voyaga yetgan Elizabet o'n sakkiz yoshdayoq juda badavlat kishiga erga tegadi va darhol ayshu ish-ratga beriladi, topganini oldi-orqaga qaramay so-vurib, buzuqlik ko'chasiga kiradi. O'ta mag'rur va tavakkalchi bu juvonga ehtiyyotkorlik va oqibatni o'ylab ish qilish singari xislatlar tamomila begona edi. Ikki yil ham o'tmay rosmana janjal kelib chiqadi va eri u bilan ajrashadi. U oilasi buzilgan uchta hamyurtidan bittasiga yana turmushga chiqadi, o'n sakkiz oydan keyin uning xonadondidan ham bosh olib chiqib ketadi.

Elizabet Vermont buzuqligi tufayli hamisha malomatga duchor bo'lardi. Uning hayratomuz go'zalligi va janjalkashligi barchaning e'tiborini tortar, mish-mishlarga o'zi ham keng yo'l ochib bergani uchun el ichida sira tildan tushmasdi. Or-nomusli odamlar uning otini atashdan ham jirkanardi. Elizabet Vermont ashaddiy qimorboz, fohisha va isrofgar edi. Lekin jazmanlariga xiyonat qilgani bilan do'stlariga sadoqatli bo'lib, barchasidan qat'i nazar Elizabet Vermont juda yaxshi ayol, deya e'tirof qiluvchilar topilardi. U hech qachon munofiqlik qilmagan, samimiylik, bag'ri-kenglik va xayrixohlik hamisha o'ziga xos jihatlari bo'lgan. Hayotining ayni shu pallasida u bilan tanishib qoldim. E'tiqod asoslariga putur yetgan bizning davrimizda sha'niga dog' tushgan aslzoda ayollar san'atga moyillik ko'rsata boshlagandilar. O'zлari mansub doira vakillari nafrat bilan yuz o'gиргanda ular hatto yozuvchilar, rassomlar va musiqachilar jamiyatga ham oshna bo'ldilar. Elizabet Vermont xonim maroqli suhbatdosh sifatida ham e'tiborimi ni tortdi. Tangri yorlaqagan barcha odamlar kabi u ham ko'nglidagi bor gaplarni sira tap tortmay, oqibati qanday bo'lishini o'ylab ham o'tirmasdan to'kib solardi (shu asno talay vaqtini tejardi), boz ustiga juda ham topqir edi.

Elizabet xonim jo'shqin hayotini yengil hazil aralash bajonidil so'zlab berdi. Oliy ma'lumotli bo'lmasa ham u bilan suhbatlashib huzur qildim, chunki u rostgo'y ayol edi.

Keyin u barchani hayratga solgan ishni qildi: qirq yoshida yigirma bir yashar yigitga tur mushga chiqdi. Bu telbalarcha qilingan ish deya

tanish-bilishlari ham unga malomat toshlarini yog'dirishdi. Shu paytga qadar har qanday sharoitda ham uni yoqlab kelganlar ham endilikda yoqimtoy yigitcha tarafiga o'tib, uning hayotiy tajribasizligidan foydalanmoqchi bo'layotir, deya Elizabetdan yuz o'girishdi. Ular, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deya bu ishning oxiri yaxshilik bilan tugamasligini oldindan alam bilan bashorat qilishardi, zero Elizabet Vermont hech qaysi erkakka yarim yildan ortiq toqat qilmasligini yaxshi biliшardi. Ular, qolaversa, Elizabetning sharmandali xulqi sababli, yoshgina eri oxir-oqibat tashlab ketib undan qutiladi, deb umid qilishardi.

Lekin barcha yanglishgandi. Elizabet Vermontning fe'l-atvorida yillar o'tib jiddiy o'zgarish sodir bo'lganmi, yoki Piter Vermontning sof va samimiyl muhabbat o'z kuchini ko'rsatganmi, bilmadim, xullas, u Piterga risoladagidek xotin bo'ldi. Ular haminqadar kun kechirishardi, Elizabet isrofgarligi bilan nom chiqarganiga qaramay, endilikda tejamkor uy bekasiday ro'zg'or yuritardi. Kutilmaganda or-nomusi haqida qayg'ura boshladidi, nati-jada mish-mishlarga zo'r beradigan kimsalar ham tilini tishlab qoldi. Piterni baxtiyor qilish hayotining mazmunga aylangandi. Elizabet erini jondan ham ortiq yaxshi ko'rishiiga hech kim shubha qilmasdi. Uzoq vaqtlar mobaynida tildan tushmag'an Elizabet Vermontni ortiq hech kim esga olmay qo'ydi. Uning turmush tarzi nihoyat hech kimni qiziqtirmay qo'ygandi. U tamomila boshqa ayolga aylangandi; jo'shqin hayot kechirgan bu ayol nihoyat qariydi, o'zining o'tmishi unga allaqanday begona, deyarli notanish, allaqachon vafot etgan

xotinning hayotiday tuyulsa-ya, degan fikr menga tinchlik bermasdi. Binobarin, ayollar juda havas qiladigan unutish qobiliyatiga ega.

Biroq qismat bizga qanday tuhfalar tayyorlab qo'yanini oldindan kim ham aytib bera olardi? O'n yil bekamu ko'st turmush kechirgandan keyin Pi-ter Vermont Tashqi ishlar vazirining yordamchisi, lord Robert Kentonning kenja, kelishgan qizi Barbara Kentonni telbalarcha sevib qoladi. Elizabet Vermont bilan qiyoslab bo'lmasa ham, oqsariqdan kelgan Barbara juda ham kelishgan qiz edi.

Bundan talay odamlar allaqachon xabar top-gan, Elizabet xonim buni bilarmikan, mazkur boshi berk ko'chadan qanday qilib chiqarkan, degan fikr barchani qiziqtirardi. Axir, shu paytgacha birorta ham jazmani undan voz kechmagan – bar-chasini uning o'zi tashlab ketgandi.

Elizabet Vermont juda ham jur'atli va topqir ayollardan ekanini bilganim uchun katta hayot bo'sag'asida turgan Kenton singari g'o'r qizaloqni bir cho'qishdayoq daf' qilsa kerak, deb o'ylagandim. Restoranda turli mavzularda suhbatlashib o'tirar ekanmiz, shunday fikrlar xayolimdan kechardi. Elizabet xonim odatdagidek xushchaq-chaq, jozibador va ochiqko'ngil bo'lib, biron narsadan ranjiganini tasavvur ham qilib bo'lmasdi. U men bilan faqat o'zigagina xos oqilona ohangda, hazil-huzullarimga kulgi bilan javob qaytarib, har xil mavzularda berilib suhbatlashdi. U bilan suhbatlashib bahri dilim ochildi va menda shunday taassurot paydo bo'ldiki, Piterning unga nis-batan munosabatida ro'y bergan o'zgarishlardan qandaydir g'ayrioddiy tasodif tufayligina bexabar

qolgan. Men buni o'zimcha shunday izohladim: u Piterni shunchalar qattiq yaxshi ko'radiki, o'z navbatida Piterning muhabbati ham bundan zar-racha kam bo'lishini hatto tasavvur ham qila ol-maydi.

Biz qahva ichdik, bir juftdan sigareta chekdik, nihoyat, u mendan soat necha bo'lganini so'radi:

– Ikkidan yigirma besh daqiqa o'tdi, – deb javob berdim.

– Hisob-kitob qiladigan vaqtim bo'libdi, – dedi u.

– Ijozat bersangiz, nonushtangiz haqini men to'lasam, – deb taklif qildim.

– Jonim bilan, – dedi u chiroqli jilmayib.

– Shoshilyapsizmi?

– Soat uchda Piter bilan uchrashishim kerak.

– U yaxshi yuribdimi?

– Otday.

Uning yuzi jozibali tabassumdan yorishib ket-di, lekin chehrasiga nimadir soya solganday bo'ldi. Bir oz ikkilangandan keyin menga tik qaragancha shunday dedi:

– Siz antiqa voqealarni yoqtirasiz-a? Biroq qan-day niyatda ekanimni hech qachon topolmaysiz. Bugun ertalab Piterga qo'ng'iroq qilib, soat uch-da uchrashishga kelishib oldim. Men bilan ajralish haqida sudda jinoiy ish qo'zg'atishini iltimos qilmoqchiman.

– Bo'lishi mumkin emas! – xitob qildim men qizarganimcha ortiq nima deyishni bilmasdan. – U bilan juda baxtiyorsiz deb o'ylagandim.

– Hamma bilgan voqealardan nahotki meni bexabar deb o'ylasangiz? U darajada go'l emas-man, axir.

Ayrim ayollarga o'zing ishonmaydigan gaplarni ham bemalol gapiraversa bo'ladi. Biroq Elizabeth xonim boshqa toifadan bo'lgani uchun maynavozchilik qilishni o'zimga ep ko'rmasdim.

Bir oz sukut saqlagach so'radim:

– Nima uchun Piter bu borada tashabbuskor bo'lishi kerak, degan qarorga keldingiz?

– Hamma balo shundaki, Robert Kenton juda qaysar qariya. Ajralish bilan bog'liq ishni men boshlaydigan bo'ssam, Barbaraning Piterga turmushga chiqishiga ruxsat berishi dargumon. Men uchun esa – ajralishlar bitta ko'p bo'ldi nimayu, bitta kam bo'ldi nima, zarracha ham ahamiyati yo'q.

Elizabeth xonim bejirim yelkasini uchirib qo'ydi.

– Piter Barbara bilan turmush qurish niyatida ekanini qayoqdan bildingiz?

– Aytyapman-ku, telbalarcha sevib qolgan!

– O'zi aytdimi?

– Yo'q. Barchasidan xabardor ekanimni hatto bilmaydi ham. Bechora ikki o't orasida azob tortyapti. Mening ko'nglimni og'ritmaslik uchun shunchalik zo'r beryaptiki, asti qo'yaverasiz.

– Balki, bu o'tkinchi ishqibozlikdir? – men yurak yutib shunday dedim. – Balki, ko'z ochib yumguncha o'tib ketar.

– Nega endi o'tib ketishi kerak? Barbara yosh va go'zal. Juda kelishgan qiz, ular bir-biriga mos. Ustiga-ustak, rosmana ishqiy munosabatlar zavol topganining nimasi yaxshi? Ular bir-birini sevadi, sevgi munosabatlarida esa ayni zamonda ro'y beradigan voqealar muhim. Men Piterdan o'n to'qqiz yosh kattaman. Agar yigit kishi onasi tengi ayol-

ni ortiq sevmay qo'ygan bo'lsa, sizningcha, bu yigit yana o'sha ayolga ko'ngil qo'ya oladimi? Siz yozuvchisiz, odamlarning ko'ngil kechinmalarini hammadan yaxshi bilishingiz kerak.

– Lekin, nima uchun siz o'z baxtingizni qurban qilishingiz kerak?

– Chunki bundan o'n yil oldin, Piter mening qo'llimi so'raganda, agar biron kun kelib erkin qushday ozod bo'lishni istab qolsang, darhol sen bilan ajrashaman, deb va'da bergenman. Qolaversa, ikkимизning yoshimizda katta farq borligini hisobga olganda, oddiy adolat ham shuni taqozo etadi.

– Piter sizdan talab qilmagan va'dani, nahotki, bekamu ko'st bajarmoqchisiz?

Elizabet xonimning ozg'in qo'llari yengil titrardi, barmog'idagi zumradning xira tovlanishida al-laqanday yovuz kuch jilva qilganday bo'ldi.

– Oh, shunday qilishim kerak, bilasizmi, shunday qilishim zarur! Bergan va'damga vafo qilishim shart. Rostini aytasam, bu yerda shuning uchun ham nonushta qilyapmanki, Piter o'n yil muqaddam ayni mana shu stol ustida mening qo'llimi so'ragandi. Afsuski, men uni hozir ham o'sha paytdagidek jonimdan ortiq yaxshi ko'raman.

Elizabet Vermont boshini eggancha jim bo'lib qoldi, lablarini asabiy qimtib olgani yaqqol ko'rib turardi.

– Endi men bora qolay, – dedi Elizabet xonim. – Piter ilhaq qiladigan odamlarni jinidan battar yomon ko'radi.

U najot axtarganday menga yolvorib tikildi, daf'atan o'rnidan tura olmaganidan ajablandim.

Lekin o'zini qo'lga oldi va jilmaygancha ilkis o'rni-dan qo'zg'aldi.

– Kuzatib qo'yaymi?

– Eshikkacha bo'lsa, mayli, – yana jilmaydi u.

Biz restoran va mehmonxonaning kirish bo'l-masidan o'tdik, darbon aylanma kirish eshigini itardi. Men, taksi chaqirish niyatingiz yo'qmi, deb so'radim.

– Yo'q, yaxshisi piyoda ketaman, havoning yax-shilagini qarang. – U menga qo'lini uzatdi. – Sizni ko'rganimdan juda xursandman, – dedi u. – Erta-ga xorijga jo'nab ketaman, lekin butun kuzni Londonda o'tkazmoqchiman. Menga qo'ng'iyoq qiling.

U tabassum qildi, bosh irg'ab, ko'chaga chiqdi. Hamon iliq bahor havosi hukmron bo'lib, ko'm-ko'k osmonda binolarning tomlari uzra pag'a-pag'a oppoq bulutlar asta suzib yurardi. Elizabet xonim qaddini tik tutgan holda boshini mag'rur ko'targancha ketib borardi. Qaddi-qomati juda kelish-gan bo'lib, ro'paradan kelayotganlar ham o'girilib ortidan qarab qolishardi. Shlyapasini boshidan olib xiyol ta'zim qilgan tanishiga samimi javob bergeniga ko'zim tushdi va bu ayolning ko'ngli cheksiz dardu alam iskanjasida azob tortayotgan-nini bu tanishi hatto tasavvur ham qila olmaydi, degan fikr xayolimdan kechdi. Yana takrorlay-man, Elizabet xonim juda rostgo'y, sofdil ayol edi.

*Abduhamid PARDAYEV tarjimasi*

## **BOLA**

Sohilda qolib ketgan o'n yoshli bolakay, tobora uzoqlashib borayotgan kemaga ma'yus boqib turardi. U yolg'iz edi. Cho'ntagida na puli, na bir burda noni bo'lgan, yalangoyoq bolaning egnida eski kamzuldan bo'lak hech narsasi yo'q edi.

Qishning sovuq oqshomi cho'ka boshladi. Bola qayerda ekanligini bilmasdi. Biroz vaqt yurib, keyin to'xtadi. Ortida dengiz, ro'parasida chek-chegarasi yo'q zamin, boshi uzra tund osmon. Shu payt u engashdi va qor ustida oyoq izlariga ko'zi tushdi, qulog'iga esa zaifgina tovush chalindi. Bola atrofga umid bilan alangladi. Yon-verida ko'zga tashlangudek hech narsa yo'q edi. U yana qulqoq soldi. Bu safar ham o'sha tovush. Ovoz ke layotgan tomonga qarab yurgan bolakay qor ustida yotgan bir ayolni ko'rib qoldi. Ayolning yuzi bo'zdek oqarib ketgan, ko'zlarini yumuq, nafas olmasdi. Qo'llarida esa chinqirib yig'layotgan 5-6 oylik go'dak bor edi. Chaqaloq, chamasi, qiz bola edi.

Bola chaqaloqni qo'llariga oldi. Uning qo'l-oyoqlari sovuqdan muzlab qolgandi. Shunda u sho'rlikni kamzuliga o'rabi oldi va yo'lida davom etdi.

Qizaloqni ko'tarib olgan bolakay qariyb to'rt soatcha tinimsiz yo'l yurdi. Izg'irinda kamzulsiz

qattiq sovuq yedi. Buning ustiga o'lardek holdan toydi, ammo hech narsaga qaramay, olg'a yurishdan to'xtamadi. Bu paytga kelib yig'idan to'xtamayotgan chaqaloq tinchlanib, uqlab qolgandi.

Nihoyat, uning qarshisida kichkina bir shaharchaning qorasi ko'zga tashlandi. Bundan quvonib ketgan bolakay endi deyarli yugurib borardi. U navbatma-navbat ko'chalarga kirib chiqqa boshladi, vaqtı-vaqtı bilan duch kelgan eshikni taqillatib ketaverdi. Afsuski, uning chaqiriqlari bekor ketdi. Biror jonzot javob beray demasdi. Bolakayning na chaqirishga va na qichqirishga madori qoldi. Ammo shunga qaramay, u yana bir necha ko'chaga kirib chiqdi. Bu orada uylar ham tugadi.

Xuddi shu paytda u devor yonida turgan, ko'rinishidan kichkina mashinani eslatadigan aravani payqab qoldi. U g'ildiraklari bor mashinaga ham, tomi bor uychaga ham o'xshab ketardi. Anchagina yaqinlashib qolgan bola buning, haqiqatan soyabonli arava ekanligiga amin bo'ldi.

Aravaning kichik derazasidan bir odam boshini chiqardi.

- Kim u? - so'radi haligi kishi.
- Men.
- Sen kimsan? Qayerdan kelding?
- Judayam holdan toyganman, - dedi bola.
- Soat necha bo'ldi?
- O'lardek sovuq yeganman.
- U yerda nima qilyapsan?
- Men juda ochman.
- Bu dunyoda hammaning ham aytgani bo'lavermaydi.

Deraza yopildi. Chorasiz qolgan bolakay qor bilan qoplangan dala tomon sekin qadam tashladi.

– Nima bo'ldi, nega kirmayapsan?

Bola shu zahotiyq o'girildi.

– Kirsang-chi!

Uning soyabonli aravada yoshi anchaga borib qolgan, novchadan kelgan, oriq bir kishiga ko'zi tushdi.

– Qo'lingdagini o'rindiqqa qo'y, – dedi qariya.

Bola chaqaloqni o'rindiqqa qo'ydi.

– Kimsan? Ustiga ustak shunday paytda ko'chada?! E-e, yo'q, javob berma, sovuq yebsan, buning ustiga charchagansan ham, biroz dam olchi. Kiyimlariningni yech, – dedi u va bolaga kiyish uchun erkaklar ko'ylagi va frak uzatdi.

Keyin esa bolaning oldiga pishirilgan kartosha solingan tarelka qo'ydi.

– Qorning ochgandir, ol, – u yana bir bo'lak non va sanchqi olib, bolaga uzatdi. Bola ovqatlanishga tushib ketdi.

Xuddi shu payt qariya kuchsizgina g'ingshigan tovushni eshitib qoldi va o'rindiqqa yaqinlashdi.

– Tuguningda nima bor? – degancha u tugunchani ochdi.

– Buni qara-ya, bu tag'in nima bo'ldi? Menganimani ko'tarib kelding, bezori? Bu kichkinagini qizcha-ku, u ham sovqotib ketibdi.

U qizaloqni qaydandir topila qolgan toza matoga o'rab-chirmadi. Shundan so'ng sut solingan idishni uning og'ziga tutdi.

Bola birpasdan so'ng sanchqini qo'yib, qizaloqning bo'shab qolgan idishiga tikilib qoldi.

– Bu yana nimasi, yesang-chi! – dedi qariya bolakayga.

– Siz-chi, o'zingizga hech nima yo'qmi?

– Hammasini ye! Nima demoqchisan? Qoldirmasdan ye deyapman. Sen bu yerda faqat ovqat yeysan va uxlaysan. Ol! Yo'qsa seni tashqariga uloqtiraman!

Bolakay ovqatni yeb bo'ldi.

– Bu hammasi emas, – dedi u bolaga. – Og'iz deganlari faqat yeyish uchun emas, gapirish uchun ham berilgan. Gapir-chi, qayerdan kelyapsan?

– O'zim ham bilmayman, – javob berdi bola.

– Nima sababdan?

– Shu oqshom ular meni dengiz sohiliga tashlab ketishdi.

– Shunday de, isming kim? Ota-onang qayerda?

– Mening otam ham, onam ham yo'q.

– Ammo singling-chi?!

– U mening singlim emas.

– Bu yana nimasi?

– Men bu chaqaloqni topib olganman.

– Topib olgansan?!

– Ha.

– Qayerdan?

– Qor ustida o'lib yotgan ayolning qo'lidan olganman.

– Qayerda?

– Bu yerdan 1 lyol narida.

– Qaysi qirg'oqdan?

– Dengiz qirg'og'idan.

– Ko'prikan o'tdingmi?

– Ha.

– Yaxshi, ana u yerga o'tib yot!

Bola qizaloqning yoniga o'tib yotdi.  
U qo'liga chiroq olib, bolalarni aravada yolg'iz  
qoldirgancha chiqib ketdi.

– Homo, – qichqirdi qariya.

Gulduragan tovush javob qaytardi.

Har ikkala bolakay ko'p o'tmay, dong qotib  
uxlab qolishdi.

Bolakay quyoshning ilk nurlari aravaga mo'ral-  
agan bir paytda uyg'ondi. Xuddi shu payt eshik  
ochildi. Qariya qaytib kelgandi. Homo – kattagina  
bo'ri bo'lib, qariyaning ketidan ergashib kelar-  
di. Bolakay o'rnidan turdi-yu, qizaloqning yoniga  
joylashib, tag'in uyquga ketdi.

Qariya bolalarga qayrilib ham qaramadi. Stol  
oldiga joylashib olgach, past ovozda gapira bosh-  
ladi.

– Murda. Uni topish osonmas edi. „Burni bilan  
ko'radigan“ – Homosiz, u yerda kim biladi yana  
qancha bo'lardim. Bir kishi uchun joy yetarli  
bo'lmanган aravada uch kishi bo'lib yashash oson  
bo'lmaydi. Endi mening bir o'g'il va bir qizim bor.

U gapirayotgan paytda bo'ri o'rindiqqa yaqin-  
lashdi va qizaloqning qo'lini yalay boshladi. U  
shunday ohistalik bilan yalardiki, qizaloq buni  
sezmasdi va uyg'onmasdi ham.

– Yaxshi, Homo – dedi qariya, men ularga ota  
bo'laman, sen esa amaki.

*Fransuz tilidan  
Nilufar SHODIYEVA tarjimasi*

## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| Nashriyotdan .....                            | 3   |
| <b>Herman Hesse.</b> Nay.                     |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 5   |
| <b>Pol Savate.</b> So'qqabosh.                |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 16  |
| <b>Yuxan Falkberget.</b> Qismat.              |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 36  |
| <b>Alber Kamyu.</b> Hayotga muhabbat.         |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 43  |
| <b>Dino Butssati.</b> Maoshga qo'shimcha.     |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 51  |
| <b>Yozef Rot.</b> Bir muhabbat tarixi.        |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 68  |
| <b>Jeyms Torber.</b> Oyni olib bering!        |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 90  |
| <b>Emmanuel Rables.</b> Chinnigulli yigit.    |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 103 |
| <b>Alberto Moravia.</b> Qiymat-qoyim.         |     |
| <i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....     | 112 |
| <b>Oldes Xaksli.</b> Pushti rang upa.         |     |
| <i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> .....      | 122 |
| <b>Arnold Bennett.</b> Vasiyatnomा.           |     |
| <i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> ..... | 126 |

|  |     |
|--|-----|
| <b>Karlos Ruiz Zafon.</b> Unutilgan Kitoblar Qabristoni. |     |
| <i>Maftuna Raimqulova tarjimasi.....</i>                 | 129 |
| <b>Martti Larni.</b> Tinchlikparvar.                     |     |
| <i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi .....</i> | 133 |
| <b>Somerset Moem.</b> Talab qilinmagan va'da.            |     |
| <i>Abduhamid Pardayev tarjimasi.....</i>                 | 142 |
| <b>Viktor Gyugo.</b> Bola.                               |     |
| <i>Fransuz tilidan Nilufar Shodiyeva tarjimasi .....</i> | 153 |

*Adabiy-badiiy nashr*

## **SO‘QQABOSH**

*Hikoyalari*

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Muharrir  
Badiiy muharrir  
Musahhih  
Sahifalovchi

*Abdurahmon Jo‘rayev  
Bahodir Ibragimov  
Zikrilla Mamatov  
Surayyo Sunnatullayeva*


Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
09.09.2022-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi  
 $84 \times 108^1 / 32$ . Offset qog‘ozi. „Bookman Old Style“ garniturasida  
offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 8,4.  
Adadi 1000. Shartnoma № 28-22.  
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“  
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodi“  
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ, Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Cho‘ponota ko‘chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodi“ MCHJ Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Qatortol ko‘chasi, 60-uy.



ZIYO NASHR



[fb.com/zoyo.nashr](https://fb.com/zoyo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-8578-0-3

9 789943 857803